

O'zbekistonda iqlim o'zgarishiga qarshi kurashish uchun davlat mablag'larini "yashillashtirish"

Noyabr, 2024-yil



O'zbekistonda iqlim o'zgarishiga qarshi kurashish uchun davlat mablag'larini "yashillashtirish"

Noyabr, 2024-yil

© 2024 Xalqaro tiklanish va taraqqiyot banki / Jahon banki
1818 H Street, NW
Washington DC 20433
Telefon: 202-473-1000
Internet: www.worldbank.org

Ba'zi huquqlar himoyalangan

Mazkur nashr Jahon banki xodimlarining mehnati mahsulidir. Mazkur nashrda ifodalangan topilmalar, sharhlar va xulosalar Jahon banki ijrochi direktorlarining yoki ular vakillik qilayotgan hukumatlarning nuqtai nazarini aks ettirmasligi mumkin.

Jahon banki mazkur nashrga kiritilgan ma'lumotlarning to'g'riligi, to'liqligi yoki dolzarbligini kafolatlamaydi va taqdim etilayotgan ma'lumotlardagi xatoliklar, kamchiliklar yoki nomuvofiqliklar, shuningdek, ma'lumotlar, usullar, jarayonlar yoki xulosalardan foydalanish yoki foydalanmaslikning oqibatlarini uchun javobgarlikni o'z zimmasiga olmaydi. Mazkur nashrda ko'rsatilgan chegaralar, ranglar, nomlar, havolalar/izohlar va boshqa ma'lumotlar biron bir hududning huquqiy maqomini yoki bunday chegaralarni tasdiqlash yoki qabul qilish bo'yicha Jahon bankining qarorini anglatmaydi. Boshqalar mualliflik qilgan nashrlardan iqtibos keltirilishi Jahon banki ushbu mualliflarning qarashlari yoki nashrlarining mazmunini ma'qullashini anglatmaydi.

Mazkur nashrdagi hech narsa Jahon bankining barcha maxsus himoyalangan imtiyozlari va daxsizliklarini cheklash yoki ulardan voz kechishni anglatmaydi yoki shunday deb talqin etilmasligi yoki hisoblanmasligi kerak.

Huquqlar va ruxsatlar

Mazkur nashrdagi material mualliflik huquqi bilan himoyalangan. Jahon banki o'z bilimlarini tarqatishni rag'batlantirganligi sababli, mazkur nashr, to'liq havola keltirilgan holda, notijorat maqsadlarda to'liq yoki qisman takror chiqarilishiga ruxsat etiladi.

Nashrga havolani quyidagicha keltiring: "Jahon banki va O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi. 2024. O'zbekistonda iqlim o'zgarishiga qarshi kurashish uchun davlat mablag'larini "yashillashtirish". © Jahon banki."

Huquqlar va litsenziyalar, shu jumladan, ikkilamchi huquqlar bo'yicha barcha so'rovlar quyidagi manzilga yuborilishi lozim: World Bank Publications, The World Bank Group, 1818 H Street NW, Washington, DC 20433, AQSH; faks: 202-522-2625; elektron pochta: pubrights@worldbank.org.

Muqova dizayni: Vladimir Mirzoyev

MUNDARIJA

MINNATDORCHILIKLAR	ii
QISQARTMALAR	iii
QISQACHA UMUMIY MA'LUMOT	iv
1. MAZKUR TADQIQOTNING MAQSADI VA YONDASHUVI	1
1.1 Soha siyosatiga oid kontekst.....	1
1.2 Maqsad	6
1.3 Yondashuv va metodologiya	7
2. DAVLAT MOLİYASINING KO'LAMI (UZUN RO'YXAT)	8
2.1 Ma'lumotlar manbalari	8
2.2 Ta'sir potentsiali.....	9
3. USTUVOR AHAMIYATGA EGA KORXONALAR (QISQA RO'YXAT)	14
3.1 Tanlash asoslari	14
3.2 Ustuvor subyektlarning profili	16
3.2.1 O'zbekiston ipotekani qayta moliyalashtirish kompaniyasi.....	16
3.2.2 O'zbekiston to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalar jamg'armasi.....	17
3.2.3 Tadbirkorlikni rivojlantirish kompaniyasi	18
3.2.4 Qishloq xo'jaligini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash jamg'armasi (FSSA)	18
3.2.5 "O'z kimyosanoat" (O'zbekiston kimyo sanoati) AJ.....	19
3.2.6 "Issiqlik elektr stansiyalari" AJ (IES).....	20
3.2.7 Biznesni rivojlantirish banki AJ (BRB).....	21
4. ENG ZO'R UCHTA YECHIM BILAN BARVAQT MUVAFFAQIYATGA ERISHISH	22
5. TAVSIYALAR	27
BIBLIOGRAFIYA	35
1-ILOVA	36
2-ILOVA	38
RASMLAR	
1-rasm. O'zbekistonning yashil siyosati va moliyaviy chora-tadbirlari to'g'risida qisqacha umumiy ma'lumot.....	2
JADVALLAR	
2.1-jadval. Davlat jamg'armalarining uzun ro'yxati	10
2.2-jadval. DKLar va DBLarning uzun ro'yxati.....	11
2.3-jadval. Qisqa ro'yxatga kiritilgan DKLari va DBLarning 2023-yilda YaIMga nisbatan daromadlari.....	15
2.4-jadval. Qisqa ro'yxatga olingan jamg'armalardan 2024-yilda kutilayotgan to'lovlar, YaIMga nisbatan ...	15
3.1-jadval. Tanlangan tashkilotlar bilan suhbatlar tafsilotlari.....	22

MINNATDORCHILIKLAR

Mazkur hisobot Jahon bankining **Veyjen Leu** (Weijen Leow) (atrof-muhitga doir loyihalarini moliyalashtirish bo'yicha katta mutaxassis) va **Martin Melekki** (yetakchi iqtisodchi) rahbarligi ostidagi ishchi guruhi tomonidan **Suxrob Fayz** (maslahatchi) tadqiqot ko'magida, O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi bilan hamkorlikda ishlab chiqilgan. Ishchi guruh jamoasi Iqtisodiyot va moliya vazirining birinchi o'rinbosari **Ilhom Norqulovga**; Yashil iqtisodiyotni rivojlantirish boshqarmasi boshlig'i **Shoxzod Islamovga**; va bo'lim boshlig'i **Javlon Xakimovga** chuqur minnatdorchilik bildiradi. **O'tkirjon Xolbadalov** (maslahatchi) qo'shimcha yo'liyo'riq ko'rsatdi.

Ishchi guruh jamoasi, shuningdek, ushbu hisobotni ishlab chiqishda taqdim etgan ma'lumotlari uchun turli davlat organlari va hukumat idoralariga hamda alohida hissalarini uchun Tadbirkorlikni rivojlantirish kompaniyasi Ijrochi direktori o'rinbosari **Jasur Bo'riev** va kompaniya xodimlariga; "O'zbekiston ipotekani qayta moliyalashtirish kompaniyasi" bosh ijrochi direktori **Murodjon Farmanov** va kompaniya xodimlariga; Biznesni rivojlantirish banki direktori o'rinbosari **Baxtiyor Axmonov** va bank xodimlariga minnatdorchilik bildiradi.

Mazkur hisobot **Tatyana Proskuryakova** (Markaziy Osiyo bo'yicha davlat direktori), **Sameh Nagib Vahba** (Sayyora departamenti, Yevropa va Markaziy Osiyo mintaqasi bo'yicha mintaqaviy direktor), **Sanjay Srivastava** (Atrof-muhit, Yevropa va Markaziy Osiyo bo'yicha mintaqaviy menejer) va **Cecile Thioro Niang** (moliya, raqobatbardoshlik va innovatsiyalar bo'yicha amaliyot menejeri) umumiy rahbarligida ishlab chiqilgan. **Nigara Abate** (Aloqa va bilimlarni boshqarish bo'yicha yetakchi mutaxassis) mazkur hisobotni nashrga tayyorladi. Jamoa, shuningdek, Markaziy Osiyo bo'yicha operatsion menejer **Indu Jon-Abrahamga** ko'rsatgan yo'l-yo'riqlari uchun va Jahon banki ekspertlari **Tomas Farole** (yetakchi iqtisodchi), **Ismoil Ahmad Fontan** (moliya sektori yetakchi mutaxassisi) va **Svetlana Klimenkoga** (iqlim bo'yicha yetakchi mutaxassis) o'z minnatdorchiligini bildiradi.

Mazkur hisobot Jahon banki tomonidan boshqariladigan Iqlimni qo'llab-quvvatlash fondining "Whole-of-Economy" (Iqtisodiyot butunligicha) dasturi tomonidan qo'llab-quvvatlandi.

QISQARTMALAR

OTB	Osiyo taraqqiyot banki	NDC	Milliy miqyosda belgilangan hissa
BRB	Biznesni rivojlantirish banki	NGET	Milliy yashil iqtisodiyot taksonomiyasi
TRK	Tadbirkorlikni rivojlantirish kompaniyasi	NNT	Nodavlat tashkilot
ESG	Atrof-muhit, ijtimoiy va boshqaruv	ODA	Rasmiy rivojlanish yordami
FDI	To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar	PAB	Parij bitimiga muvofiq ko'rsatkichlar
FSSA	Qishloq xo'jaligini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash jamg'armasi	Davaktiv	Davlat aktivlarini boshqarish agentligi
GCF	Yashil iqlim fondi	BRMIlar	Barqaror rivojlanish maqsadlari
YaIM	Yalpi ichki mahsulot	SFDR	Barqaror moliyaviy ma'lumotlarni oshkor qilish qoidalari
IG	Issiqxona gazi	KO'K	Kichik va o'rta korxonalar
ICMA	Xalqaro kapital bozorlari uyushmasi	SOB	Davlat banki
AKT	Axborot va kommunikatsiya texnologiyalari	DK	Davlat korxonasi
IFC	Xalqaro moliya korporatsiyasi	DMI	Davlatga qarashli moliya muassasasi
IFI	Xalqaro moliya instituti	DUK	Davlat unitar korxonasi
XVJ	Xalqaro valyuta jamg'armasi	SWF	Suveren boylik fondi
OAJ	Aksiyadorlik jamiyati	TCFD	Iqlim bilan bog'liq moliyaviy ma'lumotlarni oshkor qilish bo'yicha ishchi guruh
KEPCO	Koreya elektr energetika korporatsiyasi	UFRD	O'zbekiston tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi
KPI	Asosiy samaradorlik ko'rsatkichi	BMTTD	Birlashgan Millatlar Tashkilotining Taraqqiyot Dasturi
MChJ	Mas'uliyati cheklangan jamiyat	UzDIF	O'zbekiston to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalar jamg'armasi
IMV	Iqtisodiyot va moliya vazirligi	UzMRC	O'zbekiston ipoteka kreditlarini qayta moliyalash kompaniyasi
MKO'K	Mikro, kichik va o'rta korxonalar		
ILMA	Istiqbolli loyihalar milliy agentligi		

QISQACHA UMUMIY MA'LUMOT

O'zbekiston hukumati yashil iqtisodiy o'tish sari tahsinga sazovor qadamlar tashladi. Bu borada u iqlim o'zgarishiga qarshi kurashish barobarida o'z iqtisodiyotlarini modernizatsiya qilishga intilayotgan rivojlanayotgan bozorlarga namuna bo'lmoqda. 2022-yildan boshlab hukumat o'z investitsiya siyosatini qayta ko'rib chiqdi, subsidiyalarni qayta tartibga soldi va iqlimga investitsiyalarni rag'batlantirish maqsadida imtiyozlar joriy qildi. Yashil standartlar va qoidalarning joriy etilishi natijasida sohadagi davlat siyosati yanada mustahkamlanmoqda. Shunga qaramay, iqlim o'zgarishi bilan bog'liq risklar ortib borarkan, mamlakatning dadil moliyaviy islohotlar, ayniqsa, davlat aktivlaridan samaraliroq foydalanish yo'lidagi sa'y-harakatlarini kuchaytirish lozim.

Davlat moliya institutlari (DMI) va davlat korxonalari (DK) yashil tashabbuslarning hali foydalanilmagan manbasini aks ettiradi. Birgalikda ular sezilarli moliyaviy qudratga ega: to'qqizta DMI butun iqtisodiyot miqyosida jami kreditlarning 70 foizini ta'minlaydi va hisob-kitoblarga ko'ra, 2024-yilda O'zbekiston Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi kabi davlat investitsiya jamg'armalari va 26 ta boshqa jamg'armalar tomonidan moliyalashtirilgan investitsiyalar mamlakat yalpi ichki mahsulotining (YalM) qariyb 10 foizini tashkil etdi. O'zbekiston davlat korxonalari energetika, sanoat, qishloq xo'jaligi va transport sohalarida ustuvor mavqega ega.

Xususiy mablag'lar oxir-oqibat iqlim va atrof-muhitni muhofaza qilish bo'yicha chora-tadbirlarni moliyalashtirishning asosiy qismini ta'minlaydi. Shunga qaramay, DMI va DKlarni ishga solish mamlakatning bugungi kundagi konteksti uchun pragmatik strategiya hisoblanadi, shuningdek, iqlim o'zgarishlariga qarshi harakatda davlat strategik yetakchiligini amalga oshirish hamda xususiy sektor investitsiyalar oqimini jalb qilishning samarali usulidir. DMI va DKlar muhim strategik investor rolini o'ynaydi va yashil texnologiyalar va biznes modellar uchun bozor risklarini kamaytirishi mumkin. Davlat mablag'larini yashil investitsiyalarga yo'naltirish xususiy moliyalashtirishning ko'plab qo'shimcha oqimlariga yo'l ochishda namuna vazifasini o'taydi va yashillashtirish loyihalarida amaliy tajriba yaratishga yordam beradi.

Iqtisodiyot va moliya vazirligi (IMV) ushbu foydalanilmagan bevosita siyosat dastagini ishga solishi lozim. Ko'plab DMI va DKlarning aksiyadori sifatida IMV aksiyadorlar qarorlari orqali yashil investitsiya strategiyalarini belgilash imkoniga ega. Bu IMVning iqlim o'zgarishi sharoitida davlat aktivlarini joylashtirishdagi boshqaruvchi vazifasiga hamda uning iqlim o'zgarishiga qarshi harakat va yashil iqtisodiyotni rivojlantirish sohasidagi siyosiy rolga mos keladi. Alohida DMI yoki DK darajasidagi yashil strategiya investitsiya maqsadlarini belgilash hamda yashil portfellar va ularning natijalarini oshkor qilishni ta'minlashni talab qiladi. Jahon miqyosida O'zbekiston uchun davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanadigan iqlimga oid moliyalashtirish vositalarining mashhur namunalar mavjud. Xususan, Braziliya Milliy Taraqqiyot Banki (Banco Nacional de Desenvolvimento Econômico e Social, BNDES) qimmatli ilhom manbai bo'la oladi. Iqlim o'zgarishi qarshi kurash va yashil moliyalashtirishga oid barcha sa'y-harakatlar uchun markaziy muvofiqlashtiruvchi funksiya ham muhim ahamiyatga ega va O'zbekiston ana shunday muvofiqlashtiruvchi platforma yoki moliyalashtirish vositasi haqida allaqachon bosh qotirmoqda. Moliyalashtirish vositasi resurslarni tartibga solish, davlat tashabbuslari va xususiy kapital o'rtasidagi sinergiyani optimallashtirishga va uglerod bozorlari va xalqaro iqlim jamg'armalari kabi yangi moliyalashtirish oqimlaridan foydalanishga yordam beradi. Bundan tashqari, O'zbekiston bank regulyatori kredit risklari bo'yicha iqlim risklarini baholashni o'z ichiga olgan yangi yo'riqnomalarni joriy etish orqali kredit portfelidagi o'zgarishlarni tezlashtirishi mumkin.

Yashil DMI va DKlar ta'minot zanjirlari bo'yab ijobiy iqtisodiy ikkilamchi ta'sirlarni keltirib chiqarishi va xususiy o'yinchilarga o'rnak bo'lishi mumkin. Lekin ijobiy o'zgarishlar yo'lida boshqalarni ortidan ergartishga hamma ham birdek tayyor emas. Ba'zi muassasalar **yashil investitsiyalar bo'yicha mamlakat chempioni** bo'lish uchun boshqalardan ko'ra munosibroq va mazkur tadqiqot ayni kerakli xususiyatlarga

ega bo'lgan eng yaxshi nomzodlarni aniqlaydi. Bu sifatlarga ularning asl rivojlanish vazifalari hamda milliy iqlim va atrof-muhit maqsadlari o'rtasidagi muvofiqlik, kuchli moliyalashtirish salohiyati va, eng muhimi, aniq moliyalashtirish maqsadlari va samaradorlik ko'rsatkichlari bilan yashil strategiyalarni amalga oshirishga tayyorlik kiradi. Ushbu sa'y-harakatlarning negizida investitsiya yo'riqnomalari va tasdiqlash jarayonlariga kiritilishi kerak bo'lgan Milliy Yashil Iqtisodiyot Taksonomiyasi (NGET) asosidagi yashil investitsiyalarning ishonchli ta'riflaridan foydalanish yotadi. Davriy ravishda o'tkaziladigan yashil ta'sir tekshiruvlari yashil investitsiyalarning ishonchligini oshirish va "yashil yuvish" riskining oldini olish uchun yashil investitsiyalarni shaffof taqsimlash tamoyillarini qo'llab-quvvatlashi lozim. Yashil ta'sir investitsiyalarida strategik yetakchilik uchun moliyalashtirish vositasi sifatida DMI va DKlardan foydalanish davlat korxonalari va davlat tijorat banklari uchun xususiylashtirish yoki transformatsiya ishlarini hech qanday tarzda sekinlashtirmasligi yoki ularning bozorlardagi faoliyatini qo'llab-quvvatlamasligi yoki ushbu kvazi-davlat korxonalari orqali yo'naltiriladigan siyosatni moliyalashtirishni oshirmasligi kerak.

Aksiyadorlar tomonidan qo'llab-quvvatlanadigan yashil moliyalashtirish borasida asosiy nomzodlar sifatida uchta tashkilot yaqqol ajralib turadi: Tadbirkorlikni rivojlantirish kompaniyasi (TRK), Biznesni rivojlantirish banki AJ (Biznesni rivojlantirish banki, BRB) va O'zbekiston ipotekani qayta moliyalashtirish kompaniyasi (UzMRC).

TRK. Kengash tomonidan tasdiqlangan yashil strategiya hamda quyosh energiyasi va boshqa yashil loyihalarni moliyalashtirish tajribasiga ega bo'lgan TRK davlat yashil investitsiyalari yo'nalishida yetakchi sifatida faoliyat yuritishga eng munosib nomzod. Uning keyingi qadamlari investitsiyalarni ko'rib chiqish jarayonini NGET bilan muvofiqlashtirish va xodimlarni o'qitish orqali salohiyatni oshirishga qaratilishi lozim. Yashil investitsiyalar yo'nalishidagi yutuqlarni kuzatish va hisobot berish uchun monitoring mexanizmlarini yaratish ham bir xil darajada muhimdir. TRK o'z oldiga 2026-yilga kelib yashil moliyalashtirishni 35 foizga yetkazishdek ulkan maqsadni qo'ygan.

BRB. Bank o'zining operatsion yo'riqnomalariga ekologik barqarorlik tamoyilini kiritib, oldinga ildam qadamlar tashladi va hozirda Barqaror moliya tizimini ishlab chiqmoqda. Rahbariyat bilan bo'lgan suhbatlar yashil moliyalashtirish yo'nalishida keng qamrovli rejalarni ochib berdi. Iqlim bilan bog'liq moliyalashtirish maqsadlarini belgilash va portfel ma'lumotlarini oshkor qilish shular jumlasidan. Aksiyadorlarning qo'llab-quvvatlashi bilan BRB o'zining yashil kun tartibida jadal harakat qilish imkoniga ega. Bankning xalqaro yashil moliya platformalariga qo'shilish rejalari ham global moliya institutlari bilan yanada kengroq hamkorlik qilish imkoniyat eshiklarini ochadi.

UzMRC. Bu yashil moliyalashtirishda yetakchilikka yana bir da'vogar, ayniqsa, uy-joy sohasida yashil moliyalashtirish nuqtai nazaridan. Xalqaro moliya institutlari (IFI) bilan yaqin aloqalari unga yashil ipoteka skriningi vositalarini ishlab chiqish imkonini berdi hamda bank bu yil yashil obligatsiyalarni chiqarishga tayyor. Biroq UzMRC o'z portfelida yashil faoliyatni kengaytirishi uchun O'zbekiston NGETga mos keladigan yashil va iqlimga chidamli binolar uchun sanoat miqyosidagi standartni qabul qilishi lozim. Soha siyosatini ishlab chiquvchi mutasaddilar bunday standartni qabul qilishni ustuvor vazifa sifatida belgilashlari kerak, chunki bu yashil ipotekalarni tasdiqlash va yashil obligatsiyalarni chiqarish jarayonini soddalashtiradi.

Boshqa DKlari va DMllari ham yashil investitsiyalar sohasida yetakchi rol o'ynash uchun yetarli salohiyatga ega. Kimyo sanoatining yetakchi o'yinchisi bo'lmish "O'zkimyosanoat" 2050 yilga borib issiqxona gazlari chiqindilarini 90 foizga kamaytirish majburiyatini olgan. An'anaviy ifloslantiruvchi sektorda uning barqarorlik sohasidagi yetakchiligi kuchli signal bo'ladi. Eskirgan yoqilg'i elektr stansiyalarini boshqaradigan **Issiqlik elektr stansiyalari**, ko'p jihatdan "jigarrang" faoliyatini yashillashtirish uchun hali foydalanilmagan salohiyatga ega bo'lgan yana bir korxonalar Davlat mablag'lari hisobiga moliyalashtiriladigan ushbu tashkilot, qayta tiklanadigan energiya, uglerodni ushlab qolish va energiya saqlashga sarmoya kiritish borasida boshqa energiya kompaniyalari uchun kuchli namuna bo'lishi mumkin.

O'zbekiston to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalar jamg'armasi (UzDIF) ham muhim rol o'ynaydi. Jamg'armaga to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni rag'batlantirish vazifasi yuklatilgan. O'z strategiyasiga yashil o'lchovni kiritish orqali u asosiy e'tiborini barqaror texnologiyalar va biznes modellariga qaratuvchi xorijiy investorlarning yangi to'lqinini jalb qilishi mumkin. **Qishloq xo'jaligini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash** jamg'armasi o'zining moliyaviy qarorlariga yashil mezonlarni kiritish orqali qishloq xo'jaligi qiymat zanjiri bo'ylab iqlimga chidamli dehqonchilik amaliyotini tezlashtirishi mumkin.

IMV bilan O'zbekiston tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi (UFRD) va Davlat aktivlarini boshqarish agentligi (Davaktiv) kabi boshqa hamkorlar o'rtasidagi o'zaro hamkorlik yashil moliyalashtirishni yengillashtirishga yordam beradi. TRK ham, UzMRC ham IMV aksiyadorlari nazorati ostida bo'lib, ularga aksiyadorlar qarorlari orqali yashil investitsiya maqsadlarini belgilashni osonlik bilan topshirish mumkin. UzDIF, BRB va "O'z kimyosanoat" kabi tashkilotlarni o'z ichiga olgan UFRD o'zining korxonalar portfelida yashil strategiya va o'lchanadigan samaradorlik ko'rsatkichlarini qabul qilishi lozim.

O'zbekistonning DKlari va DMlari mamlakatning yashil iqtisodiy o'tishini amalga oshirish uchun hali foydalanilmagan katta salohiyatga ega. Aniq yetakchilik, strategik muvofiqlashtirish va kuchli aksiyadorlar qo'llab-quvvatlashi bilan ushbu davlat tuzilmalari yanada yashil, barqaror iqtisodiyotga yo'l ochib berishi va xususiy kapitalni shunga mos ravishda safarbar qilishi mumkin.

1 MAZKUR TADQIQOTNING MAQSADI VA YONDASHUVI

1.1 Soha siyosatiga oid kontekst

O'zbekiston hukumati o'zining umumiy iqtisodiy taraqqiyoti va bozorga yo'naltirilgan siyosatining bir qismi sifatida yashil va iqlim o'zgarishlariga chidamli iqtisodiy o'tishni amalga oshirishga kirishdi.

Investitsion ehtiyojlarni hisobga olinsa, muvaffaqiyatli o'tish uchun moliyalashtirishni bosqichma-bosqich oshirish kerak bo'ladi. O'zbekiston uchun ishlab chiqilgan Mamlakat iqlimi va taraqqiyoti bo'yicha Hisobotda¹ energetika tizimini uglerodsizlantirish xarajatlari 2030-yildan boshlab har yili 20 milliard AQSH dollarini tashkil etishi va undan keyin ortib borishi taxmin qilingan. Chiqindilarni va ifloslanishni boshqarish, tabiat va ekotizimni muhofaza qilish, iqlimga chidamli infratuzilma va jamoalarga investitsiyalar kabi boshqa ekologik muammolarni hal qilish uchun moliyalashtirish talab etiladi.

Qo'llab-quvvatlovchi siyosat tizimi. Iqtisodiyotni yashillashtirish bo'yicha milliy siyosat yo'nalishi Prezidentning "Yashil iqtisodiyot chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-436 (2022-yil, 2-dekabr) qarori bilan belgilab berildi. Shundan beri hukumat investitsiyalarni qo'llab-quvvatlovchi siyosatni ishlab chiqish va qo'shimcha mablag'larni jalb qilish orqali yashil moliyalashtirishda sezilarli yutuqlarga erishdi. Masalan, byudjet sikli orqali iqlim o'zgarishlariga qarshi kurash va yashil xarajatlarni (shu jumladan, ofatlar xavfi uchun) kuzatib borish va ustuvorligini belgilash uchun xarajatlarni yorliqlash joriy etildi. Qayta tiklanadigan energiya va yashil texnologiyalarni joriy qilishni rag'batlantirish uchun energiya subsidiyalari qaytarildi. Milliy yashil iqtisodiyot taksonomiyasi (NGET) bu borada qoidalar mavjud bo'lmagan ayrim tarmoqlar uchun yashil standart bo'lib xizmat qiladi. Fiskal javobgarlikni baholash uchun iqlim risklarini tahlil qilish orqali ma'lumot olinmoqda va hukumat tomonidan qo'llab-quvvatlanuvchi tabiiy ofatlardan sug'urta qilish dasturi ko'rib chiqilmoqda. Mablag'yig'ishning yashil obligatsiyalar va xalqaro uglerod bozorlari kabi yangi imkoniyatlari ochildi. 1-rasmda amalga oshirilgan siyosat va moliyalashtirish chora-tadbirlari, ularning nisbiy so'ndirilishi va foydalanilgan manbalar haqida qisqacha umumiy ma'lumot berilgan. Chora-tadbirlar tafsilotlari 1-ilovada keltirilgan. Subsidiyalar islohoti, yashil taksonomiya va yashil obligatsiyalar standartlari hamda uglerod bozorini rivojlantirish kabi tashabbuslar Jahon banki tomonidan qo'llab-quvvatlandi. Milliy iqlim fondi ustida ishlash ham muhokama qilinmoqda.

Davlat jamg'armalari va yordam dasturlari, davlat banklari (birgalikda davlat tasarrufidagi moliya institutlari (DMI) deb yuritiladi) va davlat korxonalarini (DKlarni) yashillashtirish yana bir samarali strategiya.² Mazkur hisobotning asosiy e'tibori shunga qaratilgan. Soha siyosati doirasidagi maqsadlarga erishish uchun davlat mablag'lari turli yo'llar bilan boshqarilishi mumkin. Yillik byudjet ajratmalari yashil davlat loyihalari va kapital qo'yilmalarni qo'llab-quvvatlashning bir yo'li. Hozirda davlat byudjeti xarajatlarining atigi 9-11 foizini iqlimga mos deb hisoblash mumkin.³ Byudjet jarayoni orqali iqlim xarajatlarining ulushini oshirish byudjet so'rovi va davlat investitsiyalarini boshqarish tizimida yangi yo'nalish demak. Buning uchun turli davlat institutlarining manfaatlari va iqtisodiy jihatdan o'zaro aloqadorligi iqlimga yetarli darajada mos kelishi kerak. Yana bir yo'li – korxonalar va uy xo'jaliklarini moliyaviy qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini


¹ Jahon banki guruhi, 2023-yil.

² Mazkur tadqiqot yashil fiskal harakatlarning boshqa turlarini qamrab olmaydi, shunga qaramay, ular ham bir xil darajada samarali bo'lishi mumkin. Bularga quyidagilar misol bo'la oladi: (i) byudjetni taqsimlash jarayonining bir qismi sifatida davlat xarajatlarida yashil jamoat tadqiqotlari va dasturlariga ustuvorlik berish bo'yicha byudjet bazasi va yo'riqnomalarini qayta ko'rib chiqish va/yoki (ii) yashil investitsiyalar va sa'y-harakatlarni rag'batlantirish uchun soliq va soliq xarajatlari siyosatini isloh qilish. Biroq bu choralar yashil davlat jamg'armalari, korxonalar va kreditorlar uchun qo'shimcha choralar hisoblanadi.

³ Fransiya taraqqiyot agentligi (FTA) va BMTTD, 2023-yil. Bu xarajatlarni yorliqlash bo'yicha mashg'ulot bo'lib, bunda iqlim o'zgarishi maqsadlaridan biri sifatida ko'riladigan xarajatlarni iqlim belgisi bilan yorliqlanadigan metodologiyaga asoslangan. Bu NGETdan farq qiladi, chunki NGET sanoat tasniflari va sanoatga xos texnik mezonlardan yanada aniqroq va qat'iy yashil xarajatlarni ma'lumotlarini taqdim etish uchun foydalanadi.

ko'rib chiqish bo'lib, bunga investitsiya jamg'armalari va yashil investitsiyalar bo'yicha davlat dasturlari kabi vositalar kiradi. Soha siyosatiga doirasidagi moliyaviy subsidiyalar, grantlar, kredit liniyalari, kafolatlar va boshqalarni tarqatish kanallaridir.⁴ Korxonalar va moliya institutlarining davlat tasarrufida ekanligi⁵ yashil va iqlim o'zgarishlariga chidamlilik kun tartibini ilgari surish uchun yana bir imkoniyatni taqdim etadi. Asosiy mulkdor sifatida davlat DKlar va kreditorlarning operatsion va strategik maqsadlariga ta'sir qilish uchun o'z aksiyadorlik huquqlaridan foydalanishi mumkin.

1-RASM. O'zbekistonning yashil siyosati va moliyaviy chora-tadbirlari to'g'risida qisqacha umumiy ma'lumot



* Hukumat rag'batlantirilishi va kafolatlari orgali boshqariladigan xususiy moliyani ham gamrab olgan.

** Hisobotning asosiy mavzusi

BYUDJET BAZASINING CHEGARALARI

O'zbekistonning konsolidatsiyalashgan davlat xarajatlari⁶ – byudjet doirasidagi, byudjetdan tashqari va kvazi-fiskal xarajatlarni o'z ichiga olgani holda – yalpi ichki mahsulotning (YaIM) qariyb 41 foizini tashkil qiladi. Bu tegishli mintaqadagi hamkorlar, daromad darajasi o'xshash mamlakatlar va namuna sifatida e'tibor qaratilayotgan iqtisodiyotlarga qaraganda ancha yuqori bo'lib, davlatning iqtisodiyotdagi ustunligini ta'kidlaydi. Davlat tomonidan yo'naltirilgan ko'plab byudjetdan tashqari mablag'larni markaziy davlat xarajatlariga birlashtirishda oldinga siljish bor. Yillik byudjet jarayoni markaziy nazoratni amalga oshirish va xarajatlar ustuvorligini belgilash uchun eng keng qamrovli asos emas. Masalan, byudjet tashkilotlarining byudjetdan tashqari hisoblari saqlanib qolgan bo'lib, O'zbekiston tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi (UFRD) tomonidan soha siyosati doirasida kreditlash, shuningdek, davlat korxonalarini va kreditorlarni kvazi-fiskal qo'llab-quvvatlash ham ancha salmoqli bo'lishi mumkin.

⁴ Uglrod yoki atrof-muhit solig'i investitsiya imtiyozlarini o'zgartirish uchun samarali siyosat, lekin u odatda DMI darajasida qo'llanilmaydi.

⁵ Jahon bankining "O'zbekiston: davlat xarajatlari sharhi"ga ko'ra (Izvorski va boshq. 2019), jami davlat xarajatlarining taxminan yarmi byudjet jarayonidan tashqarida, shu jumladan, hukumatning umumiy fiskal strategiya maqsadlari bilan kam muvofiqlashtirilgan holda resurslarni to'play oladigan va sarflay oladigan byudjetdan tashqari tashkilotlar tomonidan amalga oshirilgan. Davlat korxonalarini va davlat banklarini ushbu byudjetdan tashqari manbalardan yuqori darajada subsidiyalangan kreditlar oladi. Hukumat mazkur tadqiqot doirasidan tashqarida bo'lgan moliyaviy intizom va barqarorlikni yaxshilash ustida ishlamoqda.

⁶ Izvorski et al 2019. O'zbekiston davlat xarajatlari sharhi 2019 yil.

Prezidentning PQ-436-sonli qarori rag'batlantiruvchi chora-tadbirlar, standartlar, qoidalar va infratuzilmani qo'llab-quvvatlash zarur choralar bo'lsa-da, yashil investitsiyalarning gurkirab o'sishini boshlab berish uchun yetarli emasligini tan oldi. Shuningdek, unda amalga oshirish chora-tadbirlari qatorida davlat resurslaridan foydalanish ham belgilandi. Milliy miqyosda belgilangan hissalar (NDC) muddatlariga rioya qilish uchun siyosatchilar mavjud va yangi to'g'ridan-to'g'ri moliyalashtirish kanallaridan samarali foydalanib, yashil investitsiyalar uchun kuchli bozor signalini berishi va xususiy moliyalashtirish oqimlarini jalb qilishi kerak. Rag'batlantiruvchi siyosatga qo'shimcha vosita sifatida davlat moliyalashtirish kanallarini "yashillashtirish" O'zbekiston misolida, ayniqsa, davlatning iqtisodiyotdagi ustuvor mavqeyi va davlat korxonalari, davlat banklari (DB) va boshqa moliyaviy ko'mak dasturlari orqali katta mablag' ajratilayotgani uchun juda maqbul siyosat. Shu bilan birga, DKlari va DBlari zarur transformatsiya, xususiylashtirish yoki, zarur hollarda, bozordan chiqish uchun oldindan belgilangan yo'ldan borishlari kerak. Ushbu evolyutsiya, hatto ular davlat siyosati doirasida iqlim o'zgarishiga qarshi kurashish bo'yicha strategik yetakchilik vositasi sifatida qo'llanilganida ham davom etishi kerak. Oldindan belgilangan yo'llar DKlar va DBlarni xususiylashtirish va transformatsiyalash strategiyalari bilan belgilanadi – bu yerda strategik bo'lmagan DKlar va DBlar xususiylashtirishga tayyorlanadi, strategik DKlar va DBlar – yaqin kelajakda davlat mulkida qoladiganlari – foyda olish va ta'sir maqsadlariga ega bo'lgan ishonchli ijtimoiy mas'ul muassasalarga aylantiriladi.

RAQOBATNI KUCHAYTIRISH VA BOZOR YARATISH SHAROITIDA DBLARI VA DKLARNI "YASHILLASHTIRISH"

Iqtisodiyotni "yashillashtirish" uchun DBlari va DKlardan foydalanish O'zbekiston kabi bozor tamoyillariga va yashil rivojlanishning yangi modeliga ikki tomonlama o'tish sharoitidagi mamlakat uchun pragmatik strategiya hisoblanadi. Xususiy sektor kapitali ko'pincha yetarli emas yoki yangi yashil texnologiyalarni qo'llashda yuqori darajadagi tavakkalchilikdan qochadi, ayniqsa, umumiy biznes ufqlaridan tashqarida, daromadliligi noaniq uzoq muddatli investitsiyalarni talab qiladigan yangi yashil sektorlarda. DB va DKlar davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanadi va ular yashil loyihalarni amalga oshirishda yetakchilik qilish, namuna effektini yaratish va xususiy investitsiyalarni shunga moslashishga undaydigan tajribani rivojlantirish uchun yaxshiroq imkoniyatga ega. Yashil DBlar qisqa muddatda faol xususiy sektorning o'sishini kechiktirmasligi va kerak bo'lganda transformatsiya qilinishi, xususiylashtirilishi yoki bosqichma-bosqich tugatilishi kerak. Transformatsiya yoki xususiylashtirish yo'lida ular yangi yashil faoliyatning bozordagi risklarini kamaytirish orqali yashil loyihalarga uzoq muddatli xususiy investitsiyalar uchun zamin yaratishlari lozim.

O'zbekistonda 1-darajali DBlari rivojlanishning aniq maqsadlariga erishish (xususan, mikro, kichik va o'rta korxonalar (MKO·K) tomonidan ish o'rinlari yaratish yoki ipoteka kreditlari orqali ko'chmas mulkka ega bo'lish) uchun foizli subsidiyalar va imtiyozli kreditlarni boshqarish orqali sohaga oid siyosat vositasi sifatida allaqachon faoliyat yuritmoqda. DBlarini "yashillashtirish" shunchaki davlat resurslarini iqlimga doir choralar va yashil iqtisodiyot siyosatining ustuvor yo'nalishlariga moslashtirishni nazarda tutadi. Boshqacha qilib aytganda, DBlarining ta'sir tizimlari yashil ta'sirlarni (masalan, energiya samaradorligi yoki iqlim ofatlariga chidamlilik) mustahkam o'rnatishi, ularning mezonlarini ishlab chiqishi va mustaqil tekshirish mexanizmlarini tashkil etishi lozim. Xususiylashtirishga mo'ljallangan 2-darajali strategik bo'lmagan DBlari xususiylashtirishga tayyorgarlik ko'rish uchun davlat siyosati dasturlari – bozordan tashqari subsidiyalar va imtiyozli shartlarda kreditlash dasturlari, shu jumladan vositachilikdan voz kechishi kerak. 2-darajali strategik DBlar rivojlanish kreditlarini bozor buzilishlariga olib kelmaydigan va xususiy kapitalga egallash uchun imkon beradigan tarzda qayta ishlab chiqishlari kerak, shu bilan birga o'z ta'sir tizimlariga yashil maqsadlarni qabul qilishlari kerak. Strategik va strategik bo'lmagan davlat korxonalariga nisbatan qo'llaniladigan bir xil tamoyillar strategik bo'lmagan (xususiylashtirishga mo'ljallangan) va strategik davlat korxonalariga nisbatan qo'llanilishi mumkin.

Davlat o'z mablag'larini ajratishni boshladi va ko'proq davlat aktivlari xususiy ishtirok uchun yorliqlandi.

Mazkur hisobotdan tashqari, Jahon banki guruhi va boshqa XMTlar strategik bo'lmagan DKlari va DBlarini xususiylashtirishga tayyorlashda va tegishli foyda olish orqali ishonib topshirilgan davlat kapitalini himoya qilish bilan birga, kam xizmat ko'rsatilayotganlarga davlat xizmatlarini ko'rsatish bo'yicha o'zlarining ijtimoiy kafolat majburiyatlarini bajarish uchun strategik DKlar va DBlarni o'zgartirishda siyosat bo'yicha maslahatlar, texnik yordam va investitsiyalarni moliyalashtirish bilan hukumatni qo'llab-quvvatlamoda. Strategik bo'lmagan DKlari va DBlarni "yashillashtirish" o'zlari investitsiya kiritayotgan potensial tashkilotlarning yashil faoliyatiga e'tibor qaratadigan nufuzli xalqaro investorlarni jalb qilish uchun xususiylashtirishga tayyorgarlikning bir qismidir. "Yashillashtirish"ga tayyorlik orqali DBlari to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni (FDI) jalb qilishga urinayotgan global rivojlanayotgan bozorlarda boshqa nomzod investitsiyalarga nisbatan raqobatbardosh ustunlikni ko'rsatishi mumkin. Strategik DBlari va DKlari davlat xizmatlaridan yetarli darajada foydalanolmaydigan aholi qatlamiga "jigarrang" davlat xizmatlarini taqdim etish orqali ularni e'tibordan chetda qoldirolmaydi. Ular bunday aholi qatlamiga "yashil" davlat xizmatlarini taqdim etish orqali ularning imkoniyatlarini vaqtidan oldin kengaytirishi mumkin. Qolaversa, DBlari va DKlarini "yashillashtirish" shaffof va inklyuziv tarzda amalga oshirilishi, bunda barcha bilim va yo'l-yo'riqlar xususiy sektor uchun birdek ochiq bo'lishi lozim. O'z navbatida, xususiy sektor uchun yashillashtirish amaliyotini qo'llash orqali istalgan vaqtda bozorga kirib kelishiga ruxsat berilishi kerak. Bu "yashillashtirish" bo'yicha bilim va yordam berishda teng sharoitlarni ta'minlaydi.

Davlat o'z mablag'larini ajratishni boshladi va ko'proq davlat aktivlari xususiy ishtirok uchun yorliqlandi.

Mazkur hisobotdan tashqari, Jahon banki guruhi va boshqa XMTlar strategik bo'lmagan davlat korxonalari va XKlarni xususiylashtirishga tayyorlashda va tegishli foyda olish orqali ishonib topshirilgan davlat kapitalini himoya qilish bilan birga, kam xizmat ko'rsatilayotganlarga davlat xizmatlarini ko'rsatish bo'yicha o'zlarining ijtimoiy kafolat majburiyatlarini bajarish uchun strategik DKlar va DBlarni o'zgartirishda siyosat bo'yicha maslahatlar, texnik yordam va investitsiyalarni moliyalashtirish bilan hukumatni qo'llab-quvvatlamoda. Strategik bo'lmagan DKlar va DBlarni yashillashtirish o'zlarining potentsial sarmoyadorlarining yashil faoliyatiga e'tibor qaratadigan nufuzli xalqaro investorlarni jalb qilish uchun xususiylashtirishga tayyorgarlikning bir qismidir. Yashillashtirishga tayyorlik orqali ikkinchisi to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni (FDI) jalb qilishga urinayotgan global rivojlanayotgan bozorlarda boshqa nomzod investitsiyalarga nisbatan raqobatbardosh ustunlikni ko'rsatishi mumkin. Strategik DB va DKlar kam ta'minlanganlarga "jigarrang" davlat xizmatlarini taqdim etish orqali ularni ortda qoldira olmaydi. Ular kam ta'minlanganlarga "yashil" davlat xizmatlarini taqdim etish orqali ularning imkoniyatlarini ertaroq boyitishi mumkin. Qolaversa, DB va DKlarni yashillashtirish shaffof va inklyuziv tarzda amalga oshirilishi kerak, shunda barcha bilim va yo'l-yo'riqlar xususiy sektor uchun birdek ochiq bo'lishi kerak, bu esa istalgan vaqtda yashillashtirish amaliyotini qo'llash orqali kelishiga ruxsat berilishi kerak. Bu yashillashtirish bo'yicha bilim va yordam berishda teng sharoitlarni ta'minlaydi.

Davlat mablag'lari hal qiluvchi rol o'ynaydi, lekin agar mamlakatning fiskal holatiga salbiy ta'sir ko'rsatmaslik kerak bo'lsa, yashil moliyalashtirishning yagona manbai bo'la olmaydi.⁷ Birinchidan, aksariyati DMllari tomonidan boshqariladigan mavjud moliyaviy qo'llab-quvvatlash dasturlari hozirda ish o'rinlari yaratish va samaradorlikni oshirish kabi siyosat maqsadlariga qaratilgan. Siyosatning ustuvor yo'nalishlari orasida iqlimga oid choralar va yashil iqtisodiyot maqsadlarining ahamiyati ortib borayotganini inobatga olgan holda, bu dasturlar ham iqlim va yashil iqtisodiyot maqsadlariga muvofiqlashtirish orqali "yashillashtirilishi" kerak. Ikkinchidan, DMllari va DKlari ko'plab xususiy bizneslar tomonidan tavakkalchiligi o'ta yuqori deb hisoblanishi mumkin bo'lgan yashil texnologiyalarni moliyalashtirishda strategik investorlar yoki birinchi harakatlanuvchilar bo'lishlari va shu tariqa yashil texnologiyalar va faoliyatga xususiy kapitalni ko'proq jalb qilishlari lozim. Cheklangan moliyalashtirish maydonini hisobga olgan holda, xususiy mablag'lar oxir-oqibat yashil va iqlimga chidamli investitsiyalarni moliyalashtirishning asosiy qismini ta'minlashi kerak. DMllari va DKlarini "yashillashtirish" davlat resurslaridan strategik foydalanish bo'lib, yashil qonunchilik va me'yoriy-huquqiy bazalar hamda bozor infratuzilmasini ta'minlash bilan birgalikda iqtisodiyotga ijobiy tashqi ta'sirlar va natijalarni tezroq keltirib chiqarishi mumkin. Muvaffaqiyatli misollar mavjud. Braziliya

⁷ Jahon banki guruhi 2023 a. 6-7-betlar.

Milliy Taraqqiyot Banki (Banco Nacional de Desenvolvimento Econômico e Social, BNDES) zimmasiga yashil tashabbuslarning, ayniqsa, Amazon tropik o'rmonlari mintaqasida, asosiy harakatlantiruvchi kuchiga aylanish vazifasi yuklatildi. Davlat "yashil chempioni" sifatida u xususiy kompaniyalar uchun kamaytirilgan moliyaviy risklar bilan, jumladan, bozor bilan risklarni bo'lishish orqali, uzoq muddatli barqaror loyihalarga investitsiya kiritish uchun barqaror asosni taqdim etdi, bu davlat tomonidan boshqariladigan yashil tashabbuslar individual xususiy tadbirkorlar uchun bozorga strategik yo'nalish va bozor aniqligini qanday ta'minlashi mumkinligini ko'rsatib berdi. Koreya elektr energetika davlat korporatsiyasi (KEPCO) quyosh va shamol energetikasiga katta investitsiya kiritib, mamlakatning qayta tiklanadigan energetikaga o'tishini boshqarib, xususiy kompaniyalarni ham shunga o'xshash harakatga undadi. Yangi Zelandiyaning Tabiiy xavf-xatarlar bo'yicha komissiyasi xususiy sektor bilan hamkorlikda tizimli iqlim o'zgarishi va boshqa tabiiy ofatlar keltirib chiqaradigan dastlabki zararlarni qoplab berish va sug'urta xizmatlarini taqdim etish orqali xususiy moslashishni moliyalashtirish imkonini beradi. Ushbu milliy darajada risklarni taqsimlash tizimi xususiy sug'urta kompaniyalariga ikkilamchi zararni tijorat yo'li bilan qoplash va saqlanib qolgan xavfni yanada samarali boshqarish imkonini beradi.

DMlari va DKlari tomonidan ko'proq yashil moliyalashtirishga imkon yaratish tegishli siyosat va standartlarni talab qiladi. Atrof-muhit va iqlim o'zgarishini qo'llab-quvvatlovchi loyihalar va tadbirlar uchun ishonchli ta'rifni taqdim etuvchi NGETning rasmiylashtirilishi bilan muhim tarkibiy blok yaratildi. Bu Vazirlar Mahkamasining [2023-yil 25-oktabrdagi 561-son qarori](#)⁸ bilan belgilandi. Qarorda taksonomiyadan foydalanishni muvofiqlashtirish va amalga oshirish uchun javobgarlik Iqtisodiyot va moliya vazirligi (IMV) zimmasiga yuklatildi. Qarorga ko'ra, davlat moliyaviy ko'magidan (subsidiyalar, grantlar, kredit liniyalari, kafolatlar va h.k.) foydalanayotgan tadbirkorlik subyektlari, shu jumladan, xususiy va davlat mulki bo'lgan tadbirkorlik subyektlari bunday moliyalashtirishni 2024-yil oktabrdan e'tiboran NGET bo'yicha tasniflashlari shart. Shu bilan birga, hukumat ushbu subyektlar uchun investitsiya faoliyati to'g'risidagi tegishli ma'lumotlarni mas'ul organga taqdim etish qoidalari va tartibini belgilashi lozim. IMVga, shuningdek, taksonomiyani davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanadigan moliyaviy yordam dasturlari, shuningdek, davlat va xususiy kompaniyalar o'rtasida eksperimental asosda qo'llash vazifasi yuklandi. NGET jonli hujjat bo'lganligi sababli, IMV NGETni yanada yangilash va uni qo'llash bo'yicha harakatlar bo'yicha O'zbekiston hukumatiga tavsiyalar berish uchun sinov natijalarini baholaydi.

O'tgan davr ichida loyihalar va tadbirlarni tasniflash uchun NGET tizimiga tayangan holda davlat mablag'lari, korxonalar va kreditorlarni "yashillashtirish" maqsadida yangi imkoniyatlarni ochish uchun boshqa qonun hujjatlari ham qabul qilindi. Bularga quyidagilar kiradi:

- a. Prezidentning 2023-yil martidagi (2023-yil 18-avgustida o'zgartirishlar kiritilgan) PQ-83-son qarori faoliyat samaradorligini oshirish uchun yirik davlat korxonalarini isloh qilishga chaqiradi. Bunga ekologik, ijtimoiy va korporativ boshqaruv tamoyillarini joriy etish kiradi.
- a. Prezidentning 2023-yil 10-noyabrda tasdiqlangan PF-193-son Farmonida Tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlash davlat jamg'armasining aksiyadorlik jamiyatiga (AJ) o'tishi va boshqa takomillashtirish, jumladan, unga o'tish doirasida yashil loyihalarni qo'llab-quvvatlash bo'yicha ishlarni amalga oshirish belgilangan.
- a. PQ-83 va PF-193 qarorlarida Davlat tadbirkorlik jamg'armasi va yirik DKlari tomonidan amalga oshirilishi mumkin bo'lgan islohotlarga misol sifatida yashil obligatsiyalar keltirilgan. Buni qo'llab-quvvatlash uchun Istiqbolli loyihalar milliy agentligi (ILMA) 2024-yil 7-iyunda yashil obligatsiyalarni qimmatli qog'ozlarni ro'yxatga olish va tarqatish qoidalarga kiritish uchun 2000-10-sonli tuzatishni chiqardi. Keyinchalik, 2024-yil 14-iyunda chiqarilgan "Yashil obligatsiyalarning uslubiy talablari to'g'risida"gi 51-sonli buyrug'i yashil obligatsiyalarning korporativ emissiyasi uchun texnik standartlarni belgiladi.

⁸ Vazirlar Mahkamasining 2023 yil 25 oktabrdagi 561-son qarori.

1.2 Maqsad

Mazkur tadqiqotning maqsadi o'z moliyaviy operatsiyalarida iqlim o'zgarishi va atrof-muhit bo'yicha qo'shimcha maqsadlar va sa'y-harakatlarni samarali amalga oshirishi mumkin bo'lgan muayyan DMllari va DKlarini aniqlashdan iborat. Muvofiqlik ko'rsatkichlaridan biri korxonaning yashil faoliyatga ustuvor ahamiyat berish uchun NGET kabi ishonchli ta'riflar asosida yangi investitsiya yo'riqnomalarini va tasdiqlash jarayonlarini qabul qilishga tayyorligi hisoblanadi. Muayyan yuqori salohiyatli jamg'armalar va korxonalar yoki "yashil chempionlar" uchun mazkur hisobot, shuningdek, investitsiyalarni ko'rib chiqish va tasdiqlash jarayonlarida NGET va boshqa yashil yo'riqnomalarni qabul qilish bo'yicha tavsiyalarni taqdim etadi. Mazkur hisobotdagi tavsiyalar, birinchi navbatda, ko'plab DMllari va DKlarining asosiy egasi va shu nuqtai nazardan ularga "yashillashtirish" talablarini o'rnatishga qodir va yashil iqtisodiyotda eng ilg'or siyosatni ishlab chiqishga mas'ul yetakchi vazirlik sifatida IMVga qaratilgan⁹.

Ko'zda tutilgan natija iqlim va atrof-muhitga oid tashabbuslarni davlat tomonidan moliyalashtirish va yashil investitsiyalar uchun xususiy moliyalashtirishni ko'paytirishdan iborat. Davlat moliyalashtirish kanallari o'z rolini investitsiya maqsadlarini belgilash hamda yashil va yashil bo'lmagan investitsiyalar ulushini ochib berish orqali namoyish etadi. O'zbekiston hukumati Jahon banki va rivojlanish sohasidagi boshqa hamkorlarning texnik va moliyaviy ko'magida¹⁰ 2026-yilgacha davlat mablag'larining 30 foizini yashil loyihalarga ajratishni maqsad qilib qo'ydi. Atrof-muhit va iqlim o'zgarishlariga qarshi kurash harakatlarini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashning sezilarli darajada oshishi xususiy sektorning o'z oldiga qo'yan ustuvor vazifalariga ham ta'sir qilishi kutilmoqda.

YASHIL IQTISODIYOT MILLIY TAKSONOMIYASI

Yashil taksonomiya iqlim o'zgarishiga taalluqli va ekologik barqaror faoliyatni tasniflash, ushbu faoliyat uchun malaka standartini belgilash va atrof-muhitga oid ma'lumotlar bo'rttirib ko'rsatilgan yoki noto'g'ri bo'lgan "yashil yuvish" xavfini kamaytirish uchun asosdir. Davlat siyosatida taksonomiya siyosatdagi bo'shliqlar qayerda bo'lishi mumkinligini aniqroq tushunish va davlat moliyasining hajmi va qamrovini kuzatish imkonini beradi. Standart tasniflash tizimining keng qo'llanilishi ma'lumotlarning taqqoslanishiga yordam beradi. Majburiy yoki ixtiyoriy bo'lishidan qat'i nazar, barqaror rivojlanish samaradorligi bo'yicha hisobot berish uchun bir xil standartdan foydalanish xususiy sektor ishtirokchilari o'rtasida tahlil qilish va taqqoslashga imkon yaratadi.

IMV va Jahon banki yashil taksonomiyani amalga oshirish uchun huquqiy bazani ishlab chiqishga hissa qo'shish maqsadida o'zaro hammualliflikda O'zbekiston yashil taksonomiyasi bo'yicha yo'riqnoma yaratdi.¹¹ Yo'riqnomada taksonomiya bo'yicha uslubiy jihatlar muhokama qilinadi, joriy xalqaro yondashuvlar ko'rib chiqiladi hamda taksonomiya modeli va uni kelajakda takomillashtirish rejasi taklif etiladi. Shuningdek, u taksonomiyani ishlab chiqish va amalga oshirish davomida manfaatdor tomonlarning sa'y-harakatlarini muvofiqlashtirish uchun zarur bo'lgan institutsional asoslarni o'rganadi, unda samarali davlat nazorati va taksonomiya qoidalarining bajarilishini ta'minlash muhimligi ta'kidlanadi.

⁹ Mazkur hisobotdagi tavsiyalar hukumatning XMT bilan hamkorligi orqali qabul qilinishi mumkin. Misol uchun, Jahon banki IMV va muayyan DMI bilan bir qator siyosat maqsadlari va ijtimoiy-iqtisodiy natijalarni, jumladan yashil moliyalashtirish, uglerodsizlanish va iqlim o'zgarishi ofatlariga chidamlilikni hisobga olgan holda salohiyatni oshirish va investitsiyalarni moliyalashtirishni qo'llab-quvvatlash bo'yicha muzokaralar olib bormoqda.

¹⁰ Jahon banking "Inklyuziv va barqaror bozor iqtisodiyoti" taraqqiyot siyosati amaliyoti dasturi.

¹¹ Jahon banki guruhi va O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi, 2023-yil.

1.3 Yondashuv va metodologiya

Jamg'armalar va korxonalarni baholashda qo'llaniladigan yondashuv ko'rib chiqishning to'rt bosqichini o'z ichiga oladi. Bu orqali yashillashtirish mumkin bo'lgan barcha obyektlarning umumiy majmuasi va ustuvor e'tibor qaratish zarur bo'lgan yuqori salohiyatli nomzodlarning tanlangan ro'yxati vujudga keladi.

- a. **Uzun ro'yxatni shakllantirish.** Ushbu bosqich turli manbalardan foydalangan holda potensial tashkilotlar va davlat dasturlarining uzun ro'yxatini tuzishni o'z ichiga oladi, davlat reyestri, me'yoriy hujjatlar va davlat mablag'lari bilan bog'liq siyosatlar, turli iqtisodiyot tarmoqlarini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash, Dklari va DBLari shular jumlasidan. Normativ-huquqiy hujjatlarning ma'lumotlar bazalari, rasmiy nashrlar va boshqa tegishli axborot manbalaridan foydalaniladi.
 - b. **Qisqa ro'yxatni shakllantirish.** Uzun ro'yxatni aniqlashtirish va toraytirish uchun korxonalar yashil loyihalarni moliyalashtirish, taklif etilayotgan moliyaviy vositalar turlari, yashil loyihalarga taalluqli tarmoq yo'nalishi, atrof-muhitga ta'siri va barqarorlikka qo'shishi mumkin bo'lgan hissasi, shuningdek, faoliyatida NGETning qo'llanilishi kabi mezonlar asosida baholanadi.
 - c. **Qo'shimcha filtrlash va yakuniy tanlash.** Ushbu bosqichda qisqa ro'yxatga kiritilgan tashkilotlarning chuqurroq tahlili o'tkazildi. Bunda tashkilotlarning missiyalari va maqsadlari, o'tmishi, hozirgi kundagi holati, atrof-muhit barqarorligi bo'yicha kelajak uchun belgilab olingan majburiyatlari, moliyaviy natijalari, investitsiya strategiyalari va yashil maqsadlarni qabul qilishga tashkilotning tayyorligi e'tiborga olindi. Har bir tashkilot yoki dasturning investitsiya qarorlarini qabul qilish jarayonlariga NGETni integratsiya qilish qobiliyati va dastlabki tayyorgarligi baholanadi. Ular duch kelishi mumkin bo'lgan to'siqlar yoki qiyinchiliklar baholanadi.
 - d. **Batafsil baholash.** Qo'shimcha filtrlash bosqichi natijalariga asoslanib, qisqa ro'yxat o'z investitsiya siyosatiga NGETni muvaffaqiyatli kiritish uchun eng yuqori potensialni namoyish qilgan eng yaxshi tashkilotlarni tanlash maqsadida qayta ko'rib chiqiladi. Tanlangan subyektlar yakuniy ro'yxatining o'z strategiyalariga va/yoki investitsiya siyosatiga NGETni kiritishga irodasi va tayyorligini baholash uchun keng qamrovli baholash o'tkaziladi. Ushbu baholash bu subyektlarning asosiy qaror qabul qiluvchilari bilan intervyu va savol-javob almashishni o'z ichiga oladi. Baholangan omillarga yetakchilik majburiyati, mavjud resurslar, rejalar va NGETni amalga oshirish imkoniyatlari kiradi. Baholash jarayonida o'ziga xos muammolar yoki yaxshilash uchun yo'nalishlar aniqlanadi.
-

2 DAVLAT MOLIYASINING KO‘LAMI (UZUN RO‘YXAT)

2.1 Ma’lumotlar manbalari

Turli manbalardan potensial jamg‘armalar, tashkilotlar va dasturlarning uzun ro‘yxati tuzildi. Manbalardan biri sifatida so‘nggi uch yildagi davlat xarajatlari, davlat tomonidan moliyaviy qo‘llab-quvvatlash va investitsiyalar to‘g‘risidagi qonun hujjatlari va me‘yoriy hujjatlardan foydalanildi. Quyidagilar eng dolzarblari hisoblanadi:

- a. O‘zbekiston Respublikasining 2023-yil 25-dekabrda “O‘zbekiston Respublikasining 2024-yilgi Davlat byudjeti to‘g‘risida”gi O‘RQ-886-sonli qonuni
- b. Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 19-noyabrda “O‘zbekiston Respublikasining konsolidatsiyalashgan byudjetiga kiritiladigan davlat mablag‘lari ro‘yxatini tasdiqlash to‘g‘risida”gi VMQ-917-sonli qarori
- c. Prezidentning 2020-yil 27-oktabrda “Davlat ishtirokidagi korxonalarni isloh qilishni jadallashtirish va davlat aktivlarini xususiylashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6096-sonli qarori
- d. Prezidentning 2023-yil 18-avgustda “Davlat korxonalari va davlat banklarini isloh qilish mexanizmini takomillashtirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-283-sonli qarori
- e. Prezidentning 2023-yil 1-martda “Davlat korxonalarini isloh qilish jarayonlarini jadallashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-83-sonli qarori
- f. Birlashgan Millatlar Tashkilotining Taraqqiyot Dasturi (BMTTD) tomonidan e‘lon qilingan Davlat aktivlarini boshqarish agentligi (Davaktiv)ning davlat ulushiga ega bo‘lgan korxonalar reyestri va davlat moliyalashtirish kanallarini belgilab bergan O‘zbekiston Respublikasining Yagona milliy moliyalashtirish strategiyasi.¹²

Ko‘pgina davlat qo‘llab-quvvatlash dasturlari, “dastur” deb belgilanishiga qaramay, dasturni an’anaviy ma’noda belgilaydigan ba’zi asosiy atributlari mavjud emas. Tuzilmali boshqaruv, kompleks rejalashtirish, resurslarni boshqarish, risklarni boshqarish va hokazolarga ega bo‘lgan keng qamrovli dasturlar o‘rniga, bu tashabbuslar ko‘pincha oddiy harakatlar rejalariga o‘xshaydi. Dasturiy tuzilmaning yo‘qligi ularni amalga oshirishga NGETni kiritishni qiyinlashtiradi. Yashil taksonomiyani amalga oshirish uchun dasturlardan, hech bo‘lmaganda, mablag‘larni taqdim etish mezonlari va kutilayotgan natijalar hamda natijalar haqida hisobot berish talabini belgilash talab qilinadi. Ushbu elementlar davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlanadigan tashabbuslarning barchasida ham, har doim ham mavjud emas. Nomzod sifatida o‘rganilgan bir qancha dasturlar shu sababdan dastlabki bosqichdayoq ro‘yxatdan chiqarildi.

Davlat jamg‘armalariga kelsak, 2024-yilgi davlat byudjeti asosiy manba vazifasini o‘tadi.¹³ Bu uzun ro‘yxatning huquqiy jihatdan muvofiqligi hamda O‘zbekistonning amaldagi byudjet siyosati va me‘yorlariga mosligini ta‘minlaydi. Davlat byudjeti davlat jamg‘armalari, ularning kutilayotgan daromadlari va xarajatlari to‘g‘risidagi ma‘lumotlarni taqdim etadi. Ma‘lumotlarning to‘liqligini ta‘minlash uchun O‘zbekiston Respublikasining Konsolidatsiyalashgan byudjeti bo‘yicha hisoblangan maxsus maqsadli davlat jamg‘armalari va trast jamg‘armalar¹⁴ ham ko‘zdan kechirildi. UFRDga bag‘ishlangan muhokama uning hajmi hamda bir nechta DKLari va DBLar uchun qalqon sifatidagi alohida ahamiyatini hisobga olgan holda 5-bo‘lim – Tavsiyalar bo‘limida berilgan.

¹² Mazkur hisobot Barqaror Rivojlanish Maqsadlariga (BRMLar) yo‘naltirilgan moliyaviy resurslarni aniqlaydi hamda milliy yashil o‘tish va iqlim o‘zgarishiga qarshi kurashish siyosati maqsadlarini moliyalashtirishni o‘z ichiga oladi.

¹³ [O‘zbekiston Respublikasining 2023-yil 25-dekabrda O‘RQ-886-sonli qonuni.](#)

¹⁴ [Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 19-noyabrda VMQ-917-sonli qarori.](#)

Davlat jamg'armalari, korxonalari va banklarining ushbu majmuidan nomzodlarning yashil maqsadlarni qabul qilish uchun muvofiqligi ularning hajmi, atrof-muhitga potensial ta'siri, innovatsiyalar qobiliyati, o'zgarishlarga ochiqligi va ilg'or korporativ boshqaruv amaliyotlarini joriy qilganligi, jamoalarga ta'siri va sektorni qamrab olish xususiyatlariga asoslangan holda ko'rib chiqildi. "Transformatsiya qilinishi kerak bo'lgan yirik davlat korxonalari" va "Islohotlar va operatsion samaradorlikni oshirish"¹⁵ ro'yxatlari¹⁶ DKLari va DBlarining uzun ro'yxati uchun manba vazifasini o'tadi. Bu DKLari va DBlarining katta hajm va ko'lamga ega bo'lishini, shuning uchun O'zbekistonning iqtisodiy strategiyasi va islohotlar kun tartibi uchun muhim ahamiyatga ega ekanligini anglatadi. Tez orada xususiyashtirishi rejalashtirilayotgan korxonalar va banklar uzun ro'yxatdan chiqarib tashlandi.

2.2 Ta'sir potentsiali

Buning natijasida qo'shimcha o'rganish uchun 26 ta davlat jamg'armalari (2.1-jadval), 37 ta DK va to'qqizta DKdan iborat (2.2-jadval) uzun ro'yxat yaratildi. Ushbu ro'yxatning ko'lamini iqtisodiyotga, jumladan, xususiy sektori kuchli va tijorat faolligiga ega bo'lgan tarmoqlarga davlat mablag'larining sezilarli darajada kiritilganligini ko'rsatadi.

- a. **Umuman olganda, uzun ro'yxatga kiritilgan 26 ta jamg'arma 2024-yilda 99 trillion so'm (YalMning 7,7 foizi) mablag' sarflashi kutilmoqda.** Ushbu ro'yxatga kiritilmagan, lekin qat'iy davlat nazorati ostida bo'lgan UFRD 18,8 trillion so'm (YalMning 1,4 foizi) sarflashi kutilmoqda.
- b. **DKlari iqtisodiy faoliyatda sezilarli ulushga egalik qiladi.**¹⁷ Ularning investitsiya ta'siri nuqtai nazaridan, [O'zbekistonning 2023-2025-yillarga mo'ljallangan Investitsiya dasturiga](#)¹⁸ asosan, 2024-yilda davlat byudjetidan investitsiyalar uchun 28,1 trillion so'm (YalMga nisbatan 2,2 foiz) ajratilgan bo'lib, uning salmoqli qismi DKLari uchun va DKLari tomonidan mo'ljallangan. Ushbu investitsiyalar infratuzilmani yaxshilash, operatsion samaradorlikni oshirish va texnologik yutuqlarni rag'batlantirishga qaratilgan. DKLarning haqiqiy investitsiya xarajatlari YalMning 2,2 foizidan ancha yuqori bo'lishi mumkin, chunki bu yerda faqat yillik byudjet mablag'lari aks ettirilgan va taqsimlanmagan foydadan ruxsat etilgan xarajatlari istisno qilingan. DKLari korporativlashtirilgan bo'lishi mumkin va odatda OAJ yoki kamroq tarqalgan holatlarda mas'uliyati cheklangan jamiyat (MChJ)ning huquqiy shaklini oladi. Korporativlashtirilmagan DKLari davlat unitar korxonalari (DUK) sifatida to'liq davlat tasarrufi ostida qoladilar. Huquqiy shakllar ko'lamini DKLarining xususiy kapitalga murojaat qila olishi va AJ sifatida ko'proq foyda olishga yo'naltirilgan strategiyalarni amalga oshirish uchun moslashuvchanligini aks ettiradi, shu bilan birga DUKlar to'liq davlat tasarrufi ostida va davlat siyosati maqsadlariga chambarchas mos kelishi kutiladi. Amalda esa, ko'pgina AJlar davlat organlari bilan chambarchas bog'liqligicha qolmoqda va davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash dasturlari uchun mablag' o'zlashtirish funksiyalarini bajaradi.¹⁹ IMV tarixan hukumatning islohot dasturi bilan yaqindan muvofiqligini ta'minlash uchun ko'plab strategik ahamiyatga ega davlat korxonalari uchun asosiy aksiyadorlik funksiyalarini bajarib kelgan.²⁰
- c. **DBlari birgalikda mamlakat bank sektoridagi asosiy moliyaviy ko'rsatkichlarning muhim qismiga egalik qiladi.** DBlari aktivlari qariyb 447,1 trillion so'mga baholanadi, bu 2024-yil 1-aprel holatiga ko'ra, bank tizimidagi jami aktivlarning 67 foizini tashkil etadi. Kreditlar bo'yicha DBlari tomonidan jami 335,4 trillion so'mga yaqin kreditlar berilgan bo'lib, umumiy kreditlarning 70 foizini tashkil etadi.²¹

¹⁵ [Prezidentning 2023-yil 1-martdagi PQ-83-son qarori.](#)

¹⁶ [Prezidentning 2020-yil 27-oktabrdagi PF-6096-son qarori.](#)

¹⁷ O'zbekistonda DKni belgilashda qo'llaniladigan egalik mezonlari xalqaro me'yorlarga mos kelmaydi. DKLarining iqtisodiyotdagi haqiqiy hajmini baholash qiyin kechdi. Iqtisodiyotda DKLarning ulushi 30 foizdan 50 foizigacha deb baholanadi. Manbalar: Izvorski va boshqalar, 2019; O'zbekiston: davlat xarajatlari sharhi; OTB Instituti – 2020, O'zbekistondagi davlat korxonalari: zaxiralarni ko'zdan kechirish va islohotlarning ayrim ustuvor yo'nalishlari.

¹⁸ [Prezidentning 2022-yil 28-dekabrda PQ-459-son qarori.](#)

¹⁹ Yangi tashkil etilgan "Tadbirkorlikni rivojlantirish kompaniyasi" aksiyadorlik jamiyati bunga misoldir.

²⁰ Jahon banki guruhi, 2023b.

²¹ [2024-yil 1-aprel holatiga ko'ra tijorat banklarining asosiy ko'rsatkichlari bo'yicha ma'lumotlar.](#)

2.1-JADVAL. Davlat jamg'armalarining uzun ro'yxati

No	Fond nomi	Nazorat qiluvchi tashkilot	2024-yilgi xarajatlar prognozi, mlrd so'm ²²
1	Suv ta'minoti va kanalizatsiya tizimini rivojlantirish jamg'armasi ¹	IMV	1260,0
2	Ilm-fanni moliyalashtirish va innovatsiyalarni qo'llab-quvvatlash jamg'armasi	Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi	916,7
3	Aholini tadbirkorlikka jalb qilish jamg'armasi	Mahallabay ishlash va tadbirkorlikni rivojlantirish agentligi	382,0
4	Hunarmandchilik va kasanachilikni qo'llab-quvvatlash jamg'armasi	Bandlik va kambag'allikni qisqartirish vazirligi	80,0
5	Avtomobil yo'llarini rivojlantirish jamg'armasi	IMV	5484,8
6	"El-yurt umidi" mutaxassislarini xorijda tayyorlash va vatandoshlar bilan muloqot qilish jamg'armasi	Prezident huzuridagi Davlat xizmatlarini rivojlantirish agentligi	605,8
7	Jismoniy va yuridik shaxslarga yetkazilgan mulkiy zararlarni kompensatsiya qilish davlat jamg'armasi	Vazirlar Mahkamasi	500,0
8	Byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi	IMV	63,137,0
9	Bandlikka ko'maklashish davlat jamg'armasi	Bandlik va kambag'allikni qisqartirish vazirligi	465,9
10	Xorijdagi mehnat migrantlarini qo'llab-quvvatlash hamda ularning huquq va manfaatlarini himoya qilish jamg'armasi	Bandlik va kambag'allikni qisqartirish vazirligi	102,0
11	Jamoat ishlari jamg'armasi	Bandlik va kambag'allikni qisqartirish vazirligi	215,9
12	Bog'dorchilik va issiqxonalarni rivojlantirish jamg'armasi	Qishloq xo'jaligi vazirligi huzuridagi Bog'dorchilik va issiqxonalarni rivojlantirish agentligi	613,7
13	Vinochilikni rivojlantirish jamg'armasi	Alkogol va tamaki bozorini tartibga solish va vinochilikni rivojlantirish agentligi	138,5
14	Tibbiyotni rivojlantirish davlat maqsadli jamg'armasi	Sog'liqni saqlash vazirligi	530,0
15	Davlat ijtimoiy himoya jamg'armasi	Prezident huzuridagi Ijtimoiy himoya milliy agentligi	3285,0
16	Tadbirkorlikni rivojlantirish kompaniyasi (sobiq Tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash davlat jamg'armasi)	IMV	947,0 ²³
17	Raqamli texnologiyalarni rivojlantirish jamg'armasi	Raqamli texnologiyalar vazirligi	1150,9
18	Byudjetdan tashqari Turizmni qo'llab-quvvatlash jamg'armasi	Turizm qo'mitasi	281,6
19	Davlat qarzig'a xizmat ko'rsatishni kafolatlash jamg'armasi	IMV g'aznachiligi	897,5
20	Xotin-qizlar va oilani qo'llab-quvvatlash davlat jamg'armasi	Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oila va xotin-qizlar qo'mitasi	204,0

²² [O'zbekiston Respublikasining 2023-yil 25-dekabrda "O'zbekiston Respublikasining 2024-yilgi Davlat byudjeti to'g'risida"gi O'RQ-886-sonli qonuni.](#)

²³ TRK uchun mablag' sifatida IMVga byudjet mablag'lari.

No	Fond nomi	Nazorat qiluvchi tashkilot	2024-yilgi xarajatlar prognozi, mlrd so'm ²²
21	Davlat aktivlarini boshqarish, o'zgartirish va xususiylashtirishning byudjetdan tashqari jamg'armasi	Davaktiv	11 803,0
22	Davlat tibbiy sug'urta jamg'armasi	Sog'liqni saqlash vazirligi	3709,6
23	Ta'lim kreditlarini moliyalashtirish jamg'armasi	IMV	350,0
24	O'zbekiston ipotekani qayta moliyalashtirish kompaniyasi (UzMRC)	Davaktiv	1340 ²⁴
25	Qishloq xo'jaligini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash jamg'armasi (FSSA)	IMV	1086,6
26	O'zbekiston to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalar jamg'armasi (UzDIF)	O'zbekiston tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi	Yo'q
Jami			99,487.6

2.2-JADVAL. DKlar va DBlarning uzun ro'yxati

DK nomi	Yuridik shakl	Mintaqa	Davlat ulushi
Metallurgiya (3)			
Navoiy kon-metallurgiya kombinati	OAJ	Navoiy viloyati	100,0
Olmaliq kon-metallurgiya kombinati	OAJ	Toshkent viloyati	98,5
O'zmetkombinat	OAJ	Toshkent viloyati	81,1
Neft, gaz va ko'mir (5)			
O'zbekneftgaz	OAJ	Toshkent shahri	100,0
O'ztransgaz	OAJ	Toshkent shahri	99,5
Hududgazta'minot	OAJ	Toshkent shahri	100,0
Uzgastrade	OAJ	Toshkent shahri	100,0
O'zbekko'mir	OAJ	Toshkent viloyati	97,9
Energiya (4)			
O'zbekiston milliy elektr tarmog'i	OAJ	Toshkent shahri	100,0
Hududiy elektr tarmog'i	OAJ	Toshkent shahri	100,0
Issiqlik elektr stansiyalari	OAJ	Toshkent shahri	100,0
"O'zbekgidroenergo"	OAJ	Toshkent shahri	100,0
Kimyo sanoati (2)			
"O'zkimyosanoat"	OAJ	Toshkent shahri	100,0
Navoiyazot	OAJ	Navoiy viloyati	49,0
AKT (2)			
UzPost	OAJ	Toshkent shahri	76,4
"O'zbektelekom"	OAJ	Toshkent shahri	94,8
Geologiya va konchilik (12)			
Navoiyuran	DK ²⁵	Navoiy viloyati	100,0

²⁴ 2024-yil uchun kutilayotgan to'lovlar.

²⁵ Davlat korxonasi.

DK nomi	Yuridik shakl	Mintaqa	Davlat ulushi
Xisorgeologiya	DUK ²⁶	Qashqadaryo viloyati	100,0
Qizilqumgeologiya	DUK	Navoiy viloyati	100,0
Samarqandgeologiya	DUK	Samarqand viloyati	100,0
Surxongeologiya	DUK	SURXONDARYO VILOYATI	100,0
O'zbekgeofizika	OAJ	Toshkent viloyati	82,2
Urakmyobmetgeologiya	DUK	Toshkent shahri	100,0
Toshkentgeologiya	DUK	Toshkent shahri	100,0
Geoltextaminot	DUK	Toshkent shahri	100,0
Markaziy laboratoriya	DUK	Toshkent shahri	100,0
Geoburteknika	DUK	Toshkent shahri	100,0
Geologiya-marksheyderlik xizmati	DUK	Toshkent shahri	100,0
Geoterekalmaz	MChJ	Toshkent shahri	49,0
Moliya (1)			
O'zagrosug'urta	OAJ	Toshkent shahri	94,0
Oziq-ovqat sanoati (1)			
Uzdonmahsulot	OAJ	Toshkent shahri	100,0
Mexanika va elektrotexnika (1)			
"O'zavtosanoat"	JSC	Tashkent city	100,0
Yo'l va transport infratuzilmasi (1)			
Toshshahartransxizmat	OAJ	Toshkent shahri	100,0
Uy-joy va kommunal xizmatlar (1)			
"O'zsuvta'minot"	OAJ	Toshkent shahri	100,0
Transport (3)			
O'zbekiston temir yo'llari	OAJ	Toshkent shahri	100,0
O'zbekiston havo yo'llari	OAJ	Toshkent shahri	100,0
O'zbekiston aeroportlari	OAJ	Toshkent shahri	100,0
Bank ishi (9)			
Biznesni rivojlantirish banki AJ (BRB)	OAJ	Toshkent shahri	100,0
O'zbekiston Milliy banki	OAJ	Toshkent shahri	59,3
Sanoatqurilishbank	OAJ	Toshkent shahri	82,1
Agrobank	OAJ	Toshkent shahri	54,5
Asakabank	OAJ	Toshkent shahri	88,2
Xalq banki	OAJ	Toshkent shahri	78,5
Turonbank	OAJ	Toshkent shahri	90,1
Aloqabank	OAJ	Toshkent shahri	97,6
Mikrokreditbank	OAJ	Toshkent shahri	99,0

²⁶ Davlat unitar korxonasi.

DAVAKTIVNING ROLI

Davaktiv davlat aktivlarini samarali boshqarish sohasida yaxlit milliy siyosatni amalga oshirish vakolatiga ega. Xususiylashtirish bo'yicha davlat dasturi ilgari surilgan bo'lsa-da, DKLari iqtisodiyotning aksariyat tarmoqlarida hamon ustunlik qilmoqda. Davaktiv Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 9-dekabrda 775-son qaroriga muvofiq tashkil etilgan samarali faoliyatning asosiy ko'rsatkichlari (KPI) tizimi orqali davlat aktivlari faoliyatining monitoringini amalga oshiradi. Ushbu tizim 13 ta asosiy va 18 ta qo'shimcha ko'rsatkichlarni, jumladan, sof sotuv va sof foyda, tannarx samaradorligi, aktivlar rentabelligi, quvvatlardan foydalanish darajasi, qoplash koeffitsienti va o'z kapitali nisbatlarini kuzatib boradi.

2023-yil yanvar holatiga ko'ra, Davaktivning davlat aktivlari ustidan nazorati 2340 ta kompaniyani qamrab oldi, shu jumladan, 23 tasi strategik kompaniyalar, 445 tasi yirik DKLari, qolganlari esa kichik firmalar sifatida tasniflangan. Bu korxonalar asosan axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT), savdo, qurilish va qishloq xo'jaligi sohaslarida faoliyat yuritadi. Davaktiv ushbu korxonalarining faqat 416 tasida to'g'ridan-to'g'ri aksiyalarga ega. Ushbu kompaniyalarning aksariyatidagi davlat ulushlari mahalliy davlat hokimiyati organlariga (834 ta korxonalar) tegishli bo'lib, eng ko'p (140 ta korxonalar) Toshkent shahar hokimiyatiga tegishli bo'lgan. Boshqa muhim aksiyadorlar qatoriga Avtomobil yo'llari qo'mitasi (267 korxonalar), Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi vazirligi (62 korxonalar), Qishloq xo'jaligi vazirligi (51 korxonalar), Moliya vazirligi (34 korxonalar), Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi (23 korxonalar), Sog'liqni saqlash vazirligi (47 korxonalar) kiradi.

Manba: Davaktiv yillik hisoboti, 2023-yil. <https://my.davaktiv.uz/uploads/pages/files/032024/2023-yil%20hisobot.pdf>

3 USTUVOR AHAMIYATGA EGA KORXONALAR (QISQA RO'YXAT)

3.1 Tanlash asoslari

Ushbu bo'limda yashil iqtisodiyotning kun tartibini ilgari surish uchun eng yaxshi salohiyatga ega bo'lgan yettita “ustuvor ahamiyatga ega subyektlar” IMV e'tiboriga havola qilinadi. Birgalikda bu korxonalar yashil iqtisodiyot bo'yicha davlat chempionlarining yirik guruhiga aylanishi mumkin. Tashkilotlar iqlim o'zgarishlariga qarshi kurash va atrof-muhitni muhofaza qilish sohasida moliyalashtirishni oshirish potensialiga ko'ra, faoliyat modeli va sektor yo'nalishidan kelib chiqqan holda tanlangan. Ular NGET yoki yashil investitsiya yo'riqnomalarini o'z operatsiyalariga kiritish uchun ma'lum salohiyatga ega ekanlarini namoyish etdilar va muvaffaqiyatni namoyish qilish va ijobiy iqtisodiy taqsimlanishlarni keltirib chiqarish orqali boshqa ishtirokchilarga ta'sir qilish uchun o'z sohalarida yetarli qamrovga ega.

Davlat jamg'armalari:

- UzMRC
- UzDIF
- TRK (IMV huzuridagi sobiq Tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlash davlat jamg'armasi)
- FSSA

Davlat korxonalari:

- “O'zkimyosanoat” AJ (O'zbekiston kimyo sanoati)
- “Issiqlik elektr stansiyalari” AJ (Issiqlik elektr stansiyalari, IES)

Davlat banklari:

- BDB

2023-yil holatiga, yettita ustuvor subyektlar birgalikda 37 699 milliard so'm yoki O'zbekiston YalMning 3,53 foizini yaratgan. “O'zkimyosanoat” AJ kimyo sanoatining yirik ishtirokchisi bo'lib, YalMning 1,43 foizini tashkil etgan holda 15270 milliard so'm daromad olgan. Kimyo sanoati bugungi kunda ishlab chiqarish, xomashyo bilan ta'minlash, ilmiy-texnikaviy tajriba borasida ulkan imkoniyatlarga ega. U O'zbekiston umumiy sanoat mahsulotining qariyb 7 foizini ishlab chiqaradi va 30 mingga yaqin kishini ish bilan ta'minlaydi.²⁷ Energetika sektori kam uglerodli va ekologik barqaror o'sishga erishish uchun zarur bo'lgan qayta tiklanadigan va yashil texnologiyalarga investitsiyalar kiritishning asosiy yo'nalishidir. IESning birlamchi operatori hisoblangan “Issiqlik elektr stansiyalari” aksiyadorlik jamiyati YalMning 1,76 foizini tashkil etgan holda 18 milliard 796 million so'm daromad olgan. Ba'zi divestitsiyalar tufayli kompaniyaning bozor ulushi 2022-yildagi taxminan 70 foizdan 2024 yilda 20–30 foizgacha kamayishi kutilmoqda.²⁸ Shunga qaramay, u energetika sohasida asosiy o'yinchi bo'lib qolaveradi. BRB kichikroq miqyosda bo'lsa-da, iqtisodiyotga 3633 milliard so'm hissa qo'shdi, bu YalMning 0,34 foiziga to'g'ri keladi. BRB ulushi 2024-yil may holatiga ko'ra bank sektorining jami aktivlari, kreditlari, kapitali va depozitlarida 4 foizni tashkil etadi.²⁹

Davlat jamg'armalari hajmi jihatidan nisbatan kichikroq bo'lsa-da, milliy iqtisodiy tizimning muhim segmenti bo'lgan kichik va o'rta korxonalar (KO'K), qishloq xo'jaligi va uy-joy uchun moliyachilar sifatida strategik ahamiyatga ega. UzMRC 2021-yilda ipoteka sohasiga jiddiy ta'sir ko'rsatdi va umumiy ipoteka kreditlash hajmining 20 foizini tashkil etdi, ko'chmas mulk sotib olish va uy-joy bozorini qo'llab-quvvatlashda markaziy rol o'ynadi. 2024-yil uchun prognozlarga ko'ra, UzMRC joriy yilda 1340 milliard so'm o'zlashtirishni rejalashtirmoqda, bu esa prognoz qilingan YalMning 0,1 foizini tashkil etadi. FSSA tomonidan 1086,6 mlrd so'm, TRK tomonidan 947 mlrd so'm o'zlashtiriladi. TRK 2023-yilda O'zbekistonda ro'yxatga olingan barcha

²⁷ “O'zkimyosanoat” AKning 2024-yilga mo'ljallangan biznes rejasi.

²⁸ <https://www.fitchratings.com/research/corporate-finance/fitch-affirms-uzbekistan-thermal-power-plants-at-bb-outlook-stable-11-01-2024>.

²⁹ <https://cbu.uz/oz/statistics/bankstats/1710861/>.

kichik va o'rta biznes subyektlarining 8 foizini qamrab olgan holda o'zining tarmoq ta'sirini ko'rsatdi. Bu mablag'lar ikkilamchi iqtisodiy ta'sirlarni hisobga olmaganda, umumiy hisobda iqtisodiyotga 3 373,6 milliard so'm kiritishi kutilmoqda, bu 2024-yil uchun prognoz qilingan YaIMning 0,25 foizini tashkil qiladi.

2.3-JADVAL. Qisqa ro'yxatga kiritilgan DKLari va DBlarining 2023-yilda YaIMga nisbatan daromadlari

No.	Korxonalar	Daromad, mlrd so'm	YaIMdagi ulushi, %
1	"O'z kimyosanoat" AJ	15 270	1,43
2	IES	18 796	1,76
3	BRB	3 633	0,34
Jami		37 699	3,53

YaIM (2023-yil): 1 066 569 mlrd so'm

2.4-JADVAL. Qisqa ro'yxatga olingan jamg'armalardan 2024-yilda kutilayotgan to'lovlar, YaIMga nisbatan³⁰

No.	Jamg'arma	O'zlashtirish, mlrd so'm	Share in GDP, %
1	UzMRC	1340	0,1
2	FSSA	1087	0,08
3	TRK (sobiq Tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash davlat jamg'armasi)	947	0,07
Jami		3374	0,25

YaIM prognozi (2024 yil): 1 301 759 mlrd so'm

Har bir tashkilot keyingi bo'limda moliyalashtirish salohiyati, qaysi sektorga yo'naltirilganligi, korporativ strategiyasi va NGET loyihasi/faoliyat tasnifini qo'llash va ushbu asosdan foydalangan holda natijalar haqida hisobot berish kabi iqlim/ekologik investitsiya yo'riqnomalarini qabul qilishga tayyorligi haqida batafsil muhokama qilinadi. Tafsilotlar 2-ildavda keltirilgan va quyidagi mavzularni qamrab oladi:

- **Umumiy tavsif:** Maqsadlari, huquqiy shakllari, boshlang'ich kapitali va faoliyat muddati
- **Mablag'larga oid va moliyaviy ma'lumotlar:** kapital, loyihalar uchun tasdiqlangan mablag'lar, xalqaro va mahalliy manbalardan olingan kreditlar haqida batafsil ma'lumot
- **Huquqiy va me'yoriy asoslar:** Ushbu subyektlarni tashkil etuvchi va boshqaradigan huquqiy va me'yoriy hujjatlar to'g'risidagi ma'lumotlar
- **Samaradorlik ko'rsatkichlari:** rentabellik ko'rsatkichlari, kapitalning yetarliligi va likvidlik ko'rsatkichlari kabi moliyaviy natijalar ko'rsatkichlari
- **Tashkiliy ma'lumotlar:** Kuzatuv va boshqaruv kengashlarini tayinlash va saylash tartibi
- **Loyihaning o'ziga xos xususiyatlari:** Ushbu subyektlar tomonidan moliyalashtiriladigan yoki boshqariladigan loyihalar tavsifi, shu jumladan maqsadlar, moliyalashtirish miqdori va manfaatdor tomonlar.

³⁰ UzDIF mablag'lari to'g'risida ochiq ma'lumot mavjud emas.

3.2 Ustuvor subyektlarning profili

3.2.1 O'zbekiston ipotekani qayta moliyalashtirish kompaniyasi

UzMRC – uy-joy kreditini qayta moliyalash bo'yicha nobank tashkilot hisoblanadi. U 2019-yilda IMV (o'sha paytda Moliya vazirligi) tomonidan uzoq muddatli moliyalashtirishdagi cheklovlarni yengillashtirish uchun ipoteka likvidligini ta'minlash mexanizmi sifatida tashkil etilgan. UzMRC yashil moliyalashtirish imkoniyatlarini qabul qila oldi va hamkorlikni rivojlantirdi hamda o'z biznesida yashil jihatlarga yanada katta e'tibor berishga tayyorgarlik ko'rish uchun ichki tashabbuslarni boshladi. UzMRC hali rasman yashil strategiyani e'lon qilmagan bo'lsa-da, u allaqachon yangi potensial bozor sifatida yangilangan "yashil" uylarni mo'ljallashni boshlagan. 2022-yil noyabr oyida Osiyo taraqqiyot banki (OTB) UzMRC biznesini rivojlantirish uchun 150 million AQSh dollari miqdorida kredit ajratishni ma'qulladi, bunda ekologik barqaror va iqlim o'zgarishiga chidamli aktivlarni moliyalashtirish asosiy yo'nalishlardan biri bo'ldi. Kredit ishtirokchi moliya institutlarini ipoteka kreditlari va uy-joylarni ta'mirlash uchun kreditlar, shu jumladan, yashil rekonstruksiya qilish (uylarni samarasiz yoqilg'ida ishlaydigan pechlar bilan isitish³¹ Toshkent shahrida havo ifloslanishining asosiy manbalaridan biri hisoblanadi) uchun moliyalashtirishni kengaytirish maqsadida UzMRC'ga qo'shimcha uzoq muddatli moliyalashtirishni o'z ichiga oladi. Shuningdek, ko'proq mablag'lar nafaqa oluvchi ayollarni qo'llab-quvvatlashga ajratiladi. UzMRC o'z tizimlariga yashil takomillashtirishni amalga oshirdi: bankning o'zida yaratilgan energiya tejavchi uskunalar va dizaynlarning muvofiqligini baholovchi yashil renovatsiya krediti vositasi.³²

Hozirgi kunda kompaniyaning asosiy maqsadlari qatoriga "arzon uy-joy" kiradi. UzMRC yashil va iqlimga chidamli uy-joylarni hamyonbop ham qilishni qo'llab-quvvatlash bo'yicha o'z missiyasini kengaytirishi uchun asos paydo bo'lishi mumkin. Kompaniyaning e'lon qilingan maqsadlari quyidagilardan iborat:

- Aholining arzon uy-joyga bo'lgan ehtiyojini qondirish uchun tijorat banklarini bozor tamoyillari asosida moliyaviy resurslar bilan ta'minlash
- Ichki va xalqaro kapital bozorlariga moliyaviy resurslarni, shu jumladan xalqaro moliya institutlari (XMI) va ikki tomonlama rivojlanish moliya institutlari (BDFI) mablag'larini jalb qilish va keyinchalik ulardan ipoteka kreditlarini qayta moliyalashtirish maqsadida foydalanish.
- Qimmatli qog'ozlarni, shu jumladan, ipoteka bilan ta'minlangan qimmatli qog'ozlarni chiqarish va joylashtirish
- Ipoteka kreditlash tizimini takomillashtirishga ko'maklashish, ipoteka bozorini rivojlantirish, likvidlikni oshirish, ipoteka kreditlash va ipoteka bilan ta'minlangan qimmatli qog'ozlar bozorida risklarni kamaytirishning zamonaviy uslub va vositalarini joriy etish
- Ipoteka kreditlash va qayta moliyalashtirish sohasida uslubiy va me'yoriy-huquqiy baza ishlab chiqilishini, shu jumladan, xorijiy ekspertlarni jalb etish orqali ta'minlash.

O'zbekistonda ipoteka kreditlariga bo'lgan talab 30 yil ichida 20 milliondan 1,8 barobar oshgan 36 millionlik yosh va o'sib borayotgan aholi tufayli ortib bormoqda. Aholining 60 foizdan ortig'i 30 yoshgacha bo'lgan va aholining 57 foizi mehnatga layoqatli yoshda ekanligi sharoitida³³ yangi uy-joy va qurilishni moliyalashtirishga bo'lgan ehtiyoj yuqoriligicha qolmoqda, bu esa kelgusi yigirma yil davomida ipoteka kreditlariga kuchli talabni prognoz qilmoqda. Tijorat banklari uchun barqaror uzoq muddatli moliyaviy resurslar bazasining yo'qligi ipoteka bozori va tegishli qurilish sektorining o'sishiga to'siqinlik qildi. 2019-yil 29-noyabrda OTB 200 million AQSh dollari miqdoridagi Ipoteka bozori sektorini rivojlantirish dasturini

³¹ Jahon bankinging 2024-yilgi Toshkent shahridagi havo sifatini baholash va O'zbekistonda havo sifatini boshqarishni takomillashtirish bo'yicha yo'l xaritasi.

³² <https://www.adb.org/news/adb-supports-housing-finance-uzbekistan>.

³³ [2024-yil uchun UzMRC biznes rejasi](#).

ma'qulladi, bu esa UzMRC tashkil etilishiga olib keldi. OTB kreditini amalga oshirish bo'yicha asosiy agentlik sifatida faoliyat yuritgan UzMRC ulgurji kreditor sifatida faoliyat yurita boshladi, ayrim xususiy moliya institutlari bilan muhim operatsiyalarni amalga oshirdi. 2021-yilda O'zbekiston bank sektorining 9,80 trillion so'mlik umumiy ipoteka kreditlash hajmining 20 foizi (1,96 trillion so'm) UzMRC hissasiga to'g'ri keldi.³⁴

UzMRC ning dastlabki ustav kapitali bor-yo'g'i 25 milliard so'mni tashkil etgan. Shu bilan birga, jamg'arma ustav kapitalini sezilarli darajada – 2024-yil 1-iyunga qadar 941 mlrd so'mga oshiradi.³⁵ Kompaniyaning 2022-yil uchun moliyaviy ko'rsatkichlari quyidagicha: aktivlari 2 065,7 milliard so'mni, kapitali 137,1 milliard so'mni, majburiyatlari esa 1 928,6 milliard so'mni tashkil etdi. Yillik yalpi foyda 24,1 mlrd so'mni tashkil etdi. 2023-yilning birinchi uch choragida UzMRC umumiy qiymati 799 milliard so'm bo'lgan ipoteka kreditlarini qayta moliyalashtirishni ma'qulladi. Bundan tashqari, kompaniya 140 milliard so'mlik ta'minlanmagan korporativ obligatsiyalarining ilk seriyasini chiqarib bay ochdi. So'ndirilish muddati 3 yil, bozor stavkasi 19 foiz bo'lgan ushbu obligatsiyalar xususiy joylashtirish yo'li bilan tarqatildi.³⁶

3.2.2 O'zbekiston to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalar jamg'armasi

UzDIF 2019-yil 17-yanvardagi PF-5635-son qaroriga muvofiq O'zbekiston-Amirliklar investitsiya kompaniyasi sifatida tashkil etilgan. Jamg'arma o'shandan beri boshqaruvchi kompaniyadan ajratilgan va yirik va uzoq muddatli loyihalarga bevosita investor sifatida faoliyat yuritishda davom etmoqda. UzDIF yashil loyihalarni ishga tushirishni qo'llab-quvvatlash, o'zi investitsiya qilayotgan firmalarning korporativ amaliyotlari va strategiyalariga ta'sir ko'rsatish hamda namoyish va ta'minot zanjiri effektini yaratish orqali yashil ikkilamchi ta'sirlarni yaratish uchun kuchli pozitsiyaga ega. **Bundan tashqari, uning to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalar sohasidagi mandatini hisobga olgan holda, UzDIF ning yanada yashil profili ekologik, ijtimoiy va boshqaruv (ESG) omillariga ustunlik beruvchi xorijiy investorlarni jalb qiladi, bu esa O'zbekistonga yashil texnologiyalarni olib kirish va uzatishni osonlashtiradi.** Jamg'arma ekologik barqarorlik yoki yashil tashabbuslarni ilgari suruvchi aniq maqsadlar, rejalar yoki siyosatlarni e'lon qilmagan. Shunga qaramay, 2024-yil yanvar oyida UzDIF quyosh energiyasi va ekoturizm loyihalariga ega Saipro Group xususiy kompaniyasi tomonidan chiqarilgan birinchi yashil obligatsiyalarga investitsiya kiritish orqali o'z qiziqishini bildirdi.³⁷

Jamg'armaning vakolatlari quyidagilardan iborat:

- Ishlab chiqarish salohiyatini kengaytirish va mamlakat raqobatbardoshligini oshirish uchun bevosita xorijiy investitsiyalar va innovatsion texnologiyalarni jalb qilish
- Xususiy mahalliy va xorijiy investorlar bilan uzoq muddatli hamkorlik aloqalarini o'rnatish orqali investitsiya faoliyatini rag'batlantirish va rivojlantirish
- Investitsion takliflarni baholash va investitsiya loyihalarini ishlab chiqish va amalga oshirish
- Investitsion muhitni yaxshilash, mamlakatning investitsion salohiyati va imkoniyatlarini xorijda targ'ib qilish
- Istiqbolli investitsiya loyihalariga birgalikda investitsiya kiritish, to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalarni ko'paytirish uchun xalqaro investorlar bilan hamkorlikka e'tibor qaratish.

Bugungi kunda UzDIF 100 foiz UFRDga tegishli. Jamg'armaning ustav kapitali 100 million AQSh dollarini tashkil etadi, uni bosqichma-bosqich 1 milliard AQSh dollariga ko'tarish mo'ljallangan. Jamg'arma odatda loyiha xarajatlarining 49 foizigacha va har bir loyiha uchun 20 million AQSh dollarigacha sarmoya kiritadi. Bu chegara O'zbekiston Prezidentining roziligi bilan oshirilishi mumkin.

³⁴ OTB. <https://www.adb.org/sites/default/files/linked-documents/51348-005-ea.pdf>.

³⁵ Prezidentning 2023 yil 15 dekabrdaqi PQ-394-son qarori.

³⁶ <https://uzmrc.uz/en/shareholders-investors/issue-of-bonds/>.

³⁷ <https://daryo.uz/uz/2024/01/25/uzbekistans-green-revolution-uzdif-and-saipro-group-spearhead-private-sector-yashil-obligatsiyalar>.

3.2.3 Tadbirkorlikni rivojlantirish kompaniyasi

Jamg'arma dastlab 2017-yilda Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlash davlat jamg'armasi sifatida tashkil etilgan va keyinchalik IMV tasarrufiga o'tgan. 2023-yilda u AJga – TRKga o'tish jarayonini boshladi. Yangi kompaniya 2024-yil 1-martdan boshlab faoliyat ko'rsatmoqda. **AJga o'tish Prezidentning 2023-yil 10-noyabrdagi №PF-193-sonli qarori bilan boshlangan bo'lib, u korporativ o'zgarishlarning bir qismi sifatida dastlab xizmat ko'rsatish va ishlab chiqarish sohaslarida yashil va energiya tejavchi texnologiyalar va qayta tiklanadigan energiya manbalarini qo'llab-quvvatlashi talab qilindi.** Bu yashil investitsiya yo'riqnomalarini joriy qilish va o'sib borayotgan TRK siyosatlarini xabardor qilish uchun NGETdan foydalanish imkoniyatini taqdim etadi. 2024-yilda uning Kuzatuv kengashi iqlim o'zgarishi va atrof-muhitga oid chora-tadbirlarni aks ettiruvchi muhim bo'limni o'z ichiga olgan uch yillik korporativ strategiyani tasdiqladi. Ta'kidlash joizki, NGETni o'z jarayonlariga kiritish orqali TRKning yashil moliyalashtirish maqsadi 2026-yilga kelib jami moliyalashtirishning 35 foizini tashkil qiladi.

Yangi kompaniyaning maqsadlari quyidagilardan iborat:

- KO'K subyektlarining talab va ehtiyojlaridan kelib chiqib, ularni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, shu jumladan, tadbirkorlarning salohiyatini oshirish bo'yicha qo'llab-quvvatlash choralari ko'rish
- Ichki va xalqaro kapital bozorlarida moliyaviy resurslarni, shu jumladan, XMT va BDFI mablag'larini jalb qilish
- KO'Kni rivojlantirish orqali ish o'rinlarini yaratish imkonini beruvchi davlat, tarmoq va hududiy dasturlar, loyihalar va tadbirlarni amalga oshirishda ishtirok etish
- KO'Klarning innovatsion faoliyatini qo'llab-quvvatlash, yangi turdagi mahsulotlarni yaratish va ishlab chiqarishni rag'batlantirish, samarali yangi texnologiyalarni joriy etish.
- O'zini-o'zi band qilish tartibidagi tadbirkorlarning loyihalarini moliyaviy qo'llab-quvvatlash
- Xizmat ko'rsatish va ishlab chiqarish sohaslarida yashil va energiya tejavchi texnologiyalar hamda qayta tiklanadigan energiya manbalarini joriy etishni keng qo'llab-quvvatlash.

Yangi kompaniya tashkil etilgandan so'ng uning boshlang'ich kapitali 100 foiz IMVga tegishli bo'lgan 300 milliard so'm miqdorida belgilandi. 2018-2024-yillarda Tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlash davlat jamg'armasi sifatida 47 ming 400 ta tadbirkorlik subyektini kreditlar bo'yicha kafolatlar va foizlarni subsidiyalash tarzida qo'llab-quvvatlash uchun 17 trillion so'm ajratildi. Yaratilgan yangi ish o'rinlari soni 376 mingga yaqinni tashkil etdi.

3.2.4 Qishloq xo'jaligini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash jamg'armasi (FSSA)

FSSA 2017-yil 27-iyundagi PF-5095-son Prezident farmoni bilan Vazirlar Mahkamasi huzurida tashkil etilgan. Hozirda jamg'arma IMVga tegishli va u tomonidan boshqariladi. Jamg'armaning asosiy maqsadi – qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini barqaror rivojlantirish, ekinlar hosildorligini oshirish, davlat xaridi uchun qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirishning samarali tizimini shakllantirish, qishloq xo'jaligi korxonalarini zamonaviy yuqori unumli texnikalar bilan ta'minlashni tubdan yaxshilashdan iborat. Qishloq xo'jaligini qo'llab-quvvatlashga yo'naltirilgan jamg'arma sifatida FSSA qishloq xo'jaligi butun qiymat zanjiridagi iqtisodiy faoliyat bilan bevosita bog'liq va hukumatning yashil iqtisodiyot maqsadlarini ilgari surish uchun davlat vositasi sifatida katta salohiyatga ega. FSSA qishloq xo'jaligi sohasidagi turli manfaatdor tomonlar, jumladan, fermerlar, qishloq xo'jaligi korxonalari va uyushmalar bilan o'zaro hamkorlik qiladi. Bu manfaatdor tomonlarni barqaror amaliyotlar va ularning afzalliklari haqida munozaralarga jalb qilish imkoniyatini beradi.

Jamg'armaning asosiy maqsadlari quyidagilardan iborat:

- Paxta xomashyosini xarid qilish bo'yicha yakuniy hisob-kitob qilish uchun milliy valyutada ajratilgan tijorat kreditlari bo'yicha foiz stavkalarining bir qismini qoplash
- Meva, uzum, sabzavot, kartoshka, dukkakli ekinlar, gullar, ko'katlar, dorivor o'simliklar, makkajo'xori donlari, dukkaklilar va moyli ekinlarni yetishtirish xarajatlarini moliyalashtirish
- Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini xarid qilish uchun kreditlar ajratish uchun tijorat banklarida mablag'larni joylashtirish
- Ichki bozorda don va non mahsulotlari narxlarining barqarorligini ta'minlash, zarur miqdorda bug'doyni bozor narxlarida xarid qilish va tovar birjasiga joylashtirish
- Fermer xo'jaliklari va boshqa qishloq xo'jaligi tashkilotlarini zamonaviy, samarali qishloq xo'jaligi texnikalari bilan ta'minlashda davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanishini ta'minlash
- Qishloq xo'jaligini moliyalashtirish va hisob-kitob tizimiga zamonaviy AKTni joriy etish
- Rivojlangan mamlakatlarning qishloq xo'jaligini moliyalashtirish tajribasini o'rganish va O'zbekistonda joriy etish.

Biroq, jamg'armaning maxsus investitsiya rejalari, jumladan, uning ekologik barqarorlikni targ'ib qilish siyosati yoki yashil tashabbuslar haqida ma'lumot olishning iloji bo'lmadi. Qishloq xo'jaligi sektorida yashil investitsiyalarni rag'batlantirish uchun katta salohiyatga ega bo'lsa-da, hozirda jamg'armaning NGETni qanchalik oson qabul qilishi va uning faoliyatini "yashillashtirish" mumkinligini adolatli baholash uchun qaror qabul qilish va faoliyat tartiblari haqida cheklangan ma'lumotlar mavjud.

3.2.5 "O'zkimyosanoat" (O'zbekiston kimyo sanoati) AJ

"O'zkimyosanoat" AJ Vazirlar Mahkamasining 2001-yil 13-martdagi №VMQ-124-sonli qarori bilan 2001-yilda tashkil etilgan. U "O'zkimyosanoat" kimyo sanoati korxonalari uyushmasi o'rnini egalladi va bugungi kunda kompaniya tarkibiga O'zbekistondagi bir qancha yirik kimyo korxonalari kiradi. Kompaniyadagi davlat ulushiga IMV va UFRD egalik qiladi. Kimyo sanoatining yetakchi ishtirokchisi sifatida "O'zkimyosanoat" boshqa kompaniyalarga ijobiy o'rnak ko'rsatish orqali ekologik barqarorlikka katta ta'sir ko'rsatishi mumkin. Kimyo sanoati o'zining ifloslantiruvchi xususiyati, jumladan, ifloslanish, chiqindilarni boshqarish va resurslarni iste'mol qilish bilan bog'liq muammolar bilan tanilgan, kimyo sanoati ekologik jihatdan yanada barqaror bo'lishi uchun jamoatchilikning kutilmalari ortib bormoqda. Kompaniya kapital va texnologiyalardan foydalanish imkoniyatiga hamda yashil texnologiyalar va jarayonlarda innovatsiyalarni rivojlantirish salohiyatiga ega. NGETni qo'llash umumiy "yashillashtirish" strategiyasining bir jihati bo'lishi mumkin hamda bu resurslar samaradorligini oshiradi, atrof-muhitga ta'sirni kamaytiradi va yangi yashil/iqlimga mos mahsulot qatorini joriy qiladi.

"O'zkimyosanoat" AKning rasman e'lon qilingan maqsadlarida innovatsiyalar va samaradorlik haqida so'z yuritiladi, lekin ularni kimyo sohasini ekologik jihatdan barqarorroq yo'lga olib chiqishga yordam berish yo'llari sifatida ko'rsatmaydi. Bu e'tibordan chetda qolgan imkoniyat. E'lon qilingan maqsadlar quyidagilardan iborat:

- Kimyo sanoatida yagona texnik siyosatni olib borish, ishlab chiqarishni diversifikatsiya qilish, mineral-xom ashyo resurslarini qayta ishlashni chuqurlashtirish, innovatsion texnologiyalarni joriy etish
- Kimyoviy mahsulotlar tannarxini pasaytirish
- Mahalliy mahsulotlarni yangi tashqi bozorlarga olib chiqish
- Kimyo ishlab chiqarishni mahalliyashtirish darajasini chuqurlashtirish va tarmoqlararo sanoat kooperatsiyasini kengaytirish

- Qishloq xo'jaligi ishlab chiqaruvchilarini azot, fosfor, kaliy va murakkab o'g'itlar bilan barqaror ta'minlash
- Faol investitsiya siyosatini olib borish, sanoatga to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb qilish
- Bo'ysunuvchi kompaniyalar faoliyati samaradorligini oshirishga ko'maklashish
- Ilmiy tadqiqotlarni qo'llab-quvvatlash va rag'batlantirish
- Muhandislik, texnik va boshqaruv kadrlarining malakasini oshirish va qayta tayyorlashni ta'minlash.

“O'zkimyo sanoat” AJ o'zining ESG tamoyillariga sodiqligini rasman e'lon qildi³⁸ va 2050 yilga kelib issiqxona gazlari emissiyasini 90 foizga kamaytirishga va'da berdi. Dekarbonizatsiya siyosati doirasida kompaniya quyidagilarni rejalashtirmoqda

- 2030-yilgacha 1-chi va 2-chi bandedagi chiqindilarni 2022-yilga nisbatan 42 foizga qisqartirish;
- 2050-yilgacha 1-chi, 2-chi va 3-chi bandedagi chiqindilarni 2022-yilga nisbatan 90 foizga qisqartirish va qolgan 10 foizni zararsizlantirish; va
- 2025 yilga kelib 3-chi bandedagi emissiyasini kamaytirish maqsadini belgilab, 3-chi bandedagi emissiyasi miqdorini baholash ustida ish olib borish.

Emissiyalarni kamaytirish maqsadlariga erishish uchun kompaniya emissiyalarni kamaytirish bo'yicha quyidagi beshta chora-tadbirlarning amalga oshirilishini baholashni da'vo qilmoqda:

- Plastmassani qayta ishlashni rivojlantirish
- Mavjud texnologiyalarga nisbatan qo'llaniladigan energiya samaradorligi va atrof-muhitni yumshatish choralari (masalan, N₂O chiqindilarini kamaytirish bo'yicha loyihalarni amalga oshirish orqali)
- Sotib olingan issiqlik va elektr energiyasini chuqur dekarbonizatsiya qilish (masalan, qayta tiklanadigan manbalardan energiya sotib olish orqali)
- Kam uglerodli ammiak ishlab chiqarish uchun innovatsion texnologiyalar (masalan, yashil vodorod yordamida)
- 3-chi bandedagi emissiyani bartaraf etish uchun manfaatdor tomonlar bilan faol hamkorlik qilish (masalan, yaxshilangan o'g'itlarni ishlab chiqish, dalalarda emissiyalarni kamaytirish uchun inhibitorlarni qo'llash, ozuqaviy moddalar tarkibini optimallashtirish uchun fermerlar/qishloq xo'jaligi sektori bilan ishlash va emissiyalarni kamaytirish bo'yicha ilg'or qishloq xo'jaligi amaliyotlari bo'yicha maslahat berish).

Ushbu chora-tadbirlar qay darajada amalga oshirilayotgani noma'lumligicha qolmoqda, chunki tegishli ma'lumotlar yoki hisobotlar ommaga ochiq emas. Energiya iste'moli va chiqindilari bo'yicha tarqoq holdagi ma'lumotlarni Ochiq ma'lumotlar portalida topish mumkin.³⁹ Kompaniyaning iqlim deklaratsiyasi Prezidentning 2023-yil 1-martdagi PQ-83-sonli qaroriga muvofiq korporativ transformatsiya jarayonini qisman qondirdi va kredit reytinglariga ijobiy hissa qo'shishi mumkin bo'lganligi sababli, ushbu majburiyatlarni qondirish borasidagi olg'a harakatni tekshirishning imkoni bo'lmadi.

3.2.6 “Issiqlik elektr stansiyalari” AJ (IES)

IES 2019-yilda Prezidentning 2019-yil 27-martdagi PQ-4249-sonli qarori asosida sobiq “O'zbekenergo” AJ qayta tuzilishi natijasida tashkil etilgan. IES O'zbekistonda elektr energiyasining asosiy ishlab chiqaruvchisi hisoblanadi. 2023-yilda kompaniya 54,2 milliard kVt/soat elektr energiyasi ishlab chiqardi, bu dastlabki rejadan 1,4 milliard kVt/soatga (2,6 foiz) ko'pdir. Issiqlik elektr stansiyalari qazib olinadigan yoqilg'iga

³⁸ <https://uzkimyo sanoat.uz/uz/esg/environmental/low-carbon-pathway>

³⁹ <https://data.egov.uz/rus/organizations/440>.

bog'liqligi sababli atrof-muhitga sezilarli salbiy ta'sir ko'rsatadi. IESning ko'pgina issiqlik elektr stansiyalari eski va samarasiz bo'lib, ortiqcha miqdorda yoqilg'i sarflaydi, oldini olish mumkin bo'lgan CO₂ chiqaradi va qayta tiklanadigan energiya manbalari bilan yomon integratsiyalashgan. **IES yashil texnologiyani joriy etish va barqaror amaliyotlarni tadbiq etish orqali takomillashtirish uchun ko'plab imkoniyatlarga ega.** NGETdan foydalanishni sinovdan o'tkazish emissiyalarni kamaytirish, energiya samaradorligi va toza energiya manbalariga o'tishga qaratilgan investitsiyalar uchun resurslarni taqsimlashga yo'naltirishi mumkin. Kompaniya yashil texnologiyalar va tashabbuslarga, jumladan, uglerodni ushlab qolish va saqlash kabi innovatsiyalarga hamda emissiyalarni kamaytirish bo'yicha boshqa strategiyalarga investitsiya kiritish imkoniyatiga ega.

IESning elektr energiyasi ishlab chiqarishdagi ulushi yaqin vaqtgacha 70 foizdan ziyod edi. IESning uchta yirik elektr stansiyasi xorij kompaniyasi tasarrufiga o'tkazildi, Tolimarjon issiqlik elektr stansiyasi (1,7 GVt) BAA investorlariga sotildi. 2024-yildan boshlab IESning bozor ulushi⁴⁰ 20–30 foizgacha kamayadi.

3.2.7 Biznesni rivojlantirish banki AJ (BRB)

2023-yilda Prezidentning 2023-yil 4-sentabrdagi PQ-292-sonli qarori bilan sobiq “Qishloq qurilish bank” ATB tubdan qayta tashkil etildi va “Biznesni rivojlantirish banki” nomini oldi. Yangi bank asosiy e'tiborni kichik biznesni bozordagi o'rtacha foizdan past foiz stavkalari bo'yicha uzoq muddatli moliyalashtirish va garovga nisbatan kamroq talablar bilan ta'minlashga qaratadi. Bundan tashqari, u O'zbekistonning kichik biznes sektorini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashning asosiy kanallaridan biri bo'lib xizmat qilishi, Kichik biznesni rivojlantirish jamg'armasi sho'ba va kichik biznesni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan hududiy markazlari orqali qator konsalting va tegishli xizmatlar ko'rsatishi kutilmoqda. Bank faoliyat tarmog'i va rivojlanish bosqichlaridan qat'i nazar, barcha korxonalarni qo'llab-quvvatlaydi.

Bank to'liq davlatga tegishli bo'lib, IMV va UFRD asosiy aksiyadorlardir. Uning biznes uchun katalizator sifatidagi yangi roli va davlat mablag'larini kichik korxonalarni qo'llab-quvvatlashga yo'naltirishdagi yangi funksiyasi hisobga olinsa, uning qayta tashkil etilishi hukumat bilan aloqasini kuchaytirdi. BRB boshqaruv tizimi va operatsion yo'riqnomalariga bevosita kiritilgan ekologik barqarorlik tamoyillariga ega. Uning majburiyatini aks ettiruvchi ikkita asosiy hujjat bu bankning Ekologik va ijtimoiy risklarni boshqarish siyosati (2019) va Yashil moliyalashtirish siyosatidir (2021). Bank hozirda “yashillashtirish” bo'yicha ikkita qo'shimcha sa'y-harakatlarni ilgari surmoqda: Barqaror moliya tizimini ishlab chiqish va imtiyozli moliyalashtirishni boshlash. Bu BRBni NGETni sinovdan o'tkazish va yashil strategiyalarni qabul qilish uchun boshqa banklar, shu jumladan, xususiy banklar uchun namuna bo'lib xizmat qilish uchun kuchli nomzodga aylantiradi. DBLari xususiy banklar e'tibordan chetda qoldirishi mumkin bo'lgan muayyan sektorlar yoki hududlarda foyda olish va o'sishni rag'batlantirishda ikki tomonlama rolga ega.

Prezidentning 2023-yil 14-sentabrdagi PQ-306-sonli qarori hukumatga 2024-yil oxirigacha BRBning ustav kapitalini 3 trillion so'mga oshirish vazifasini yukladi. Ushbu nizom bilan, shuningdek, 2023-yil oktabr oyidan boshlab kichik va o'rta biznesni doimiy qo'llab-quvvatlash dasturini ishga tushirish belgilangan. BRB ushbu dasturni amalga oshirish bo'yicha mas'ul markaz etib tayinlandi. Hukumat dastlabki uch yil davomida 6 trillion so'm ajratish majburiyatini olgan va XMTlardan qo'shimcha 1,2 milliard AQSh dollari jalb etilishi kutilmoqda.

⁴⁰ <https://www.fitchratings.com/research/corporate-finance/fitch-affirms-uzbekistan-thermal-power-plants-at-bb-outlook-stable-11-01-2024>.

4 ENG ZO‘R UCHTA YECHIM BILAN BARVAQT MUVAFFAQIYATGA ERISHISH

Yetti ustuvor tashkilotdan TRK, UzMRC va BRB o‘z faoliyatini “yashillashtirish” va yetarli darajada sanoat ta‘siriga ega bo‘lish uchun eng yaxshi shart-sharoitlarga egaligi bilan ajralib turadi. TRK boshqaruv kengashi tomonidan tasdiqlangan biznesni rivojlantirish strategiyasining bir qismi sifatida allaqachon yashil strategiyani qabul qilgan hamda ko‘plab sohalarda yashil va barqaror amaliyotlarni targ‘ib qilishga tayyor. Uning korxonalarini qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha asosiy mandati endi yashil va energiya tejavchi texnologiyalar bilan shug‘ullanadigan, yashil iqtisodiyotni diversifikatsiya qilish va yangi ish o‘rinlari yaratishga yo‘l ochadigan firmalarga ustuvor ahamiyat bera boshlaydi. UzMRC ipoteka kreditiga talabning ortishi kutilayotgan uy-joy moliyalashtirish sektorida muhim ahamiyatga ega. Yashil ipotekalarni o‘z vaqtida joriy etish binolar zaxirasini yuqori yashil standartlar safiga o‘tkazishi mumkin. BRB o‘z faoliyati, Barqaror moliya tizimi ustidagi ish jarayonlariga barqarorlik tamoyillarini tatbiq etib, imtiyozli moliyalashtirishni yo‘lga qo‘yishni rejalashtirgan holda davlat kreditorlari orasida yetakchi bo‘lib kelgan. Joriy yilda ustav kapitalining ortishi hisobiga uning kichik biznes subyektlariga uzoq muddatli moliyalashtirish va maslahat xizmatlari yanada kuchayadi.

Ushbu bo‘limdan TRK, UzMRC va BRB bo‘yicha o‘tkazilgan qo‘shimcha tahlillar, shuningdek, siyosat va operatsion darajalarda tavsiya etilgan, ularning “yashillashtirish” yo‘lidagi sa‘y-harakatlarini tezlashtirishi va ularni yashil chempionlarga aylantirishi mumkin bo‘lgan chora-tadbirlar o‘rin olgan. Ularning “yashillashtirish” bo‘yicha joriy tashabbuslari va kelajakdagi rejalari haqida operatsion darajada tushunchaga ega bo‘lish uchun uchta korxonaning yuqori darajali menejerlari bilan suhbatlar o‘tkazildi. Intervyu savollari kompaniyalarning yashil moliya tamoyillari bilan strategik moslashuvi, yashil tashabbuslarni asosiy biznes jarayonlariga integratsiyalashuvi va moliyaviy mahsulotlardagi innovatsiyalarni aniqlash maqsadida ishlab chiqilgan. Batafsil javoblar ularning hozirgi yashil faoliyati va kelajakdagi yashil strategiyalari haqida ma‘lumot beradi. Tafsilotlar 3.1-jadvalda jamlangan. Suhbatlar ularning yashillashtirish sa‘y-harakatlarini ilgari surish uchun foydali kirish nuqtalari va imkoniyatlarni ochib berdi.

3.1-JADVAL. Tanlangan tashkilotlar bilan suhbatlar tafsilotlari

O‘zbekiston ipotekani qayta moliyalashtirish kompaniyasi (UzMRC)

1. Jamg‘arma/bank o‘z investitsiyalari va operatsiyalarini “yashillashtirish” strategiyasiga egami yoki hozirda uni tayyorlash jarayoni ketmoqdam?

Hozirda qabul qilingan yoki rejalashtirilgan tegishli strategiya mavjud emas.

UzMRC 2024-yilgi biznes-rejasiga ko‘ra, 2024-yilda yashil obligatsiyalar chiqarishni maqsad qilgan.

2. Jamg‘arma/bank hozirda ichki foydalanish uchun o‘zining yashil taksonomiyasi yoki yashil skrining vositasi kabi qandaydir vositalar/tahlillarni ishlab chiqyaptimi?

Kompaniya ayni paytda quyidagilar ustida ishlamoqda

- Yashil moliyalashtirishning ichki siyosatini ishlab chiqish;
- Yashil dasturni ishlab chiqish;
- Yashil obligatsiyalar uchun tashqi baholash provayderini jalb qilish; va
- XMT bilan birgalikda Barqaror moliyani kuchaytirish bo‘yicha Harakatlar rejasini ishlab chiqish.

3. Yashil aktivlari/investitsiyalari, shu bilan birgalikda, yashil bo‘lmagan aktivlarni oshkor qilish rejalari bormi?

Emissiya va joylashtirishdan oldin yashil obligatsiyalarni chiqarish jarayonining bir qismi sifatida tashqi baholash rejalashtirilgan. Shuningdek, UzMRC yashil obligatsiyalardan tushgan mablag‘larning to‘g‘ri sarflanishi ustidan monitoring olib borish va tegishli yillik hisobot tayyorlashni rejalashtirmoqda.

Ushbu jarayonlar bo‘yicha barcha ma‘lumotlar kompaniyaning veb-saytida beriladi.

UzMRC axborotni oshkor qilish bo‘yicha qo‘shimcha talablar bo‘yicha takliflarni muhokama qilishga ochiq.

4. Qaysi investitsiya loyihalari/dasturlari “yashillashtirish” sa’y-harakatlariga ko’proq mos kelishi mumkin?

UzMRC OTB bilan yashil ipoteka kreditlarini ishlab chiqish va ishga tushirish bo’yicha hamkorlik qilmoqda. Ushbu ipoteka kreditlari yakunlanayotgan onlayn platforma yordamida kafolatli joylashtiriladi. Shunga o’xshash tamoyil va platforma yashil obligatsiya tushumlaridan foydalanishni nazorat qilish uchun ishlatiladi.

5. Jamg’arma/bank o’zining “yashillashtirish” sa’y-harakatlari natijasida qo’shimcha xarajatlar va bandlikka ta’sir qilish imkoniyatini ko’rib chiqdimi va bu muammolarni boshqarish bo’yicha uning fikrlari qanday?

Ushbu masalalar UzMRC’ning yashil moliyalashtirish sohasidagi ichki siyosati va dasturlarini ishlab chiqishning bir qismi sifatida ko’rib chiqilishi mumkin. Bundan tashqari, bu masala Barqaror moliyani oshirish bo’yicha harakatlar rejasiga kiritilishi mumkin.

6. Jamg’arma/bank qanday qilib o’z faoliyatini “yashillashtirishi” mumkin (masalan, jamg’arma investitsiya maqsadini belgilashi yoki investitsiya mezonlarini qayta ko’rib chiqishi mumkin)? U ushbu harakatlarni va ichki ko’rsatmalar kabi operatsion tafsilotlarni, shu jumladan, o’zining qayta ko’rib chiqilgan investitsiya mezonlarining bir qismi sifatida yashil taksonomiyaga muvofiq qoida/mezonlarini o’zgartirishni qabul qila oladimi?

UzMRC 2024-yil oxirigacha jami kreditlarning 2,3 foizini yashil ipoteka kreditlariga yo’naltirishni va keyingi yillarda bu ko’rsatkichni oshirishni rejalashtirmoqda. Kompaniya o’z moliyaviy faoliyatida NGET tamoyillariga hamda Xalqaro kapital bozori uyushmasining (ICMA) barqaror va yashil moliyalashtirish tamoyillariga amal qilishga tayyor.

Tadbirkorlikni rivojlantirish kompaniyasi (TRK)

1. Jamg’arma/bank o’z investitsiyalari va operatsiyalarini “yashillashtirish” strategiyasiga egami yoki hozirda uni tayyorlash jarayoni ketmoqdam?

Bugungi kunga qadar jamg’arma tomonidan, xususan, [Prezidentning 2023-yil 8-avgustdagi PF-129-sonli qaroriga](#) asosan quyosh panellarini xarid qilish va o’rnatish bo’yicha kafolatli va kompensatsion moliyaviy yordam ko’rsatildi. Aksiyadorlik jamiyatiga o’tishda yashil iqtisodiyot loyihalarini qo’llab-quvvatlash kengaytiriladi. 2024-yilda tasdiqlangan yangi korporativ strategiya yashil taksonomiyani amalga oshirishni qamrab olgan yashil bobni o’z ichiga oladi.

2. Jamg’arma/bank hozirda ichki foydalanish uchun o’zining yashil taksonomiyasi yoki yashil skrining vositasi kabi qandaydir vositalar/tahlillarni ishlab chiqyaptimi?

[Prezidentning 2023-yil 10-noyabrdagi PF-193-sonli qaroriga](#) muvofiq, yashil, energiya tejavchi texnologiyalar va qayta tiklanuvchi energiya manbalarini qo’llab-quvvatlash ustuvor yo’nalishlardan biri sifatida joriy etilgan. Yashil iqtisodiyot loyihalarini qo’llab-quvvatlashni kengaytirish bo’yicha takliflar ishlab chiqilmoqda. Ular Kuzatuv kengashining muhokama mavzulariga kiritildi.

3. Yashil aktivlari/investitsiyalari, shu bilan birgalikda, yashil bo’lmagan aktivlarni oshkor qilish rejalari bormi?

OTB bilan yashil obligatsiyalar chiqarishda texnik yordam bo’yicha muzokaralar olib borilmoqda. Yashil obligatsiyalarni 2024-yil oxirigacha chiqarish rejalashtirilgan. Bundan tashqari, yashil loyihalarga ajratilgan aktivlar haqidagi ma’lumotlar kompaniya veb-sayti va ijtimoiy tarmoqlarda joylashtiriladi.

4. Qaysi investitsiya loyihalari/dasturlari “yashillashtirish” sa’y-harakatlariga ko’proq mos kelishi mumkin?

Bugungi kunda yashil ustuvor vazifalarni aniqlashga harakat qilinmoqda: tomchilatib sug’orish, tuproq ifloslanishini kamaytirish, o’rmon xo’jaligini qo’llab-quvvatlash va turizmni qo’llab-quvvatlash. Kuzatuv kengashi kompaniya nizomiga muvofiq har qanday loyihalarni moliyalashtirishni belgilashi mumkin.

5. Jamg’arma/bank o’zining “yashillashtirish” sa’y-harakatlari natijasida qo’shimcha xarajatlar va bandlikka ta’sir qilish imkoniyatini ko’rib chiqdimi va bu muammolarni boshqarish bo’yicha uning fikrlari qanday?

Amalda 47 mingga yaqin loyiha qo’llab-quvvatlanib, shundan 13 mingtasi kafolatlangan, 34 mingtasiga kompensatsiya yordami ko’rsatilib, 378 mingta yangi ish o’rni yaratish rejalashtirilgan. Yashil iqtisodiyotda yangi ish o’rinlarini yaratish bilan bog’liq loyihalar ko’rib chiqiladi.

6. Jamg'arma/bank qanday qilib o'z faoliyatini "yashillashtirishi" mumkin (masalan, jamg'arma investitsiya maqsadini belgilashi yoki investitsiya mezonlarini qayta ko'rib chiqishi mumkin)? U ushbu harakatlarni va ichki ko'rsatmalar kabi operatsion tafsilotlarni, shu jumladan, o'zining qayta ko'rib chiqilgan investitsiya mezonlarining bir qismi sifatida yashil taksonomiyaga muvofiq qoida/mezonlarini o'zgartirishni qabul qila oladimi?

Hozirgi kunda jamiyatning tashkiliy tuzilmasi aksiyadorlar tomonidan tasdiqlash bosqichida.

Mazkur tuzilmaga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish Ijroiya organi zimmasidadir.

Yashil loyihalarni qo'llab-quvvatlash uchun kompaniya tarkibida o'z faoliyat sohasi bo'yicha to'g'ridan-to'g'ri qaror qabul qilishi mumkin bo'lgan alohida bo'lim yoki sho'ba tashkil etilishi mumkin.

Biznesni rivojlantirish banki (BRB)

1. Jamg'arma/bank o'z investitsiyalari va operatsiyalarini "yashillashtirish" strategiyasiga egami yoki hozirda uni tayyorlash jarayoni ketmoqdam?

Ha, BRB KPMG bilan 2024–2026-yillarga mo'ljallangan strategiyasini faol ravishda ishlab chiqmoqda, bunda ESG omillarini o'z investitsiyalari va operatsiyalariga integratsiyalashga katta e'tibor qaratilmoqda. Ushbu strategiya doirasida BRB tadbirkorlarning malakasini oshirish, kichik va o'rta biznesda innovatsiyalarni qo'llab-quvvatlash hamda ekologik toza va energiyaga tejamkor texnologiyalarni joriy etishni rag'batlantirishga qaratilgan bir qator chora-tadbirlarni amalga oshirish majburiyatini oladi.

KPMG bilan hamkorlikda BRB o'z investitsiyalari va operatsiyalarini barqarorlik maqsadlari va ESG tamoyillari bilan muvofiqlashtirish bo'yicha keng qamrovli rejani ishlab chiqmoqda. Ushbu tashabbus BRBning nafaqat moliyaviy daromad olish, balki jamiyat va atrof-muhit uchun uzoq muddatli qiymat yaratishga qaratilgan mas'uliyatli va axloqiy biznes amaliyotiga sodiqligini ko'rsatadi.

O'z strategiyasining samaradorligini yanada oshirish uchun BDB atrof-muhitni muhofaza qilish va ijtimoiy mas'uliyatga sodiqlik borasida maslakdosh bo'lgan, ESG va barqarorlikka e'tibor qaratadigan investorlarni jalb qilish niyatida. BRB o'zining qaror qabul qilish jarayonlariga ESG omillarini integratsiya qilishning aniq va amalda ish beradigan rejasini namoyish etish orqali barqarorlikka ustuvor ahamiyat beradigan va o'z investitsiyalarini o'z qadriyatlariga moslashtirish istagidagi investorlarga murojaat qilishga intiladi.

2. Jamg'arma/bank hozirda ichki foydalanish uchun o'zining yashil taksonomiyasi yoki yashil skring vositasi kabi qandaydir vositalar/tahlillarni ishlab chiqyaptimi?

BRB Birlashgan Millatlar Tashkilotining BRM maqsadlarini ilgari surishga qaratilgan Barqaror moliya tizimini ishlab chiqmoqda. Ushbu tizim bankning barqarorlik tamoyillarini moliyaviy amaliyotiga integratsiyalash, investitsiyalarini ESG mezonlariga moslashtirish majburiyatini ifodalaydi.

Ushbu tashabbusning uzviy bir qismi sifatida bank barqarorlik sa'y-harakatlarini kuchaytirish uchun turli xil vositalar va mezonlarni ishlab chiqishni o'rganmoqda. Bu bankning o'zining yashil taksonomiyasini – barqaror investitsiyalarni tasniflash tizimini yaratishni o'z ichiga olishi mumkin. Bundan tashqari, bank oldindan belgilangan barqarorlik mezonlari bo'yicha potensial investitsiyalarni baholash uchun yashil skring vositasini joriy etishni ko'rib chiqmoqda.

Bank o'zining Barqaror moliya tizimini u bo'yicha ishlar yakuniga yetganidan keyin ko'rsatishga tayyor. Bankning maqsadi mas'uliyatli va ta'sirli moliyaviy amaliyotlarni ilgari surishda sanoat standartlarini oshirishdan iborat.

3. Yashil aktivlari/investitsiyalari, shu bilan birgalikda, yashil bo'lmagan aktivlarni oshkor qilish rejalarini bormi?

Bankning ilg'or bozor amaliyotlariga sodiqligi doirasida va Iqlim bilan bog'liq moliyaviy ma'lumotlarni oshkor qilish bo'yicha ishchi guruh (TCFD) tavsiyalariga muvofiq ravishda, bank o'z faoliyatida shaffoflik va hisobdorlikka sodiq qolmoqda. Bank barqarorlik va mas'uliyatli biznes yuritishning eng yuqori standartlarini qo'llab-quvvatlash majburiyatini olib, BMTning Global kelishuviga qo'shildi.⁴¹ Ushbu tamoyillarga muvofiq ravishda, bank o'zining Rivojlanish bo'yicha muloqotini (COP) oshkor qilishni rejalashtirmoqda.

Bank COP'da qayd etmoqchi bo'lgan asosiy yo'nalishlardan biri bu yashil aktivlari va investitsiyalarini oshkor qilishdir.

Bank o'zining yashil bo'lmagan aktivlari haqidagi ma'lumotlarni oshkor qilish muhimligini tan oladi. Keng qamrovli oshkor qilish orqali u investorlar, kreditorlar va kengroq bozorga o'zining investitsiya strategiyasi va barqarorlik maqsadlariga mos kelishi haqida yaxlit tushuncha berishni maqsad qilgan.

⁴¹ [Global Compact Status \(Active\)](#).

4. Qaysi investitsiya loyihalari/dasturlari “yashillashtirish” sa'y-harakatlariga ko'proq mos kelishi mumkin?

BRB iqlim moliya institutlari bilan hamkorlikni kuchaytirish niyatida. U Xalqaro moliya korporatsiyasi (IFC) tomonidan taqdim etilgan moliyaviy institutlar uchun iqlimni baholash platformasiga qo'shilishni rejalashtirmoqda, bu global iqlimni moliyalashtirish standartlari bilan moslashtirishga va ularni tushunishga yordam beradi.

Bundan tashqari, bank yashil moliyalashtirish tamoyillarini o'z loyihalari va dasturlariga integratsiya qilish uchun qimmatli bilim va vositalar bilan qurollanish maqsadida Yevropa tiklanish va taraqqiyot bankining Yashil moliya akademiyasiga qo'shilishni rejalashtirmoqda.

Yashil iqlim fondidan (GCF) akkreditatsiya olish BRB uchun investitsiya loyihalari uchun iqlimni moliyalashtirish resurslaridan foydalanish imkoniyatlarini ochib beradi.

Qayta tiklanadigan energiya, energiya samaradorligi, barqaror infratuzilma va iqlimga chidamli qishloq xo'jaligi kabi sohalardagi loyihalar yashil amaliyotlarni birlashtirish va ijobiy ekologik natijalarni yaratish uchun katta imkoniyatlarga ega. O'z sa'y-harakatlarini ushbu sohalarga yo'naltirish orqali bank nafaqat global iqlim maqsadlariga hissa qo'shishi, balki uzoq muddatga investitsiyalarining barqarorligi va chidamliligini oshirishi mumkin.

5. Jam'arma/bank o'zining “yashillashtirish” sa'y-harakatlari natijasida qo'shimcha xarajatlar va bandlikka ta'sir qilish imkoniyatini ko'rib chiqdimi va bu muammolarni boshqarish bo'yicha uning fikrlari qanday?

Ha, BRB o'zining “yashillashtirish” harakatlari bilan bog'liq bo'lishi mumkin bo'lgan qo'shimcha xarajatlar va bandlikka ta'sirlarni har tomonlama ko'rib chiqqan. Biroq, u bu muammolarni to'siqlar emas, balki o'sish va innovatsiyalar uchun imkoniyatlar sifatida ko'radi.

Bankning ushbu masalalarni boshqarishga yondashuvi ko'p qirrali. Birinchidan, BRB resurslardan foydalanishni optimallashtiradigan va atrof-muhitga ta'sirni minimallashtiradigan texnologiyalar va infratuzilmaga faol sarmoya kiritmoqda. Qayta tiklanadigan energiya manbalarini birlashtirish, energiya tejavchi tizimlarni joriy etish va o'z faoliyati davomida barqaror amaliyotlarni qo'llash orqali BRB qo'shimcha xarajatlarni kamaytirish va bir vaqtning o'zida o'zining ekologik izini kamaytirishni maqsad qilgan.

BRB yashilroq amaliyotlarni qabul qilish uchun xodimlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish talab qilinishi mumkinligini tushunadi. Shu sababli, bank o'z xodimlariga tegishli o'quv dasturlarini taqdim etish majburiyatini olgan.

Bundan tashqari, BRB bandlikka har qanday ta'sirni shaffof va mas'uliyatli tarzda hal qilish uchun manfaatdor tomonlar, jumladan, xodimlar, mahalliy hamjamiyat va tartibga soluvchi organlar bilan hamkorlik qilish muhimligini tan oladi. Ochiq muloqot kanallarini rivojlantirish va tegishli tomonlar bilan hamkorlik qilish orqali u potentsial muammolarni erta aniqlash va ularni hal qilish uchun faol strategiyalarni ishlab chiqishga qaratilgan.

Yashil mavzu BRBning kun tartibida va bank unga investitsiya kiritishga to'liq tayyor. Bank yashil o'tishni samarali boshqarish qobiliyatiga ishonchi komil.

6. Jam'arma/bank qanday qilib o'z faoliyatini “yashillashtirishi” mumkin (masalan, jam'arma investitsiya maqsadini belgilashi yoki investitsiya mezonlarini qayta ko'rib chiqishi mumkin)? U ushbu harakatlarni va ichki ko'rsatmalar kabi operatsion tafsilotlarni, shu jumladan o'zining qayta ko'rib chiqilgan investitsiya mezonlarining bir qismi sifatida yashil taksonomiyaga muvofiq qoida/mezonlarini o'zgartirishni qabul qila oladimi?

O'z faoliyatini samarali “yashillashtirish” uchun BRB bir nechta strategik harakatlarni amalga oshiradi:

1. Yashil investitsiya maqsadlarini belgilash: Bank portfelida yashil investitsiyalar uchun aniq maqsadlarni belgilash. Bu qayta tiklanadigan energiya tashabbuslari, ekologik toza infratuzilma va barqaror qishloq xo'jaligi kabi ekologik barqaror loyihalarga mablag'larning ma'lum qismini ajratishni o'z ichiga oladi.
 2. Investitsion mezonlarni qayta ko'rib chiqish: Bankning investitsiya mezonlarini ularga yashil jihatlarni kiritish maqsadida o'zgartirish. Buning uchun e'tirof etilgan ekologik standartlar va yashil taksonomiya kabi tizimlar asosida yashil investitsiya nima ekanligini tavsiflovchi keng qamrovli ko'rsatmalar to'plamini ishlab chiqish talab qiladi. Mezonlarga uglerod izi, resurslar samaradorligi va barqaror amaliyotlarga rioya qilish kabi omillar kirishi mumkin.
 3. Cheklovlar ro'yxatini amalga oshirish: yashil tamoyillarga mos kelmaydigan sanoat yoki faoliyat turlarini aniqlaydigan istisnolar ro'yxatini joriy qilish. Ushbu ro'yxat qazib olinadigan yoqilg'i, o'rmonlarni kesish va yuqori darajada ifloslantiruvchi sanoat kabi tarmoqlarni istisno qilgan holda investitsiya qarorlarini qabul qilishda ko'mak bo'ladi. Operatsion tafsilotlar istisno ro'yxatini bankning investitsiyalarni tekshirish jarayoniga integratsiyalashuvini o'z ichiga oladi, bu potentsial investitsiyalar yashil maqsadlarga mos kelishini ta'minlaydi.
-

-
4. Ichki ko'rsatmalar va treninglar: xodimlarga qayta ko'rib chiqilgan investitsiya mezonlari va istisnolar ro'yxati bo'yicha ichki treninglar o'tkazish va ko'rsatmalar berish. Bu xodimlarning yashil moliyalashtirish tashabbuslarining mantiqiy asoslarini tushunishlari va ularni kundalik faoliyatida samarali amalga oshirishlarini ta'minlaydi.
 5. Monitoring va hisobot berish mexanizmlari: Bankning yashil investitsiya maqsadlariga erishish jarayonini kuzatish uchun ishonchli monitoring va hisobot mexanizmlarini yaratish. Muntazam baholash yaxshilanishi kerak bo'lgan sohalarni aniqlashga yordam beradi va yashil tamoyillarga rioya qilishda javobgarlikni ta'minlaydi.

Ushbu harakatlar va operatsion tafsilotlarni qabul qilish orqali bank yashil moliyalashtirishga bo'lgan sodiqligini oshirishi va investitsiya qarorlarini axloqiy me'yorlarga muvofiqlashtirish bilan birga ekologik barqarorlikka ijobiy hissa qo'shishi mumkin.

5 TAVSIYALAR

Davlat jamg'armalari, korxonalar va banklar O'zbekiston iqtisodiyoti uchun tizimli ahamiyatga ega bo'lib, O'zbekiston hukumati uchun iqtisodiyotni bozor tamoyillariga o'tkazish barobarida yashil iqtisodiyotga o'tish jarayonini boshqarishda samarali siyosat vositalari hisoblanadi. IMV DMllari va DKlari faoliyatida ularning asosiy aksiyadori sifatida boshqaruvchi rolga ega. DMllari va DKlarini yashil va iqlim bilan bog'liq faoliyatga yo'naltirish, agar xususiy sektor davlat tomonidan amalga oshirilayotgan faoliyatni yuqori samaradorlik bilan oqilona o'z zimmasiga oladigan bo'lsa, IMVning davlat aktivlarining uzoq muddatli xavfsizligi va unumdorligi, shu jumladan, xususiylashtirish yoki tugatishdagi rolga, shuningdek, iqlim harakati va yashil iqtisodga o'tishni rivojlantirishdagi siyosiy rolga mos keladi. IMV va tegishli davlat organlari barcha DMllari va DKlaridan yashil strategiyalarni ishlab chiqish va amalga oshirishni talab qilishlari lozim. Strategiyalar korporativ boshqaruv siyosati va ichki tartib-qoidalarni bosqichma-bosqich tuzatishni o'z ichiga oladi. Xususan, yashil loyihalar uchun standart ta'rifni, masalan, NGET orqali qo'llashdan boshlab; yashil moliyalashtirish maqsadlarini belgilash va yashil ta'sirlarni o'z ichiga olgan yangi investitsiyalarni tasdiqlash mezonlarini joriy etish; NGET asosida moliyalashtirish natijalari to'g'risida hisobot berish, shu jumladan, taqsimlash, taxmin qilingan va (kelajakda ham) amalga oshirilgan ta'sirlar; jamoatchilik va potentsial investorlarga yashil portfel va aktivlar haqidagi ma'lumotlarni oshkor qilish; va vaqti-vaqti bilan korporativ strategiyalarni yanada yuksakroq yashil maqsadlarga yangilash shular jumlasidan.

Yashil siyosatning poydevori allaqachon mavjud, biroq mazkur hisobotda muhokama qilinganidek, DMllari va DKlariga nisbatan yashil moliyalashtirish oqimini jadallashtirish uchun maxsus ko'ndalang siyosatlari qabul qilish mumkin:

- a. **Barcha iqlim va yashil moliyalashtirish uchun markaziy muvofiqlashtiruvchi funktsiyani yaratish tavsiya etiladi.** IMVning davlat rag'batlantirish dasturlari, byudjet mablag'lari, DMllari va DKlarini moliyalashtirish, rivojlanish moliya institutlarining kreditlari, global iqlim fondlari va uglerod bozorlari oqimi to'g'risidagi ma'lumotlardan foydalanish salohiyatini hisobga olgan holda, bu funktsiya IMVga yuklatilishi mumkin. Xorijdagi moliyalashtiruvchilar bilan davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanadigan qo'shma korxonalarining muhim ishtirokchisi bo'lgan UFRD bilan hamkorlik bu funktsiyani yanada kengaytirishi mumkin. Muvofiqlashtirish mablag'larni sinergiyadan foydalanishga samarali yo'naltirish, bir-birini to'ldiruvchi, qo'llab-quvvatlovchi siyosatlarni o'z vaqtida amalga oshirishdagi kelishmovchiliklarni bartaraf etish hamda iqlim va yashil iqtisodiyotning afzalliklarini maksimal darajada oshirish imkonini beradi. Muvofiqlashtirish, shuningdek, kapitalashtirish, qo'shimchalik va natijalar tizimi kabi jihatlardan potentsial milliy iqlim fondi (yashil platforma) loyihasini ishlab chiqishga ko'maklashadi. Ko'rib chiqilishi kerak bo'lgan va quyida tavsiflangan mamlakat misollaridan biri BNDES.
- b. **IMVga NGET'ni barcha korxonalar va moliya institutlariga keng targ'ib qilish tavsiya etiladi.** Taksonomiya Vazirlar Mahkamasining 2023-yildagi qarori bilan tuzilgan va 2024-yilda yangilanib, rasmiylashtiriladi. U barcha iqtisodiyot tarmoqlari uchun mustahkam yashil ta'riflar va mezonlarni belgilaydi hamda ayrim tarmoqlar uchun mavjud bo'lishi mumkin bo'lgan yashil standartlar bo'yicha har qanday tartibga soluvchi bo'shliqlarni samarali ravishda to'ldiradi. Bu kompaniyalar va kreditorlarga yashil biznes yo'nalishlarini rivojlantirish va har qanday ichki yashil tasniflash metodologiyalarini milliy standartga moslashtirish uchun tartibga soluvchi aniqlikni beradi.
- c. **Moliyaviy institutlarga kelsak, O'zbekiston Markaziy banki o'zining prudensial nazoratchi rovida banklarni (va nobank kredit tashkilotlarini) "yashillashtirishni" qo'llab-quvvatlashi mumkin.** Banklardan kredit risklarini – ham o'tish bilan bog'liq risklar, ham jismoniy risklar – baholashga iqlim o'zgarishi va barqarorlik masalalarini kiritishni talab qilish risklarni boshqarishni yaxshilaydi va banklarni o'z portfellarida (va doimiy investitsiyalarda) yashil kreditlash ulushini oshirishga undaydi. Ushbu chora-

tadbirlar bank sektori uchun allaqachon ishlab chiqilgan, lekin hali eʼlon qilinmagan Barqaror moliya strategiyasining bir qismidir. Iqlim risklarini baholash, shuningdek, banklarga kredit tavakkalchiligini boshqarishda yordam beradigan noqulay ob-havo sharoiti sugʻurtasi kabi yangi tavakkalchilik mahsulotlari uchun imkoniyatlarni ochib beradi. Ushbu mahsulotni ishlab chiqish sugʻurta sektori tomonidan uning prudentsial nazoratchisi – ILMA koʻmagida amalga oshirilishi mumkin. ILMA ham nazorat qilish roli doirasida sugʻurta sanoati aktivlari va investitsiyalarini “yashillashtirish”ni ragʻbatlantirishi mumkin, jumladan, sugʻurta kompaniyalaridan banklarning yaqin kelajakda nima qilishi kutilayotganiga qaratilgan individual “yashillashtirish” rejalarni taqdim etishlarini soʻrash ham bunday choralarga misol boʻla oladi.

STRATEGIYADAN NATIJALARGA ERISHISHGACHA BOʻLGAN YOʻL

Yashil strategiyalar kutilgan natijalarni berishi uchun “yashil chempion” oʻzining natijalarni baholash tizimini loyihani tanlash amaliyoti bilan bogʻlashi kerak. Barqarorlik haqida hisobot berish boʻyicha xalqaro tajribaga asoslanib, tadqiqot Markaziy Osiyodagi milliy moliyaviy holding kompaniyasiga operatsion takomillashtirishni taʼsirni oʻlchash bilan uygʻunlashtirgan yondashuvni tavsiya qildi. Loyihani tanlash moliyaviy barqarorlik va atrof-muhitga foyda keltiradigan ikki tomonlama maqsadga yoʻnaltirilgan yondashuvga asoslanadi. Iqtisodiy rentabellik va ichki daromadlilik darajasi kabi tahliliy usullar yuqori taʼsirli investitsiyalarga ustuvorlik berish maqsadida qoʻllaniladi. Bu usullar iqlim va atrof-muhitga taʼsirni ham hisobga oladi, masalan, uglerodning yashirin narxini. Loyihalar amalga oshirilgach, issiqxona gazlari yoki chiqindilarni kamaytirish yoki suvni tejash kabi asosiy ekologik samaradorlik koʻrsatkichlari belgilangan boshlangʻich koʻrsatkichlarga nisbatan chuqur baholanadi. Baholashda kompaniya taxminlarga nisbatan haqiqiy taʼsirlarni baholash uchun kvazi-eksperimental usullardan, shu jumladan, “farqlardagi farq” tahlilidan foydalanishi mumkin. Mustaqil uchinchi tomon auditlari bilan toʻldirilgan tanlovdan baholashgacha boʻlgan ushbu uzluksiz sikl maʼlumotlarning ishonchiligi va shaffofligini taʼminlaydi. Ushbu yondashuv orqali moliya instituti oʻz faoliyatini iqlimni moliyalashtirish boʻyicha xalqaro standartlarga moslashtiradi va barqarorlikka yoʻnaltirilgan investorlar uchun jozibadorligini oshiradi.

Manba: Meleki va boshqalar. 2023-yil.

Mamlakatda yashil investitsiyalar boʻyicha “champion” boʻlish uchun baʼzi subyektlarning faoliyat sektoridagi yoʻnalishi, sanoat taʼsiri, ichki salohiyati va yashil yoʻnalishga tayyorligi nuqtai nazaridan imkoniyatlari koʻproq. Yettita tashkilot eng mos deb topilgan boʻlsa, ular orasidan tanlab olingan eng kuchli uchta allaqachon “yashillashtirish” tashabbuslarini boshlagan. Tanlangan eng kuchli uchlik ham yashil tashabbuslarni har biri turli bosqichlarda oʻz faoliyatiga tatbiq qilishni boshlagan. BRB va TRK moliyalashtirish maqsadlarini belgilash orqali yashil tashabbuslarga sezilarli tayyorlik va masʼuliyatni namoyish etdi, UzMRC esa uylarning energiya tejamkorligini taʼmirlash uchun ichki yashil baholash vositasini ishlab chiqdi. NGETni qanchalik qamrab olishi ularning tegishli strategiyalar, siyosatlar va vositalarni doimiy ravishda ishlab chiqishlari hamda oʻz amaliyotlarini yashil tamoyillarga moslashtirishga sobitqadamligiga bogʻliq. Bu yerda BRB, TRK va UzMRCning yashil tashabbuslarini tezlashtirish boʻyicha batafsil tavsiyalar mavjud boʻlib, ular xususiy sektordagi izdoshlar va qolgan qatnashchilarni ilhomlantiradigan muvaffaqiyatli yashil chempionlar boʻlishadi.

- a. **2024-yil iyun oyida tasdiqlangan yashil strategiyasida eng uzoq marraga erishdi.** Strategiya aniq moliyalashtirish maqsadlari, moliyalashtirish qarorlariga yashil mezonlarni integratsiya qilish boʻyicha harakatlar va yashil mahsulotlar ishlab chiqish rejalarni qamrab olgan. TRK oʻqitish, taksonomiyani amaliyotga tatbiq etish va shaffof maʼlumotlarni oshkor qilish orqali yashil investitsiyalarni koʻpaytirish bilan birga XMTlardan KOʻB yashil iqtisodiyot loyihalariga qoʻshimcha 100 million AQSh dollarini yoʻnaltirish majburiyatini oldi. TRK quyosh panellari loyihalari va yashil energiya boʻyicha boshqa tashabbuslarni qoʻllab-quvvatlash boʻyicha oʻz tajribasiga tayanadi. Bundan tashqari, TRK 2024-yil oxirigacha yashil obligatsiyalarni chiqarish choralarni koʻrmoqda, bu yashil moliyalashtirishga faol qoʻllab-quvvatlovchi yondashuvdan dalolat beradi. Hozirgi vaqtda TRK uchun ustuvor vazifa — oʻzining yangi yashil

strategiyasini amalga oshirish. Tashqi qo'llab-quvvatlash, ayniqsa, qaror qabul qilish, investitsiyalarni tanlash, ishlash monitoringi va ta'sir hisoboti jarayonlarida NGET talablarini muvaffaqiyatli qo'llash imkoniyatlarini oshiradi. Yashil strategiyani muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun uning bevosita ustuvor yo'nalishlari quyidagicha:

- Investitsiyalarni qayta ko'rib chiqish va tasdiqlash bo'yicha yo'riqnomalarni NGET'ga asoslangan yashil mezonlar bilan yangilash;
- Loyihalarni ko'rib chiqish va tasdiqlash bilan shug'ullanuvchi investitsiya guruhlarini yangi yo'riqnomalar bo'yicha o'qitish; va
- Yashil moliya mahsulotlari, shu jumladan KO'Kning energiya samaradorligi va iqlimga chidamliligini qo'llab-quvvatlovchi mahsulotlarni joriy etish.

Uning navbatdagi ustuvor yo'nalishi yashil moliyalashtirishni nazorat qilish uchun boshqaruv va monitoring mexanizmlarini yaratish, belgilangan ko'rsatkichlarga muvofiq yashil investitsiyalarni kuzatib borish va ijobiy xalqaro amaliyotlardan kelib chiqqan holda yashil moliyalashtirish samaradorligini oshkor qilish qoidalarini belgilashdan iborat bo'ladi.

- b. **Suhbatlar davomida BRB o'zining keng ko'lamli va har tomonlama yashil qarashlari bilan o'rtoqlashdi.** Bank uchun strategiyasi va uni amalga oshirish jarayoni borasidagi maslahatlar manfaatli bo'lishi mumkin. BRB tashqi texnik yordam olish masalasini ko'rib chiqishi maqsadga muvofiq. Asosiy yo'nalishlardan biri bank siyosati va protseduralariga NGET'ni integratsiya qilish. Xalqaro misollardan olingan yaxlit yashil strategiyaning konturi quyidagi Tavsifnomada ko'rsatilgan va yo'riqnoma vazifasini o'tashi mumkin. BRB o'zining ESG integratsiyasiga qaratilgan 2024–2026-yillarga mo'ljallangan strategiyasini ishlab chiqishni boshladi. Bunga Barqaror moliya tizimi va barqarorlikni ta'minlash bo'yicha sa'y-harakatlarni kuchaytirish uchun turli vositalar, masalan, ichki yashil taksonomiyani ishlab chiqish kiradi.⁴² BRBning yashil aktivlari va investitsiyalarini oshkor qilish rejalari global shaffoflik standartlariga mos keladi, bu yuqori marraga oqilona intilishdan dalolat. Dastlab NGET ta'riflari va yashil investitsiya yo'riqnomalarini integratsiya qilish uchun operatsion vositalarning kuchli asosiga e'tibor qaratilgan yaxshi ishlab chiqilgan strategiya va harakat rejasiga ega bo'lish muhim ahamiyatga ega.

TAVSIFNOMA: IQLIM VA ATROF-MUHIT SOHASIDA (YASHIL) MOLIYALASHTIRISHNI KENGAYTIRISH BO'YICHA KORPORATIV STRATEGIYA

Dastlabki mandatini ikki tomonlama missiya va maqsadlar bilan yangilash:

- Tashkilotning umumiy missiyasi va barqarorlik strategiyasiga mos keladigan yashil moliyalashtirishni kengaytirish uchun aniq, o'lchanadigan maqsadlarni belgilash.
- Moliyalashtirish/investitsiya maqsadlari o'lchanishi va to'g'ri yashil ta'riflarga asoslangan bo'lishi kerak (masalan, NGET). O'lchanadigan maqsadlar, masalan, yashil investitsiyalar uchun ajratilgan aktivlarning foizi yoki uglerodni ko'p talab qiladigan texnologiyalardan foydalanishni yoki moliyalashtirishni to'xtatish bo'yicha muddati belgilangan maqsad va boshqalar.
- Yetarli darajada yuqori marralarni ko'zlagan, shu bilan birga, kelgusida oldinga siljish borasida ishonchni mustahkamlash uchun erishish mumkin bo'lgan maqsadlarni belgilash.

Tashkilot madaniyati va ichki salohiyat:

- Integratsiyani nazorat qilish hamda strategik rejalashtirish va qaror qabul qilish jarayoniga yashil maqsadlarni kiritish bo'yicha kuzatuv va boshqaruv kengashi a'zolarining majburiyatlarini yangilash. Kuzatuv kengashining mas'uliyati natijalar va ta'sirni baholashni o'z ichiga olishi lozim.

⁴² NGETdan foydalanish uchun davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanadigan har qanday tashkilot uchun tartibga soluvchi talabni hisobga olgan holda, BRB har qanday ichki yashil tasniflash tizimini NGET bilan moslashtirishi kerak.

- Umumiy va idoraviy darajada, agar mavjud bo'lsa, yashil me'yoriy talablar hamda iqlim o'zgarishi va atrof-muhit tamoyillari to'g'risida xabardorlik bo'yicha treninglarni tashkil qilish.
- Boshqaruv lavozim tavsiflarini yashil maqsadlar va marralar uchun javobgarlikni qo'shgan holda yangilash, biznesga integratsiyalashuv uchun faoliyat samaradorligi ko'rsatkichlarini belgilash va menejnlarni barqaror amaliyotlarni qo'llashga undash.
- Yashil amaliyot va barqarorlik bo'yicha ma'lumotga ega nomzodlarga ustuvorlik berish uchun ishga qabul qilish siyosatini yangilash.
- Yashil moliyalashtirishni rag'batlantirish va yashil loyihalarni ishlab chiqishda mijozlarni qo'llab-quvvatlash uchun sanoat uyushmalari, nodavlat tashkilotlar (NNT) va davlat organlari bilan hamkorlik qilish.

Siyosat integratsiyasi:

- O'zbekiston NGET yoki boshqa modellar (masalan, Yevropa Ittifoqining barqaror moliya taksonomiyasi) asosida jamg'arma, davlat korxonasi yoki bank ehtiyojlari uchun yashil mezonlarni belgilash. Tashkilotning loyihami tanlash, tegishli ekspertiza va portfelni boshqarishni o'z ichiga olgan rasmiy investitsiya va kredit siyosatiga mezonlarni integratsiyalash.
- Yashil moliyalashtirishga yo'naltirilgan ixtisoslashgan guruhlarni shakllantirish, ular risk-daromad, barqaror moliya va yashil loyihalarni baholash uchun iqlim va atrof-muhit risklari bo'yicha mutaxassislarni o'z ichiga olgan bo'lishi kerak.
- Yashil obligatsiyalar, yashil kreditlar, barqarorlik bilan bog'liq kreditlar va yashil ipoteka kabi bir qator yashil moliyaviy mahsulotlarni ishlab chiqish va taklif etish. Mahsulotni ilgari surish paytida moliyaviy va yashil imtiyozlarga urg'u berish.
- Mijozlarga ariza berish jarayonida yo'l-yo'riq ko'rsatish uchun maslahat xizmatlarini taqdim etish.
- Uglarod va atrof-muhitga ta'sir izlarini hamda iqlim zaifligini kamaytirish uchun kompaniyaning operatsion jarayonlarini baholash va o'zgartirish.

Moliyachilar va muayyan korxonalar uchun iqlim risklarini boshqarish:

- Turli iqlim ssenariylarining biznes operatsiyalari va moliyaviy natijalarga ta'sirini tushunish uchun ssenariy tahlili va stress testini o'tkazish.
- Bunda tegishli natijalar aktivlarni diversifikatsiya qilish, iqlimga chidamli infratuzilmaga investitsiya kiritish kabi strategik qarorlar va xavflarni kamaytirish rejalari hamda sug'urta qamrovini kengaytirish uchun ma'lumot vazifasini o'taydi.
- Iqlim o'zgarishi, ekstremal ob-havo hodisalari va harorat o'zgarishining jismoniy ta'siriga dosh berish uchun moslashish strategiyalarini qabul qilish.
- Iqlim risklari va oqibatlarini yumshatish chora-tadbirlari samaradorligini kuzatish uchun mustahkam monitoring va hisobot mexanizmlarini yaratish hamda manfaatdor tomonlarni jarayonning holati haqida muntazam ravishda xabardor qilish.

Monitoring va hisobot:

- Mavjud investitsiya portfelini (kredit liniyalari, qisman kredit kafolatlari, kapitalga investitsiyalar, subsidiyalar) NGET (yoki ekvivalenti)ga nisbatan baholash va portfelning yashil ulushini oshkor qilish.
- Rivojlanayotgan qoidalar, bozor sharoitlari va barqarorlikdagi texnologik yutuqlarga javoban investitsiya strategiyalarini muntazam ravishda baholash va o'zgartirish.
- Moliyalashtirish va samaradorlik haqidagi ma'lumotlarni oshkor qilish,⁴³ masalan, NGET tasnifiga ko'ra yashil va yashil bo'lmagan aktivlar, investitsiyalarning moliyaviy bo'lmagan samaradorligi va yashil siyosat haqidagi ma'lumotlar

Ishtirok etish va hamkorlik:

- Boshqa investorlar, tartibga soluvchi organlar va sanoat guruhlari bilan eng yaxshi tajribalarni almashish va NGETni kengroq qabul qilishni rag'batlantirish maqsadida hamkorlik qilish.
- Iqlim va atrof-muhit maqsadlariga muvofiqligini qo'llab-quvvatlash uchun investorlar va qarz oluvchilar bilan hamkorlik qilish.

⁴³ Malumot sifatida xizmat qiluvchi hisobot modellari qatoriga Yevropa Ittifoqining Barqaror Moliyani Ochib berish to'g'risidagi reglamenti (SFDR) yoki banklar uchun TCFD kiradi.

c. **UzMRC ning hozirga qadar olib borayotgan sa'y-harakatlari tayyorgarlik bosqichida, biroq u NGETni o'z faoliyati va boshqa "yashillashtirish" tadbirlarida qo'llashga tayyorligini yaqqol namoyish qildi.** UzMRC, hozirda investitsiyalar va operatsiyalarni "yashillashtirish" bo'yicha rasmiy strategiyaga ega bo'lmasa-da, 2024-yilda yashil obligatsiyalarni chiqarishni rejalashtirmoqda.⁴⁴ Yashil uy-joylarni moliyalashtirishni yanada kengroq miqyosda ko'paytirishga imkon berish uchun sanoatda yashil va iqlimga chidamli qurilish standartini o'rnatish zarurati mavjud. UzMRC bu standartlar uy-joy bozorini rivojlantirish siyosatining ustuvor yo'nalishi sifatida targ'ib qilishi lozim. Shu bilan birga, u yashil ipotekani qo'llab-quvvatlash bo'yicha o'zining ichki tizimini mustahkamlashni davom ettirishi zarur. Uning hozirgi e'tibori XMT bilan hamkorlikda ichki Yashil moliyalashtirish siyosati va tegishli harakat rejalarini ishlab chiqishga qaratilgan bo'lib, bu kelajakda yashil tashabbuslar uchun zamin yaratishi mumkin.

Yashil obligatsiyalar chiqarish uchun yashil tartibga soluvchi muhit talablariga javob berish. UzMRC va TRKning yashil obligatsiyalar chiqarish bo'yicha rejaları ularning ichki salohiyatini oshirish zarurligini ko'rsatadi. Korporativ yashil obligatsiyalar uchun yangi chiqarilgan reglament NGETdan foydalangan holda standart ta'riflarni qo'llash, resurslarni moliyaviy taqsimlash va natijalar to'g'risida hisobot berish uchun talablarni belgilaydi. Tizimlar va xodimlarni yollash/o'qitish ustuvor vazifa bo'ladi.

Aksiyadorlarning qarorlari orqali yashil moliyalashtirishni tatbiq etish. IMV ham TRK, ham UzMRC ustidan aksiyadorlik nazoratiga ega va aksiyadorlar qarorlari orqali NGET va yashil investitsiya maqsadlaridan foydalanishga ko'rsatma berishi mumkin. Bu subyektlarga nisbatan bir xil majburiy ta'sirga ega bo'ladi, lekin ko'p vaqt talab qiladigan rasmiylashtirish jarayonlariga hojat bo'lmaydi. TRK misolida uni "yashillashtirish" Prezident farmoniga ko'ra amalga oshirildi. Aksiyadorlar qarorlari qonunchilik talablari bilan bir xil mavzularni, masalan, yashil moliyalashtirish maqsadlarini belgilash va yashil natijalar haqida hisobot berish qoidalarini qamrab olishi mumkin. Bundan tashqari, aksiyadorlar sifatida IMV va Davaktiv yashil/yashil bo'lmagan aktivlar va investitsiyalarni oshkor qilish majburiyatini yuklashi va iqlim va atrof-muhit bo'yicha aniq maqsadlarga erishish sharti bilan TRK va UzMRC kapital taqsimotlarini tasdiqlashi mumkin.

UFRD iqlim bo'yicha harakatlarda katta o'zgarishlarni amalga oshirish uchun bir nechta jamg'armalarga qalqon sifatida o'ziga xos mavqega ega. UFRDning o'z yashil strategiyasi bo'lishi lozim. UFRD yettita ustuvor tashkilotdan uchtasi: UzDIF (100 foiz), BRB (23,9 foiz) va "O'z kimyosanoat" AJ (58 foiz) aksiyadori hisoblanadi.

- Jamg'armalar jamg'armasi sifatida, u muayyan bir jamg'arma yoki kompaniya bo'yicha resurslarni taqsimlash o'rniga, NGETga muvofiq ustuvor yashil sektorlarga (masalan, qayta tiklanadigan energiya, barqaror qishloq xo'jaligi va iqlimga chidamlilik va moslashish) muvofiq kapitalni taqsimlash va moliyalashtirish bo'yicha ko'rsatmalarni belgilashi mumkin.
- Muayyan jamg'armalar va investitsiya kompaniyalariga kelsak, UFRD NGET (yoki ekvivalenti)ga muvofiq jamg'arma investitsiyalarining yashil bo'lishi talab qilinadigan ulushi borasida yillik KPIlarni belgilashi mumkin.
- UFRD o'zining umumiy yashil moliyalashtirishi (faqat BRB, UzDIF va boshqalar bilan cheklanmagan holda) va milliy atrof-muhit va iqlim o'zgarishi bo'yicha maqsadlarga qo'shgan hissasi, shu jumladan, DKlari investitsiyalarini moliyalashtirish va boshqa milliy infratuzilma loyihalarini moliyalashtirish bo'yicha hisobot berish majburiyatini olishi mumkin.
- Nihoyat, ko'plab jamg'armalari va investitsiya kompaniyalari orqali turli sohalarni qamrab olishi hisobga olinsa, UFRD turli muassasalardagi "yashillashtirish" tashabbuslari hamda NGET qo'llanishidan olingan tajriba va saboqlar haqida umumiy tasavvurga ega. Boshqa kompaniyalar va moliya institutlariga

⁴⁴ UzMRC 2024-yil sentabr oyida korporativ yashil obligatsiyani muvaffaqiyatli chiqardi.

yashil investitsiyalarini oshirish bo'yicha maslahat berish uchun juda yaxshi salohiyatga ega.⁴⁵ Ushbu mumkin bo'lgan maslahatchi roli uning yashil strategiyasiga kiritilishi mumkin. BNDES va Masdar singari qayta tiklanadigan energiya va barqarorlik ishlari bilan xalqaro miqyosda tanilgan davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanadigan jamg'armalar UFRD nimaga intilishi mumkinligiga misol bo'la oladi.

O'ZBEKISTON TIKLANISH VA TARAQQIYOT JAMG'ARMASI (UFRD)

UFRD O'zbekiston suveren jamg'armasi sifatida faoliyat yuritadi va o'z daromadini oltin, mis va gazning narxi ma'lum chegaralardan oshib ketgandagi sotuvlardan oladi. U 2006-yilda O'zbekistonning strategik tarmoqlariga davlat tomonidan kafolatlangan kreditlar va aksiyadorlik investitsiyalarini taqdim etish maqsadida tashkil etilgan. Jamg'arma asosan to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalarni amalga oshirishdan ko'ra qarzlarni moliyalashtirishni ta'minlaydi. U davlat korxonalarini O'zbekiston iqtisodiyoti uchun muhim bo'lgan tarmoqlar doirasida modernizatsiya va texnik takomillashtirish loyihalarida qo'llab-quvvatlaydi.

Omma uchun ochiq bo'lgan ma'lumotlarni ko'rib chiqishda UFRDning Santyago tamoyillariga, ya'ni ixtiyoriy ijobiy amaliyotlar kodeksiga rioya qilishi to'g'risida hech qanday bayonotlar aniqlanmadi,⁴⁶ shuningdek, O'zbekiston Xalqaro Valyuta Jamg'armasi (XVJ) tomonidan tashkil etilgan Suveren Jamg'armalar bo'yicha Xalqaro Ishchi Guruhda ishtirok etmaydi.⁴⁷ 2017-2020-yillar mobaynida byudjet investitsiya jarayonidan mustaqil ravishda belgilanadigan UFRD investitsion kreditlashi iqtisodiy faoliyatga sarflangan umumiy xarajatlarning qariyb uchdan bir qismini tashkil etdi. 2020-yilgi byudjetdan boshlab, UFRD operatsiyalari to'liq davlat byudjetiga birlashtirildi.⁴⁸ 2023-yil 31-oktabr holatiga ko'ra, UFRD'ning jami aktivlari 16,7 milliard AQSh dollarini tashkil etdi, shundan 6,5 milliard AQSh dollari likvid aktivlardir.⁴⁹ Jamg'arma 21 ta subyektda 20 foiz va undan ortiq ulushga ega, jumladan, 9 ta bank, 6 ta jamg'arma va investitsiya kompaniyalari, 2 ta metall ishlab chiqaruvchi, 2 ta qurilish firmasi, 1 ta tog'-kon sanoati va 1 ta kimyo sanoati korxonalari.⁵⁰

Kelajakka nazar. Keyingi, takomillashgan bosqichda, banklar va korxonalar o'z portfellarini yashil yoki yashil bo'lmagan deb baholash yoki Parij bitimiga muvofiqlik kabi ma'lum bir iqlim maqsadiga taqqoslash imkoniyatini ko'rib chiqishlari mumkin. Keyinchalik, subyektlar bo'lg'usi investorning kutilmalarini yoki tartibga solish talablariga javob berish uchun portfelni qayta muvozanatlash yoki diversifikatsiya qilish haqida ma'lumot berish maqsadida ushbu mezonlardan foydalanishlari mumkin. Yevropa Ittifoqining Parijga moslashtirilgan ko'rsatkichlari (PAB)⁵¹ issiqxona gazlari (IG) chiqindilarini kamaytirish va kam uglerodli iqtisodiyotga o'tishni rag'batlantiradigan maqsadlarini birlashtiradigan mezon namunasidir. Bu holda kam uglerodli iqtisodiyotga o'tish Parij bitimining global o'rtacha harorat o'sishini sanoat davridan oldingi darajadan 2°C yuqoridan ancha past darajada cheklash maqsadiga mos keladi. Bu uglerod chiqindilari nolga teng bo'lishini o'z ichiga olgan uzoq muddatli maqsadga erishish yo'lida harakat qilish majburiyatini namoyish etishga intilayotgan investorlarga ma'qul keladi.

⁴⁵ [Yashil taksonomiyalar: potentsialidan kam foydalaniladigan vosita](#). Observer Research Foundation.

⁴⁶ Santyago tamoyillari shaffoflik, yaxshi boshqaruv, hisobdorlik va oqilona investitsiya amaliyotlarini qo'llab-quvvatlaydi, shu bilan birga, ochiqroq muloqotni va Suveren Boylik Jamg'armasi (SWF) faoliyatini chuqurroq tushunishni rag'batlantiradi. Ular SWFlar o'zlarining ichki bozorlarida ham, global miqyosda ham iqtisodiy va moliyaviy yo'naltirilgan subyektlar sifatida sarmoya kiritishlarini ko'rsatadi.

⁴⁷ <https://www.state.gov/reports/2023-investment-climate-statements/uzbekistan/>.

⁴⁸ [O'zbekistonning o'tish davrini baholash. Mamlakat iqtisodiy memorandum. To'liq hisobot. 2021-yil.](#)

⁴⁹ [S&P: O'zbekistonda ijtimoiy xarajatlar, jumladan, ish haqini siyosiy sabablarga ko'ra tuzatish qiyin bo'lishi mumkin](#). Gazeta.uz. 2023-yil, 11-dekabr.

⁵⁰ [UFRD yigirma foiz va undan ortiq ulushga ega bo'lgan yuridik shaxslar ro'yxati](#).

⁵¹ Yevropa Ittifoqi. 2020-yil.

TAVSIFNOMA: BNDES PROFILI

BNDES federal davlat kompaniyasi bo'lib, Braziliya iqtisodiyotining barcha segmentlarida uzoq muddatli moliyalashtirish va investitsiyalar uchun asosiy vositadir. 1952-yilda tashkil etilgan BNDES Iqtisodiyot vazirligining yurisdiksiyasi ostida faoliyat olib boradi. Bankning vazifasi Braziliyada barqaror va raqobatbardosh rivojlanishni qo'llab-quvvatlash, ish o'rinlari yaratish, daromadlarni oshirish va ijtimoiy inklyuziyani rag'batlantirishdan iborat.

Asosiy funktsiyalar:

1. *Uzoq muddatli moliyalashtirish:* BNDES Braziliya rivojlanishiga hissa qo'shadigan loyihalar, jumladan, infratuzilma, sanoat va ijtimoiy loyihalar uchun uzoq muddatli moliyalashtirishni ta'minlaydi.
2. *Innovatsiyalarni qo'llab-quvvatlash:* Ilmiy-tadqiqot va tajriba-konstruktorlik faoliyatini moliyalashtirish hamda ishlab chiqarish jarayonlarini modernizatsiya qilish orqali innovatsiyalarni qo'llab-quvvatlaydi.
3. *Atrof-muhit barqarorligi:* BNDESning muhim yo'nalishi mamlakatning iqlim o'zgarishlariga kurashish maqsadlariga mos keladigan ekologik barqaror loyihalarni ilgari surishdir.

Barqarorlik strategiyasi va boshqaruv:

BNDESdagi korporativ rejalashtirish Braziliyaning yashil iqtisodiyotga o'tishini qo'llab-quvvatlaydi. Rejalashtirish boshqaruvi BNDESning ijtimoiy va atrof-muhitga oid operatsion tashabbuslari samaradorligini baholash uchun monitoring ko'rsatkichlari kabi operatsiyalarga kiritishga qaratilgan tashabbuslar va loyihalarni o'z ichiga oladi. 2020–2022-yillarga mo'ljallangan Uch yillik reja 2022-yilgacha jamiyat uchun asosiy natijalarni belgilaydi va Braziliya iqtisodiyotining asosiy muammolarini xaritalash asosida tayyorlangan. Har bir natija BRM bilan bog'liq masalalarni ko'zda tutadi.

BNDESda ESGga bag'ishlangan bir nechta bo'limlar mavjud, jumladan Ijtimoiy Ekologik Barqarorlik va Hududiy Rivojlanish Qo'mitasi (CSS) ESGni BNDES siyosati, jarayonlari va munosabatlariga integratsiyalashuvini monitoring qilish uchun maslahat organi bo'lib xizmat qiladi. Bu moliyaviy qo'llab-quvvatlash operatsiyalari tahliliga iqlim o'zgarishini integratsiyalashni o'z ichiga oladi.

Iqlim o'zgarishlariga qarshi kurashish bo'yicha chora-tadbirlarni qo'llab-quvvatlash

BNDES issiqxona gazlari chiqindilarini kamaytirish, qayta tiklanadigan energiya manbalarini targ'ib qilish va barqaror rivojlanishni rag'batlantirishga qaratilgan turli tashabbuslar va moliyalashtirish dasturlari orqali Braziliyada iqlim o'zgarishlariga qarshi kurashish yo'lidagi choralarni qo'llab-quvvatlashda hal qiluvchi rol o'ynaydi.

Muhim moliyaviy ko'rsatkichlar (2022-yil)

- R\$ 97,5 mlrd o'zlashtirilgan mablag'lar, bu YalMning 1 foiziga teng
- R\$ 33,3 milliard o'z kapitallaridan tushgan daromad.

Barqaror rivojlanishning muhim ko'rsatkichlari (2022-yil)

- qayta tiklanadigan energiya ishlab chiqarish quvvatlarining 3,4 GVt ga o'sishi kutilmoqda
- qayta tiklanadigan energiya, shaharlarda harakatlanish, bioyoqilg'i va jamoat yoritish loyihalari hisobiga 22,9 million tonna CO₂e emissiyasi ushlab qolingani tasdiqlangan yoki kim oshdi savdosiga qo'yilgan.
- qo'llab-quvvatlaydigan loyihalar orqali 12100 gektar bog'lar va o'rmonlar saqlab qolinadi
- Har ish kunida 410 000 foydalanuvchiga yuqori va o'rta sig'imli shahar transport tizimlari xizmat ko'rsatadi.

Ijtimoiy ta'sirlar

- 156 000 KO'K va jismoniy shaxslar qo'llab-quvvatlandi
- 2300 nafar ayol Oilaviy dehqonchilikni mustahkamlash milliy dasturi (Pronaf Mulher) tomonidan qo'llab-quvvatlandi.

Manba: BNDES veb-sayti <https://www.bndes.gov.br>.

TAVSIFNOMA: MASDAR PROFILI

Ma'lumot uchun: Abu Dabi Future Energy Company nomi bilan ham tanilgan Masdar 2006-yilda tashkil etilgan. U to'liq Abu Dabi hukumatining strategik investitsiya bo'limi Mubadala Investment Company'ga tegishli. Masdar qayta tiklanadigan energiya manbalariga o'tish va barqaror amaliyotlarni global miqyosda rivojlantirishga yo'naltirilgan. Bu iqlim o'zgarishi sabablarini ilgari surish va strategik investitsiyalar, davlat yordami va xalqaro hamkorlik orqali barqaror kelajakka o'tish uchun davlat resurslaridan foydalanishning namunasidir.

Missiyasi: Global energetika landshaftiga sezilarli ta'sir ko'rsatadigan qayta tiklanadigan energiya manbalari va barqaror shaharni rivojlantirish loyihalarini taqdim etish.

Global portfeli: 2022-yil holatiga ko'ra 30 milliard dollarga baholanmoqda.

Asosiy faoliyat yo'nalishlari:

1. Qayta tiklanadigan energiya

- *Quyosh energiyasi:* shu jumladan, Abu-Dabidagi "Shams 1" konsentratsiyalashgan quyosh energiyasi (CSP) stansiyasi, bunday qurilmalarning eng yiriklaridan biri.
- *Shamol energetikasi:* Buyuk Britaniya, Serbiya va boshqa mamlakatlarda shamol energetikasi loyihalariga investitsiyalar.
- *Xalqaro loyihalar:* Masdar qayta tiklanadigan energiya portfeli global miqyosda kengaytirildi, 30 dan ortiq mamlakatlardagi loyihalar, jumladan, Yevropa, Amerika va Yaqin Sharqdagi yirik investitsiyalarini o'z ichiga olgan.

2. Barqaror shahar rivojlanishi

- *Masdar City:* Abu-Dabidagi ilg'or shaharsozlik loyihasi dunyodagi eng barqaror shaharlardan biri bo'lishga mo'ljallangan. U qayta tiklanadigan energiya, energiya samaradorligi, suvni tejash va chiqindilarni kamaytirish amaliyotlarini birlashtiradi.
- *Aqlli tarmoqlar va barqaror transport:* Smart-grid texnologiyalarini joriy etish va Masdar City hududida elektr va avtonom transport vositalarini ilgari surish.

3. Tadqiqot va ishlanmalar

- *Innovatsiyalar markazi:* Masdar City ilmiy muassasalar va texnologiya kompaniyalari bilan hamkorlikda qayta tiklanadigan energiya va barqarorlik sohasida tadqiqot va ishlanmalarni rag'batlantiradigan innovatsion markazni o'z hududida joylagan.
- *Hamkorlik tashabbuslari:* global tadqiqot institutlari bilan hamkorlik va xalqaro barqarorlik tashabbuslarida ishtirok etish.

4. Davlat resurslaridan foydalanish

- *Mubadala tomonidan strategik investitsiya:* Mubadalaning moliyaviy resurslaridan foydalangan holda, Masdar o'z loyihalari va kengayishini moliyalashtirish uchun katta kapital qo'yilmalarni oladi.
- *Hukumatni qo'llab-quvvatlash va siyosatni muvofiqlashtirish:* Birlashgan Arab Amirliklari hukumatining 2021-yilga mo'ljallangan Vision va BAAning 2050-yilgacha energiya strategiyasiga muvofiq, ular toza energiya hissasini oshirish va uglerod chiqindilarini kamaytirishga qaratilgan.
- *Davlat-xususiy sheriklik:* qayta tiklanadigan energiya manbalari bo'yicha yirik loyihalarni ishlab chiqish va moliyalashtirish uchun xalqaro hukumatlar, moliya institutlari va xususiy kompaniyalar bilan hamkorlik.
- *Innovatsiyalarni moliyalashtirish:* yashil texnologiya va barqaror amaliyotlar bo'yicha ilmiy-tadqiqot tashabbuslarini moliyaviy qo'llab-quvvatlash, innovatsiyalar va texnologiyalar transferini rag'batlantirish.

2022-yil holatiga barqaror rivojlanishning asosiy yo'nalishlari:

- *20 GVt:* Masdar qayta tiklanadigan energiya loyihalarining o'sha yili ishlayotgan, qurilayotgan yoki ta'minlangan umumiy ishlab chiqarish quvvati.
- *30 million tonna:* O'sha yili ishlaydigan, qurilayotgan yoki ta'minlangan aktivlar tufayli CO₂ shunchaga kamayadi.

Manbalar:

[Masdar barqaror rivojlanish hisoboti, 2022-yil](#)

[Masdar yashil moliyani taqsimlash va ta'sir hisoboti, 2023-yil](#)

BIBLIOGRAFIYA

- Abdullaev U. 2020. "O'zbekistonda davlat korxonalari: Zaxiralar xatlovi va islohotlarning ayrim ustuvor yo'nalishlari". OTB (Osiyo Taraqqiyot Banki) Instituti Ishchi Maqolalar. ADBI, Tokio. <https://www.adb.org/publications/state-owned-enterprises-uzbekistan-taking-stock-reform-priorities>.
- Dalhuijsen, E., E. Gutierrez, T. Kliatskova, R. Mok va MGJ Regelink. 2023. "Milliy rivojlanish moliya institutlarini yashillashtirish: tendensiyalar, olingan saboqlar va oldinga siljish yo'llari". Xalqaro taraqqiyot diqqat markazida. Vashington, DC: Jahon banki. doi: 10.1596/978-1-4648-2031-1.
- Yevropa Ittifoqi. 2020. 2020-yil 17-iyuldagi Yevropa Parlamenti va Kengashning 2016/1011-sonli Nizomini (EI) to'ldiruvchi, Yevropa Ittifoqining Parijga moslashtirilgan ko'rsatkichlari va boshqa mezonlari uchun minimal standartlarga tegishli 2020/1818-sonli Nizom (EI). https://eur-lex.europa.eu/eli/reg_del/2020/1818/oj.
- Izvorski, IV, E. Trushin, A. Appiah-Koranteng, A. Varoudakis, R. Islom, M. Safarov, DM Lord, M. Motohashi, A. Ihsan, S. Zorya, IHR Hawkesworth, F. Philipsen, S. Jeyms, E. Anadolu, JEN Teixeira va K. Karakulah. 2019. O'zbekiston: davlat xarajatlari sharhi. Vashington, DC: Jahon banki guruhi. <https://documents1.worldbank.org/curated/en/471601582557360839/pdf/Uzbekistan-Public-Expenditure-Review.pdf>.
- Melecky, M., P. Di Benedetta, I. Fontan, G. Jambal va Mi. Noel. 2023. "Ta'sirga tayyor: Rivojlanish samaradorligi va bozor yaratish uchun Qozog'iston milliy moliyaviy xoldingini isloh qilish". Xalqaro rivojlanish diqqat markazida. Vashington, DC: Jahon banki. doi: 10.1596/978-1-4648-2016-8.
- BMTTD (Birlashgan Millatlar Tashkilotining Taraqqiyot Dasturi) va ODI (Xorijiy taraqqiyot instituti). 2023. Iqlim o'zgarishlariga qarshi kurashga davlat xarajatlari va institutsional tahlil. BMTTD, Nyu-York. <https://www.undp.org/asia-pacific/publications/climate-public-expenditure-and-institutional-review-cpeir-methodological-note>.
- Jahon banki. 2024. Toshkent shahrida havo sifatini baholash va O'zbekistonda havo sifati boshqaruvini takomillashtirish bo'yicha "yo'l xaritasi". Vashington, DC: Jahon banki. <https://openknowledge.worldbank.org/bitstreams/9e16f85e-7f0e-4460-9a19-49e903ddee0a/download>.
- Jahon banki guruhi va O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi. 2023. O'zbekiston yashil taksonomiyasi bo'yicha yo'riqnomasi. Vashington DC: Jahon banki guruhi. <https://documents1.worldbank.org/curated/en/099021424113038230/pdf/P1771081039a350761b44917c20eef8174d.pdf>.
- Jahon banki guruhi. 2020. O'zbekiston: davlat xarajatlari sharhi (2019 yil). Vashington DC: Jahon banki guruhi. <https://documents1.worldbank.org/curated/en/471601582557360839/pdf/Uzbekistan-Public-Expenditure-Review.pdf>.
- Jahon banki guruhi. 2023a. O'zbekistonning iqlim rivojlanishi to'g'risidagi hisobot. Vashington DC: Jahon banki guruhi. <https://documents1.worldbank.org/curated/en/099111423124532881/pdf/P1790680f452f10ba0a34c06922a1df0003.pdf>.
- Jahon banki guruhi. 2023b. O'zbekiston integratsiyalashgan davlat korxonalarini baholash tizimi. Vashington DC: Jahon banki guruhi. <https://documents1.worldbank.org/curated/en/099052224015534521/pdf/P17569618b77970ad1965a154065434509b.pdf>.

1-ILOVA

O'zbekistonning yashil siyosati va moliyashtirish vositalari

Siyosat yoki moliyashtirish chorasi	Oldinga siljish	Izohlar
Subsidiyalar islohotidan tejalgan mablag'lar	✓✓	2023-yildan boshlab hukumat uy xo'jaliklari va biznes uchun energiya tariflariga subsidiyalarni qisqartirishni boshladi. Bu fiskal maydon yaratish, davlat korxonalari uchun xarajatlarni qoplash va energiyadan samarali foydalanishni rag'batlantirishga qaratilgan edi. Keyingi bosqichda ko'rib chiqilayotgan chora-tadbirlar past navli (subsidiya qilinayotgan) benzinni bosqichma-bosqich bekor qilish va uglerodning aniq narxini o'z ichiga oladi. (Jahon bankining birinchi va ikkinchi inklyuziv va barqaror bozor iqtisodiyotini rivojlantirish siyosati operatsiyalari, P180470 & P501037)
Uglerod solig'i, ekologik yig'imlar	✓	Ifloslanish uchun to'lov tizimini yangilash. Prezidentning 2023-yil 31-maydagi 81-son qarori. Uglerod narxini belgilash muhokama qilinmoqda, biroq rasmiy qaror qabul qilinmadi.
Iqlim va ESG risklarini boshqarish bo'yicha bank qoidalari		O'zbekiston Markaziy banki iqlim o'zgarishi va ESG risklarini tartibga solish bo'yicha sa'y-harakatlarni o'z ichiga olgan Barqaror moliya strategiyasiga ega. Bu banklardan kredit risklarini boshqarish tizimiga iqlim risklari va barqarorlik masalalarini kiritishni talab qiladi. Strategiya 2023-yildan beri ishlab chiqilmoqda va 2024- yoki 2025-yillarda tegishli tartib-tamoyillar chiqarilishi bilan yakunlanishi kutilmoqda.
Yashil kreditlar/ sug'urta/ obligatsiyalar/ boshqa qimmatli qog'ozlarni tartibga solish	✓	Korporativ yashil obligatsiyalar uchun texnik standartlar qimmatli qog'ozlarni tartibga soluvchi ILMA tomonidan chiqarilgan. ILMA direktorining 2024-yil 14-iyundagi 51-sonli buyrug'i. Hukumat 2023-yildan beri suveren yashil obligatsiyalar tizimiga ega. Yashil ipoteka standartlashtirish va tartibga solish orqali targ'ib qilinadigan navbatdagi soha bo'lishi mumkin.
Yashil tashabbus dasturlari	✓	Davlat tomonidan moliyashtiriladigan qo'llab-quvvatlash dasturlari, masalan, davlat kafolatlari va DMllari tomonidan boshqariladigan foizli subsidiyalar mavjud, biroq ular hali yashil investitsiyalarni aniq maqsad qilib qo'ymaydi. Yashil kreditlar aktivlar guruhi sifatida hali tan olinmagan va maxsus davlat kafolatlarini ololmaydi.
Uglerod krediti savdosi tizimlari (Parij bozori)	✓✓	Hukumat energiya tariflarini qabul qildi va Parij bitimining 4- va 6-moddalariga muvofiq kreditlar berishni sinovdan o'tkazmoqda. Bunga xalqaro tranzaksiyalar uchun kreditni ro'yxatga olish va o'tkazish tizimini yaratish kiradi. Jahon banki tomonidan qo'llab-quvvatlanadi. (P180432 energiyaga o'tish loyihasi uchun innovatsion uglerod resurslari ilovasi)
Ko'ngilli kreditlarni sotish qoidalari		O'zbekistonning xalqaro ko'ngilli bozorlar bilan uglerod krediti operatsiyalari to'g'risidagi ma'lumotlar yetarli emas. Ko'ngilli kreditlarga bo'lgan talab noaniq va iqlimni moliyashtirish manbai sifatida ko'ngilli bozorlarda hukumatning aniq pozitsiyasi yaqin orada shakllangan bo'lmagligi mumkin. Xalqaro muvofiqlik bozori qoidalari kelishib olinmaguncha, ko'ngilli kreditlarning har qanday sotilishi uchun mamlakat NDC'ga tegishli tuzatishlar kiritish zarurati tug'ilishi xavfi mavjud.
Iqlim/yashil strategiyalarni belgilash	✓✓	2022-yilda hukumat yashil iqtisodiyot strategiyasi va chora-tadbirlarini e'lon qildi, unda yashil va iqlim o'zgarishi sektori maqsadlari va siyosat ustuvorliklari ko'zda tutilgan. Prezidentning 2022-yil 2-dekabrda 436-son qarori. Strategiya va ustuvor yo'nalishlar belgilab berilgan bo'lsa-da, tarmoq vazirliklari tomonidan rejalashtirish va byudjetlashtirishga o'tish uchun vaqt kerak bo'ldi. Bu sektor maqsadlarining byudjet taqsimotiga ta'sirini cheklaydi. Bu O'zbekiston iqlim o'zgarishini institutsional baholashda (Izvorski va boshq. 2019) va bo'lajak Iqlim bo'yicha davlat xarajatlari va moliyaviy javobgarlik (C-PEFA) baholashida qayd etilgan.
Yashil taksonomiya va standartlar	✓✓	Milliy yashil iqtisodiyot taksonomiyasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 25-oktabrdagi 561-son qarori bilan qabul qilingan. 2024-yilda korporativ yashil obligatsiyalar standarti chiqarildi. Samarali xalqaro hisobotlarni taqdim etish uchun issiqxona gazlarini inventarizatsiya qilish va hisobot berish tizimi mustahkamlandi. Ushbu tizim, shuningdek, milliy sektorga asoslangan IGni kamaytirish siyosatini shakllantirish va baholash haqida ma'lumot beradi. Agence Française de Développement (FTA), Jahon banki va boshqa rivojlanish hamkorlari tomonidan qo'llab-quvvatlanadi.

Siyosat yoki moliyalashtirish chorasi	Oldinga siljish	Izohlar
Uzoq muddatli iqtisodiy rejalar	✓	IMV o'zining fiskal monitoringini yaxshilash bo'yicha ish boshladi. Fiskal risk to'g'risidagi yangilangan bayonot endi iqlim o'zgarishining risk omillari sifatida qurg'oqchilik, issiq havo to'lqinlari, suv toshqini va toshqinlarning moliyaviy oqibatlarini va siyosat choralarning (NDC) moliyaviy ta'sirini tavsiflovchi iqlimga oid fiskal riskga bag'ishlangan bobni o'z ichiga olgan. Risklar bobining kiritilishi ijobiy o'zgarish, lekin faol risklarni boshqarish va uzoq muddatli rejalashtirishga ta'sir qilish uchun qo'shimcha qadamlar talab etiladi. 2050- yoki 2060-yillarda sof nol-uglerodga erishish bo'yicha uzoq muddatli strategiya 2024-yilda ishlab chiqildi va yil oxirigacha hukumat tomonidan rasman qabul qilinishi kutilmoqda. Bu kelajakdagi Milliy rivojlanish strategiyalari, NDC'lar va o'rta va uzoq muddatli istiqbolda sektorlar ish rejaları uchun qo'llanma bo'lib xizmat qilishi kutilmoqda. (Jahon bankining P177108 va P180449 maslahat loyihalari)
Iqlim va yashil byudjet tizimi hamda byudjet konverti	✓	C-PEFA byudjet jarayonining iqlim o'zgarishi bilan nisbatan past darajada mos kelishini aniqladi, masalan, byudjet bayonotida iqlim o'zgarishiga havola yo'q. 2023-yildan boshlab, IMV ba'zi sektor vazirliklari uchun iqlim xarajatlarini yorliqlashni sinovdan o'tkazdi va shu bilan birga dasturga asoslangan byudjetlashni kengroq joriy etishda davom etdi. (Vazirlar Mahkamasining "O'zbekiston Respublikasida Dasturiy byudjetlashtirish tizimini amalga oshirishda rivojlantirish dasturlarini ishlab chiqish, amalga oshirish va samaradorligini baholash tartibi to'g'risida"gi nizomni tasdiqlash haqida"gi qarori loyihasi.) Iqlim bo'yicha xarajatlar tahlili byudjetning 10–11 foizi (YalMning 2–3 foizi) iqlimga ijobiy ta'sir ko'rsatadigan tadbirlarga, asosan, qishloq xo'jaligi, transport va suv xo'jaligida moslashishga yo'naltirilganligini aniqladi. To'g'ridan-to'g'ri iqlimga salbiy ta'sir ko'rsatadigan xarajatlar aniqlanmadi. Vaholanki, 2019-yilgi davlat xarajatlari sharhida (Izvorski va boshq. 2019) qazib olinadigan yoqilg'iga asoslangan davlat korxonalarini uchun byudjetdan tashqari bilvosita subsidiyalar katta moliyaviy xarajatlarni tashkil etishi aniqlangan edi.
Davlat xaridlari siyosati	✓✓	2024-yilda iqlim o'zgarishiga oid ustuvor vazifalarni qo'llab-quvvatlash maqsadida "Davlat xaridlari to'g'risida"gi qonunga o'zgartirishlar kiritildi. Ushbu o'zgarishlarni amalga oshirish uchun keyingi bosqichda xaridlar bo'yicha ko'rsatmalar va standartlar kerak bo'ladi.
DMI, DKlar uchun yashil direktiva/mandat	✓	DMllarini "yashillashtirish" boshlandi. Prezidentning 2023-yil martida qabul qilingan va 2023-yil 18-avgustda o'zgartirish kiritilgan PQ-83-sonli qarori bilan hukumat yirik DKlari faoliyati samaradorligini oshirish, ESG tamoyillarini qabul qilish va obligatsiyalar bozorida yashil moliyalashtirish imkoniyatlaridan foydalanish maqsadida isloh qilish majburiyatini oldi. 2024-yilda Jahon bankining P501037 moliyalashtirish loyihasi doirasida Davlat tadbirkorlik jamg'armasi boshqaruvi yashil investitsiyalarni moliyaviy qo'llab-quvvatlash ulushini oshirish majburiyatini oldi, bu ulush 2026-yilga kelib 35 foizga yetishi kutilmoqda.
Milliy iqlim fondi	✓	Hukumat kam ta'minlangan jamoalarni qo'llab-quvvatlash va korxonalarini rivojlantirishga qaratilgan moliyaviy dasturlarga ega. Ushbu dasturlarni boshqarishda DMllardan foydalaniladi va bu borada yashil maqsadlarga moslashish belgilari tobora ko'proq ko'zga tashlanmoqda, masalan, tarmoqdan tashqarida qayta tiklanadigan energiya va chekka hududlardagi past daromadli jamoalarda iqlimga chidamlilik investitsiyalarini moliyalashtirish. Hukumat innovatsion grantlar sxemalari doirasida yashil texnologiya ustuvorligini e'lon qildi (Prezidentning 2022-yil 19-dekabrda PP-444-sonli qarori). Bu qadamlar 2024-yil yoki 2025-yil boshiga mo'ljallangan, yashil rag'batlarni markazlashtirilgan tarzda muvofiqlashtirish va tarqatish, DMI va boshqa manbalardan (masalan, GCF'dan) olingan mablag'larni yangi yashil fondni kapitalashtirish imkoniyati bilan muvofiqlashtirish bo'yicha rejalashtirilgan kattaroq ishlarning boshlanishi.
Kapital bozorlari: suveren yashil obligatsiyalar	✓✓	IMV suveren yashil obligatsiyalar tizimini ishga tushirdi va 2023-yildan beri ushbu doirada 2 ta suveren yashil obligatsiyalarni chiqardi.
Ko'p tomonlama taraqqiyot banki va ikki tomonlama kreditlar	✓✓	O'zbekiston ko'p tomonlama rivojlanish banklari va boshqa XMTlardan foydalanish imkoniyatiga ega.
Global jamg'armalardan foydalanish imkoniyati (masalan, GCF, Global Environment Facility va boshqalar)	✓✓	O'zbekiston allaqachon Global Environment Facility va GCF kabi xalqaro imtiyozli jamg'armalardan foydalanib kelmoqda. Mamlakat xalqaro iqlim fondlariga kirish tranzaksiya xarajatlarini kamaytirish uchun GCFda milliy akkreditatsiyadan o'tish niyatida.

2-ILOVA

O'zbekiston ipotekani qayta moliyalashtirish kompaniyasi (UzMRC)

vab-sayti: UzMRC.uz

Moliyaviy ta'sir: UzMRC uy-joy bozorida sezilarli moliyaviy ta'sirga ega va bu uni barqaror rivojlanish tashabbuslari borasida hal qiluvchi o'yinchiga aylantiradi.

Mijozlarni jalb qilish: Kompaniya qayta moliyalashtirish imkoniyatlarini qidirayotgan banklar, ko'chmas mulk quruvchilari va uy egalari bilan to'g'ridan-to'g'ri aloqada bo'lib, bu kompaniyaga ularni yashil amaliyotga o'rgatish va rag'batlantirish imkoniyatini taqdim etadi.

Risklarni boshqarish: Ipotekani qayta moliyalashtirish jarayonlariga yashil taksonomiya tamoyillarini integratsiyalash iqlim o'zgarishining ko'chmas mulkka ta'siri bilan bog'liq risklarni kamaytirishi mumkin.

Jam'armaning maqsadi

- Aholining arzon uy-joyga bo'lgan ehtiyojini qondirish uchun tijorat banklarini bozor tamoyillari asosida moliyaviy resurslar bilan ta'minlash
- Ichki va xalqaro kapital bozorlariga moliyaviy resurslarni, shu jumladan XMTlar va Rivojlanishga rasmiy yordam (ODA) mablag'larini jalb qilish, keyinchalik ularni ipoteka kreditlarini qayta moliyalashtirish uchun ishlatish.
- Qimmatli qog'ozlar, shu jumladan, ipoteka bilan ta'minlangan qimmatli qog'ozlarni chiqarish va ularni investorlar o'rtasida joylashtirish
- Ipoteka kreditlash tizimini takomillashtirishga ko'maklashish, ipoteka bozorini rivojlantirishning zamonaviy uslub va vositalarini joriy etish, ipotekani kreditlash va ipoteka bilan ta'minlangan qimmatli qog'ozlar bozorida likvidlikni oshirish va risklarni kamaytirish;
- Ipotekani kreditlash va qayta moliyalashtirish sohasida, shu jumladan, xorijiy ekspertlarni jalb qilish orqali uslubiy va normativ-huquqiy bazani ishlab chiqishda ishtirok etish.

Yuridik shakli: Aksiyadorlik jamiyati

Huquqiy baza:

Prezidentning 2019-yil 13-maydagi

[PF-5715-sonli farmoni](#)

[Yazirlar Mahkamasining 2019-yil](#)

[14-oktabrdagi VMQ-868-sonli qarori.](#)

Faoliyat muddati (agar mavjud bo'lsa, ta'sir muddati cheklanganligi qoidalari):

Kompaniya Davlat xizmatlari markazi tomonidan 2019-yil 4-noyabrda ro'yxatdan o'tkazilgan. 4 yildan ortiq faoliyat yuritib kelmoqda.⁵²

Kompaniya quyidagi hollarda tugatiladi:⁵³

- Aksiyadorlar umumiy yig'ilishining qarori bilan
- Sud tomonidan bankrot deb topilib, Markaziy bank tomonidan Ipoteka kreditlarini qayta moliyalashtirish tashkilotlari ro'yxatidan chiqarilganda

O'z-o'zini ta'minlash/to'ldirish manbalari

UzMRC o'zini-o'zi ta'minlaydi. Kompaniya XMTlar tomonidan doimiy ravishda qo'llab-quvvatlanadi. OTB kreditlari ushbu yordamning asosiy qismini tashkil qiladi.

Moliyaviy vositalar

Kreditlar, kreditlarni qayta moliyalashtirish, ipoteka bilan ta'minlangan qimmatli qog'ozlar

Ustav kapitali:

Dastlabki ustav kapitali 25 milliard so'mni tashkil etdi⁵⁴ va 2020-yil 10-iyunda IMV nomiga joylashtirilgan. Ustav kapitalini 2024-yil 1-iyungacha qadar 941 milliard so'mga oshirish belgilangan.⁵⁵

	Qiymati (milliard so'm)	Ulushi (%)		Qiymati (milliard so'm)	Ulushi (%)
Davaktiv	333,2	35,4	"Turonbank" ATB	36,6	3,9
"Ipoteka bank" ATB	31,6	3,4	"Orient Finance" ATB	26,0	2,8
BRB (Qishloq qurilish bank) ATB	62,1	6,6	"Hamkorbank" ATB	24,5	2,6
Milliy bank AJ	102,3	10,9	"Aloqabank" ATB (yangi aksiyador)	36	3,8
"O'zsanoatqurilishbank" ATB	30,6	3,3	"Mikrokreditbank" ATB (yangi aksiyador)	36	3,8
"Xalq bank" AJ	85,4	9,1	"Kapitalbank" ATB	1,3	0,1
Agrobank ATB	73,0	7,8	Invest finans banki ATB	1,3	0,1
"Asakabank" AK	61,0	6,5			

⁵² [Korxonalar, tashkilotlar va tovar belgilari bo'yicha ma'lumotlar bazalaridan olingan.](#)

⁵³ [Korporativ Ustavning 12.3-moddasi.](#)

⁵⁴ [Prezidentning 2019-yil 13-maydagi 5715-sonli qarori.](#)

⁵⁵ [Prezidentning 2023-yil 15-dekabrda 394-sonli qarori.](#)

Portfel ma'lumotlari:

- Qo'llab-quvvatlanadigan sektor: Ipoteka kreditini qayta moliyalashtirish
- UzMRCda hududiy afzallik yo'q

[Kredit portfeli \(2023-yil 3-chorak\)](#)⁵⁶

SQB OAJ	24,76%
"Ipoteka-bank" ATB	15,70%
BRB (Qishloq qurilish bank) ATB	8,2%
Milliy bank AJ	3,28%
"Xalq bank" AJ	1,08%
Agrobank ATB	5,43%
"Asakabank" AJ	11,12%
"Turonbank" ATB	7,91%
"Hamkorbank" ATB	22,53%

UzMRC tomonidan qayta moliyalashtirilgan ipoteka kreditlari⁵⁷ (trillion so'm)

Ko'rsatkich	2020-yil	2021-yil	2022-yil	2023-yilning 9 oyi
Jami ipotekalar	9,1	9,8	14,4	12,2
UzMRC tomonidan moliyalashtiriladigan ipotekalar	0,06	2,0	0,2	1,3

Faoliyat ko'rsatkichlari

[2024-yil 31-yanvar holatiga oylik hisobotdan parchalar](#)

No.	Ko'rsatkich	Standart qiymat (%)	Haqiqiy qiymat (%)	Natija
1.	Kapitalning yetarlilik ko'rsatkichlari			
1.1	Kapitalning yetarlilik koeffitsienti	10 <	43,05	Ijobiy
1.2	Leveraj	3 <	4,59	Ijobiy
2.	Likvidlik koeffitsienti			
2.1	Likvidlikni qoplash koeffitsienti	100 <	1523,75	Ijobiy
2.2	Sof barqaror moliyalashtirish stavkasi	100 <	105,47	Ijobiy
3.	Qarz oluvchi uchun risk darajasi			
3.1	Qarz oluvchi yoki tegishli qarz oluvchilar guruhi uchun maksimal risk darajasi	30 >	19,07	Ijobiy

Mulkdorlik kengashi a'zolarini tayinlash/saylash

Jamiyat Kuzatuv kengashi a'zolari aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi tomonidan uch yil muddatga saylanadi. Kuzatuv kengashi a'zolari kumulyativ ovoz berish yo'li bilan saylanadi.

Jamiyat Kuzatuv kengashi a'zolari 7 kishidan, shu jumladan, raisdan iborat. Mustaqil a'zolar soni 3 kishi.

Kuzatuv kengashi raisi kengash a'zolari tomonidan kengash a'zolari orasidan ko'pchilik ovoz bilan saylanadi.⁵⁸

Boshqaruv jamoasi a'zolarini tayinlash/saylash

Bosh direktor aksiyadorlar umumiy yig'ilishi va Kuzatuv kengashi qarorlarining bajarilishini tashkil qiladi va ular oldida javobgardir.

Bosh direktor Kuzatuv kengashi tomonidan uch yil muddatga tayinlanadi. Bosh direktor bilan mehnat shartnomasi kompaniya nomidan Kuzatuv kengashi raisi tomonidan imzolanadi. Har yili shartnomani uzaytirish yoki uni bekor qilish imkoniyati to'g'risida qaror qabul qilinadi.

Kompaniyaning bosh direktorini tayinlash to'g'risidagi qaror tanlov asosida qabul qilinadi, unda xorijiy nomzodlar ham ishtirok etishi mumkin.⁵⁹

⁵⁶ <https://uzmrc.uz/en/refinance-programm/analytical-data/>.

⁵⁷ <https://uzmrc.uz/en/refinance-programm/analytical-data/>.

⁵⁸ Korporativ Ustavning 9-moddasi.

⁵⁹ Korporativ Ustavning 10-moddasi.

O'zbekiston to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalar jamg'armasi (UzDIF)

vab-sayt: udif.uz

Strategik investitsiyalar: UzDIF vakolatiga iqtisodiyotning asosiy tarmoqlariga strategik investitsiyalar kiritish kiradi. Investitsiya qarorlariga NGETni integratsiya qilgani holda, jamg'arma yangi yashil sanoat sohalari sari diversifikatsiya qilish va yashil innovatsiyalarni rivojlantirishda muhim rol o'ynashi mumkin.

Xususiy sektorga ta'siri: Yirik loyihalarga sarmoya kiritar ekan, jamg'armaning NGETni qabul qilishi xususiy sektor kompaniyalarining o'z faoliyatini barqaror amaliyotga moslashtirishiga ta'sir ko'rsatishi va butun iqtisodiyotda to'liqni effekt yaratishi mumkin.

Namoyish effekti: UzDIFning to'g'ridan-to'g'ri investor sifatidagi tajribasi hukumatning yashil rivojlanish va boshqa investorlarni jalb etishga intilishining kuchli isboti bo'lishi mumkin.

FDI ta'siri: Jamg'arma investitsiya qarorlarini qabul qilishda ESG omillarini birinchi o'ringa qo'yadigan xorijiy investorlarni jalb qilish orqali xalqaro miqyosda o'z mavqeyini oshirishi mumkin. Bu yashil texnologiyani import qilish va uzatishni ham osonlashtiradi.

Yuridik shakli:

Jamg'arma: Mas'uliyati cheklangan jamiyat

Boshqaruvchi kompaniya: 2019 yildan aksiyadorlik jamiyati, 2022 yil dekabrda MChJ

Huquqiy baza:

- [Prezidentning 2019-yil 17-yanvardagi PF-5635-sonli farmoni](#)
- [Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 18-maydagi 420-sonli qarori](#)
- [Prezidentning 2022-yil 7-sentabrdagi PF-215-sonli farmoni](#)

Jamg'armaning maqsadi

- Ishlab chiqarish salohiyatini kengaytirish va mamlakat iqtisodiyotining raqobatbardoshligini oshirish uchun to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar va innovatsion texnologiyalarni jalb qilish
- Xususiy mahalliy va xorijiy investorlar bilan uzoq muddatli hamkorlik aloqalarini o'rnatish orqali investitsiya faoliyatini rag'batlantirish va rivojlantirish
- Investitsion takliflarni baholash va investitsiya loyihalarini ishlab chiqish va amalga oshirish
- Mamlakatning investitsiya muhiti, xorijda investitsion salohiyati va imkoniyatlarini takomillashtirishga ko'maklashish
- Birlashgan Arab Amirliklarining investitsiya va moliya institutlari hamda kompaniyalari bilan investitsiyaviy hamkorlikni rivojlantirish, ular bilan investitsiyaviy hamkorlikni muvofiqlashtirish, qo'shma investitsiya loyihalarini amalga oshirishda hamrohlik qilish va ko'maklashish.
- O'zbekiston iqtisodiyotiga to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalarning kirib kelishini ta'minlash maqsadida xalqaro investorlar bilan hamkorlikni rivojlantirishga e'tibor qaratgan holda istiqbolli investitsiya loyihalarida ham investor sifatida ishtirok etish

Jamg'arma loyiha qiymatining 49 foizigacha va har bir loyiha uchun 20 million AQSh dollarigacha sarmoya kiritadi. Bu chegara O'zbekiston Prezidentining roziligi bilan oshirilishi mumkin

Faoliyat muddati (agar mavjud bo'lsa, ta'sir muddati cheklanganligi qoidalari): Jamg'arma (2019-yildan boshlab) 15 yil davomida faoliyat yuritishi, ayni paytda, boshqaruv kompaniyasining faoliyati natijalaridan kelib chiqib, jamg'arma ta'sisчисining qarori bilan faoliyat muddatini uzaytirish imkoniyati ko'zda tutilgan.

Boshlang'ich kapitali:

100 million AQSh dollari

Ma'qullangan loyihalarni moliyalashtirish: Bugungi kunga qadar moliyalashtirilgan loyihalar bo'yicha ma'lumotlar e'lon qilinmagan.

To'ldirish manbalari: O'z-o'zini ta'minlash. UzDIF UFRD tomonidan qo'llab-quvvatlanadi va XMT mablag'lari uchun ochiq.

Faoliyat ko'rsatgan davri: 2019-yildan hozirgi kungacha

Moliyaviy vositalar: ssudalar, kapital, qimmatli qog'ozlarning boshqa turlari

Portfel haqida ma'lumot: Jamg'arma portfeli to'g'risida omma uchun ochiq ma'lumot mavjud emas

Faoliyat ko'rsatkichlari: Omma uchun ochiq ma'lumot yo'q

Mulkdorlik kengashi a'zolarini tayinlash/saylash

Boshqaruv kompaniyasining yagona aksiyadori O'zbekiston Respublikasi Tiklanish va Taraqqiyot Jamg'armasi hisoblanadi.

UzDIF va boshqaruvchi kompaniya faoliyatini muvofiqlashtirish O'zbekiston Respublikasi Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi tomonidan amalga oshiriladi.

Investitsiyalar, sanoat va savdo vaziri boshqaruv kompaniyasi Kuzatuv kengashining raisi hisoblanadi.

Boshqaruv jamoasi a'zolarini tayinlash/saylash

Jamg'arma ishonchli boshqaruv shartnomasi asosida boshqaruvchi kompaniya tomonidan boshqariladi.

Boshqaruv kompaniyasi jamg'armaning ishonchli vakili sifatida faoliyat olib boradi.

Boshqaruv kompaniyasining bosh direktori boshqaruv kompaniyasining kuzatuv kengashi tomonidan lavozimga tayinlanadi va lavozimidan ozod qilinadi.

“Tadbirkorlikni rivojlantirish kompaniyasi”

(sobiq Tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlash davlat jamg'armasi)

vab-sayti: statefund.uz

Muvofiqlik va potensial ta'siri

Tadbirkorlikka e'tibor: Tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlashga qaratilgan mandati bilan TRK yashil amaliyotlarni samarali targ'ib qilish uchun noyob kuchga ega.

IMVga mansubligi: IMV O'zbekistondagi yashil rivojlanishning asosiy ishtirokchilaridan biri hamda jamg'arma asoschisi hisoblanadi. IMV NGETni samarali amalga oshirish uchun kompaniyaga zarur yordam va resurslarni taqdim etishi mumkin.

Siyosat uyg'unligi: TRK missiyasi iqtisodiy o'sish va barqarorlikni rag'batlantirishga qaratilgan kengroq hukumat siyosatiga muvofiq ish yuritadi va uni yashil tashabbuslarni qo'llab-quvvatlash uchun juda mos keladi.

Tarmoq va targ'ibot: Tadbirkorlar, biznes uyushmalari va sanoatdagi manfaatdor tomonlarining keng tarmog'iga ega bo'lib, bu yashil xabardorlikni oshirish va NGETni qabul qilish uchun ajoyib platformani ta'minlay oladi.

Salohiyatni oshirish: Jamg'armaning salohiyatni oshirish loyihalaridan tadbirkorlarga barqaror biznes amaliyotlarining afzalliklari haqida ma'lumot berish maqsadida foydalanilishi mumkin.

Majburiyatning namoyon bo'lishi: TRK boshqa qo'llab-quvvatlovchi tashkilotlar va korxonalar uchun ijobiy o'rnak ko'rsatib, ekologik mas'uliyatli tadbirkorlikni rag'batlantirishga sodiqligini namoyish qilishi mumkin. U 2024-yilda yashil strategiyani qabul qildi va unga ko'ra, 2026-yilga borib yashil moliyalashtirishning ulushini 35 foizga yetkazish niyatida.

Maqsadlari: Jamg'arma qayta tashkil etildi. Yangi AJ 2024-yil 1-martdan boshlab faoliyat ko'rsatmoqda. Uning maqsadlari quyidagilardan iborat:

- KO'K subyektlarining talab va ehtiyojlaridan kelib chiqib, KO'K subyektlarini har tomonlama qo'llab-quvvatlashga qaratilgan qo'shimcha qo'llab-quvvatlash vositalarini joriy etish, tadbirkorlarni qo'llab-quvvatlash choralarini qo'llash salohiyatini oshirish.
- Ichki va xalqaro kapital bozorlarida moliyaviy resurslar, shu jumladan, XMT va ODA mablag'larini jalb qilish
- KO'Kni rivojlantirish orqali ish o'rinlarini yaratish imkonini beruvchi davlat, tarmoq va hududiy dasturlar, loyihalar va tadbirlarni amalga oshirishda ishtirok etish.
- KO'Kning innovatsion faoliyatini qo'llab-quvvatlash, yangi turdagi mahsulotlarni yaratish va ishlab chiqarishni rag'batlantirish, ishlab chiqarish faoliyatiga samarali yangi texnologiyalarni joriy etish.
- Yakka tartibdagi tadbirkorlarning loyihalarini faoliyat (ishlar, xizmatlar) turlaridan kelib chiqib moliyaviy qo'llab-quvvatlash.
- Xizmat ko'rsatish va ishlab chiqarish sohalarida yashil va energiya tejavchi texnologiyalar hamda qayta tiklanadigan energiya manbalarini joriy etishni keng qo'llab-quvvatlash.

TRK yangi yashil maqsadlarni o'z ichiga olgan yangi strategiyaga ega bo'lib, usbu strategiya, jumladan, KO'K subyektlari tomonidan yashil iqtisodiyot loyihalarini qo'llab-quvvatlash uchun XFTlardan 100 million AQSh dollari miqdorida mablag' ajratish, NGETga mos keladigan maxsus mexanizmlar va moliyaviy mahsulotlarni joriy etishni o'z ichiga oladi. Kompaniya 2024-yilda tashkiliy qo'llab-quvvatlash strategiyasini amalga oshirishni rejalashtirmoqda, asosiy e'tiborni o'qitish, yashil loyihalarni belgilash va yashil investitsiyalarni oshirish uchun tartiblarni rasmiylashtirishga qaratadi. Shaffoflikni ta'minlash uchun u o'zining yashil tashabbuslari va ularning natijalari va ta'siri haqida jamoatchilikni muntazam ravishda xabardor qilib boradi.

Yuridik shakli:

Hozirda aksiyadorlik jamiyati. Huquqiy asos: [Prezidentning 2023-yil 10-noyabrdagi PF-193-sonli farmoni](#)

Sobiq jamg'armaning huquqiy asoslari: [Prezidentning 2017-yil 17-avgustdagi PQ-3225-sonli qarori](#).

Sobiq jamg'armani shakllantirishdagi boshlang'ich kapital:

- 50 million AQSh dollari – UFRD
- 100 mlrd so'm – O'zbekiston Respublikasi Xususiylashtirilgan korxonalariga ko'maklashish va raqobatni rivojlantirish davlat qo'mitasi, Savdo-sanoat palatasi, O'zbekiston banklari uyushmasi, 19 ta tijorat banklari.

Kompaniya tashkil etilganda: 300 mlrd so'm (IMV – 100%).

Tasdiqlangan loyihalarni moliyalashtirish

2022-yilning 3-choragidagi Axborot: 2022-yilning 9 oyi davomida sobiq jamg'arma tomonidan 4010 ta tadbirkorning 4342 ta loyihasi ajratilgan 7319 mlrd so'm kredit bo'yicha 1496 mlrd so'm moliyaviy ko'mak ko'rsatildi.

Jumladan, 2920 ta tadbirkorning 3171 ta loyihasi jami 4740 mlrd so'mlik kreditlar bo'yicha foizlarni qoplash bo'yicha 490 milliard so'm ajratildi, 1090 ta tadbirkorning 1171 ta loyihasi ajratilgan jami 2579 mlrd so'mlik kreditlari bo'yicha 1005 mlrd so'm kredit kafolatlari berildi, 2017–2022-yil 3-choragi davomida moliyalashtirish majburiyatlari 16 215 milliard so'mni tashkil etdi (foizlarni subsidiyalash 6 072 mlrd so'm, kredit kafolati 10 144 mlrd so'm).

	Qishloq xo'jaligi	Sanoat	Xizmatlar	Boshqa sektorlar
Foiz subsidiyasi	165	69	195	62
Kafolat	395	385	176	51
Jami	560	454	371	113

2018–2023-yillarga mo'ljallangan moliyalashtirish

No.	Moliyaviy oluvchi	Miqdori (mlrd so'm)	Moliyalashtirish turi	Tasdiqlangan sana
1	Kichik korxonalar	10,300	Kredit kafolatlari	01.01.2018-31.12.2023
2		6,651	Foizlar bo'yicha subsidiyalarni qaytarish	01.01.2018-31.12.2023

Daromadlarni shakllantirish/to'ldirish manbalari: Mablag'lar kafillik bo'yicha bir martalik komissiyalar, tijorat banklarida omonatlarni joylashtirishdan olingan foiz daromadlari, aktivlar va chet el valyutasini qayta baholashdan hamda kompensatsiya xarajatlari uchun byudjet mablag'laridan kelib chiqadi.

Faoliyat ko'rsatgan davri
Sobiq jamg'arma: 2017–2023
Yangi AJ: 2024-yil martidan hozirgacha

Portfel ma'lumotlari: Butun mamlakat bo'ylab barcha sohalaridagi KO-K subyektlari va yakka tartibdagi tadbirkorlar bilan ishlaydi.

Moliyaviy vositalar: kredit, ssuda kafolati, kompensatsiya asosida foizlarni subsidiyalash

Faoliyat ko'rsatkichlari:

To'lov qobiliyati koeffitsienti: 1,01

Leveraj: 18,1% (698,1 mlrd so'm)

Qoplash koeffitsienti (Ijtimoiy ta'sir):

O'zbekistonda ro'yxatga olingan kichik biznes subyektlari umumiy sonining 8%.

Mulkchilik kengashi a'zolarini tayinlash/saylash: Jamiyat Kuzatuv kengashi a'zolari aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi tomonidan uch yil muddatga saylanadi. Kuzatuv kengashi raisi kengash a'zolari tomonidan kengash a'zolari orasidan ko'pchilik ovoz bilan saylanadi.

Boshqaruv jamoasi a'zolarini tayinlash/saylash: Kompaniya direktori chet ellik menejerlar uchun ochiq bo'lgan tanlov asosida Kuzatuv kengashi tomonidan tayinlanadi.⁶⁰

⁶⁰ [Korporativ Ustavning](#) 8-moddasi.

Qishloq xo'jaligini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash jamg'armasi (FSSA)

Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi moliyalashtirish dasturi
veb-sayti: agrofin.uz

Sektorga talluqliligi: Qishloq xo'jaligini qo'llab-quvvatlashga yo'naltirilgan jamg'arma sifatida FSSA butun qishloq xo'jaligi qiymat zanjiridagi iqtisodiy faoliyat bilan bevosita bog'liq. FSSA faoliyatiga NGETni joriy etish qishloq xo'jaligi sektorining yashil maqsadlarga qo'shayotgan hisssasi va uning yashil amaliyotini kuchaytirish potensialini ochib beradi. YalMning qariyb 25 foizini etgani va ishchi kuchining taxminan shuncha qismini ish bilan ta'minlagani holda qishloq xo'jaligi iqtisodiyotga sezilarli hissa qo'shmoqda.

Manfaatdor tomonlarning ishtiroki: FSSA qishloq xo'jaligi sohasidagi turli manfaatdor tomonlar, jumladan, fermerlar, qishloq xo'jaligi korxonalar va uyushmalar bilan o'zaro hamkorlik qiladi. Bu manfaatdor tomonlarni barqaror amaliyotlar va ularning afzalliklariga jalb qilish imkoniyatini beradi.

Atrof-muhitga ta'siri: Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarish sohasi sifatida sog'lom ekotizimga bog'liq, biroq yerdan foydalanish, suv resurslari va issiqxona gazlari emissiyasini yomon boshqarish mavjud bo'lsa, atrof-muhitga sezilarli ta'sir ko'rsatishi mumkin. FSSA o'z portfelin taqqoslash, yashil moliyalashtirish ulushini oshirish va qishloq xo'jaligiga asoslangan boshqa kreditorlar yoki korxonalar uchun standart o'rnatish uchun NGETni qo'llash orqali ushbu ta'sirlarni yumshatishga hissa qo'shishi mumkin.

Yuridik shakl:

Jamg'arma IMV qoshida faoliyat yuritadi. Mustaqil yuridik shaxs hisoblanmaydi. Huquqiy baza:

- Prezidentning 2017-yil 27-iyundagi PF-5095-sonli farmoni
- Prezidentning 2021-yil 26-fevraldagi PF-6179-sonli farmoni
- Prezidentning 2023-yil 19-iyundagi PF-98-sonli farmoni

Dasturning maqsadi

Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini barqaror rivojlantirish, qishloq xo'jaligi ekinlari hosildorligini oshirish, davlat xaridi uchun qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirishning samarali tizimini shakllantirish, qishloq xo'jaligi korxonalarini zamonaviy yuqori unumli texnikalar bilan ta'minlashni tubdan yaxshilash.

Jamg'armaning asosiy vazifalari:

- Paxta xomashyosini xarid qilish bo'yicha yakuniy hisob-kitob qilish uchun milliy valyutada ajratilgan tijorat kreditlari bo'yicha foiz stavkalarining bir qismini qoplash
- Meva, uzum, sabzavot, kartoshka, don-dukakli ekinlar, gullar, ko'katlar, dorivor o'simliklar, makkajo'xori donlari, dukkaklilar va moyli ekinlarni yetishtirish xarajatlarini moliyalashtirish
- Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini xarid qilish uchun kreditlar ajratish uchun tijorat banklarida mablag'larni joylashtirish
- Ichki bozorda don va non mahsulotlari narxlarining barqarorligini ta'minlash, zarur miqdorda bug'doyni bozor narxlarida xarid qilish va tovar birjasiga joylashtirish
- fermer xo'jaliklari va boshqa qishloq xo'jaligi tashkilotlarini zamonaviy, yuqori samarali qishloq xo'jaligi texnikalari bilan ta'minlashda davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanishini ta'minlash
- Qishloq xo'jaligini moliyalashtirish va hisob-kitob tizimiga zamonaviy AKTni joriy etish
- Rivojlangan mamlakatlarning qishloq xo'jaligini moliyalashtirish tajribasini o'rganish va O'zbekistonda joriy etish.

O'z-o'zini ta'minlash/to'ldirish manbalari:

muntazam ravishda to'ldiriladi.

Quyidagilar jamg'armaning asosiy moliyaviy manbalari hisoblanadi:

- Kreditlarni to'lashdan tushgan mablag'lar va hisoblangan foizlar
- Bug'doyni sotib olish va sotish narxlar o'rtasidagi ijobiy farq
- Xorijiy kreditlar kursining o'zgarishi natijasida yuzaga kelgan zararlarni qoplash uchun respublika byudjetidan ajratiladigan mablag'lar
- Jalb qilingan kreditlar, shu jumladan, xorijiy kreditlar va investitsiyalar, XMTlarning grantlari va donor tashkilotlarning mablag'lari
- O'z mablag'larini tijorat banklariga joylashtirishdan olingan daromadlar
- Qishloq xo'jaligi texnikasini lizing yoki kredit asosida sotib olishda foizlarni to'lash uchun respublika byudjetidan ajratiladigan mablag'lar, shuningdek, qishloq xo'jaligi texnikasini sotib olish uchun subsidiyalar va xorijga xizmat ko'rsatish uchun kombaynlarni tashish uchun transport xarajatlari;
- Moliyaviy taqchillikni bartaraf etish uchun jalb qilingan mablag'lar, shu jumladan, byudjet ssudalari va qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirish xarajatlarini moliyalashtirish uchun tijorat banklariga joylashtirilgan mablag'lar foiz stavkalari o'rtasidagi salbiy farqni qoplash uchun respublika byudjetidan ajratiladigan mablag'lar;
- Davlat byudjeti tizimidan jalb qilingan mablag'lar
- Qonun hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa manbalar.

Qishloq xo'jaligini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash bilan bog'liq xarajatlarni moliyalashtirish uchun 2023-yilda UFRD'dan IMVga 12 oy muddatga 250 million AQSh dollari miqdorida foizsiz mablag' ajratildi.

2024-yilda g'alla, paxta, meva, sabzavot yetishtirish va qishloq xo'jaligi texnikasini ishlab chiqarish uchun ajratilgan mablag'lar (million so'm)

Ko'rsatkichlar	2024-yil uchun reja	Ajratilgan mablag'lar	Qolgan mablag'lar
Qishloq xo'jaligi texnikasi uchun jami subsidiyalar, 1-iyun holatiga	110,000	66,492	43 508
Kredit yoki lizing bo'yicha foizlarning 10% dan ortiq qismini qoplash uchun	66,000	34,611	31,389
Mahalliy qishloq xo'jaligi texnikasi narxining 15 foizini qoplash	44,000	31,881	12,119
May oyi holatiga don yetishtirish uchun imtiyozli kreditlar	4,985,323	4,289,058	200,298
May oyi holatiga paxta yetishtirish uchun imtiyozli kreditlar	10,184,513	4,509,700	5,674,813
May oyi holatiga meva-sabzavot yetishtirish uchun imtiyozli kreditlar	800,000	26,860	773,140

2023-yilda g'alla, paxta, meva-sabzavot yetishtirish, qishloq xo'jaligi texnikasini ishlab chiqarish uchun ajratilgan mablag'lar (million so'm)

Ko'rsatkichlar	2024-yil uchun reja	Ajratilgan mablag'lar	Qolgan mablag'lar
Lizing kompaniyalariga ajratilgan mablag'lar	117,500	101,672.0	15,828
Qishloq xo'jaligi texnikasi uchun subsidiyalar	100,000	99,899.4	100.6
Kredit yoki lizing bo'yicha foizlarning 10% dan ortiq qismini qoplash uchun	34,200	34,199.5	0.5
Mahalliy qishloq xo'jaligi texnikasi narxining 15 foizini qoplash	65,800	65,699.9	100.1
May oyi holatiga don yetishtirish uchun imtiyozli kreditlar	5,534,198	4,770,117	764,081
May oyi holatiga paxta yetishtirish uchun imtiyozli kreditlar	10,181 719	3,694,955	6,486,765
May oyi holatiga meva-sabzavot yetishtirish uchun imtiyozli kreditlar	700,000	n.a.	n.a.

Faoliyat ko'rsatgan davri: 2017-yildan hozirgi kungacha

Moliyaviy vositalar: Kreditlar, qishloq xo'jaligi xarajatlarini qoplash

Faoliyat ko'rsatkichlari: Omma uchun ochiq ma'lumot yo'q

Mulkchilik kengashi a'zolarini tayinlash/saylash: Prezident farmoni bilan tayinlanadi. Iqtisodiyot va moliya vaziri hay'at raisi hisoblanadi.

Boshqaruv guruhi a'zolarini tayinlash/saylash: IMV tomonidan Agrar islohotlarni moliyaviy qo'llab-quvvatlash bo'limi hamda Oziq-ovqat xavfsizligi va qishloq xo'jaligi rivojlanishini tahlil qilish va prognozlash bo'limi orqali boshqariladi.

“O`zkimyosanoat” (O`zbekiston kimyo sanoati) AJ

Yuridik shakl: Aksiyadorlik jamiyati. Aksiyadorlari: IMV: 42,91%; UFRD: 57,09%

[Vazirlar Mahkamasining 2001-yil 13-martdagi VMQ-124-sonli qarori](#) bilan tashkil etilgan.

Sektorga talluqliligi: Kimyo sanoatining yetakchi o'yinchisi sifatida “O`zkimyosanoat” ekologik barqarorlikka sezilarli ta'sir ko'rsatadi va boshqa kompaniyalar uchun ijobiy o'rnak bo'la oladi, chunki jamiyatning barqaror kimyo sanoatiga nisbatan kutilmalari ortib bormoqda.

Atrof-muhitga ta'siri: Kimyo sanoati o'zining ekologik izi, jumladan, ifloslanish, chiqindilarni boshqarish va resurslarni iste'mol qilish bilan bog'liq muammolari bilan tanilgan.

Innovatsion salohiyat: Kompaniya kapital va texnologiyalardan foydalanish imkoniyatiga hamda yashil texnologiyalar va jarayonlarda innovatsiyalarni rivojlantirish salohiyatiga ega. NGETni qo'llash umumiy “yashillashtirish” strategiyasining bir jihati bo'lishi mumkin, bu resurslar samaradorligini oshiradi, atrof-muhitga ta'sirni kamaytiradi va yangi yashil/iqlimga mos mahsulot qatorini joriy qiladi.

Yashil profil

“O`zkimyosanoat” AJ o'zining ESG tamoyillariga sodiqligini rasman e'lon qildi va 2050-yilga kelib issiqxona gazlari emissiyasini 90 foizga kamaytirishga va'da berdi.

Dearbonizatsiya siyosati doirasida emissiyalarni nolga tenglashtirishni maqsad qilgan kompaniya quyidagilarni rejalashtirmoqda

- 2030-yilga kelib 1- va 2-banddagi chiqindilarni 2022-yilga nisbatan 42 foizga qisqartirish;
- 2050-yilga kelib 1-chi, 2-chi va 3-chi band chiqindilarni 2022-yilga nisbatan 90 foizga qisqartirish va qolgan 10 foizni zararsizlantirish; va
- 2025-yilga kelib 3-band emissiyasini kamaytirish maqsadini belgilab, 3-band emissiyasi miqdorini baholash ustida ish olib borish.

Emissiyalarni kamaytirish maqsadlariga erishish uchun kompaniya emissiyalarni kamaytirish bo'yicha quyidagi beshta chora-tadbirlarning amalga oshirilishini baholaydi:

- Qayta ishlash (masalan, plastmassani qayta ishlashni rivojlantirish orqali)
- Mavjud texnologiyalarga qo'llaniladigan energiya samaradorligi va atrof-muhit ta'sirini yumshatish choralari (masalan, N2O chiqindilarini kamaytirish bo'yicha loyihalarni amalga oshirish orqali)
- Sotib olingan issiqlik va elektr energiyasini chuqur dekarbonizatsiya qilish (masalan, qayta tiklanadigan manbalardan energiya sotib olish orqali)
- Kam uglerodli ammiak ishlab chiqarish uchun innovatsion texnologiyalar (masalan, yashil vodorod yordamida)
- 3-band emissiyasini bartaraf etish uchun manfaatdor tomonlar bilan faol hamkorlik qilish (masalan, yaxshilangan o'g'itlarni ishlab chiqish, dalalarda emissiyalarni kamaytirish uchun ingibitorlarni qo'llash, ozuqaviy moddalar tarkibini optimallashtirish uchun fermerlar/qishloq xo'jaligi sektori bilan ishlash va emissiyalarni kamaytirish bo'yicha ilg'or qishloq xo'jaligi amaliyotlari bo'yicha maslahat berish).

Maqsadlarga erishganligini tekshirish uchun ochiq ma'lumot yo'q.

DK maqsadi

- Kimyo sanoatida yagona texnik siyosatni olib borish, ishlab chiqarishni diversifikatsiya qilish, mineral-xom ashyo resurslarini qayta ishlashni chuqurlashtirish, innovatsion texnologiyalarni joriy etish.
- Kimyo korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar tannarxini tubdan pasaytirish
- Mahalliy mahsulotlarni yangi tashqi bozorlarga olib chiqish
- Kimyo ishlab chiqarishni mahalliyashtirish darajasini chuqurlashtirish va tarmoqlararo sanoat kooperatsiyasini kengaytirish
- Qishloq xo'jaligi ishlab chiqaruvchilarini azot, fosfor, kaliy va murakkab o'g'itlar bilan barqaror ta'minlash
- Faol investitsiya siyosatini olib borish va sanoatga to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalarni jalb qilish
- Bo'ysunuvchi kompaniyalar faoliyati samaradorligini oshirishga ko'maklashish
- Ilmiy tadqiqotlarni qo'llab-quvvatlash va rag'batlantirish, muhandis-texnik va boshqaruv xodimlarining malakasini oshirish va qayta tayyorlash.

Ustav kapitali: 3 352 mlrd so'm

Tasdiqlangan loyihalarni moliyallashtirish

2022-2026-yillarda:

- Umumiy qiymati 1 829,4 million AQSH dollariga baholangan 14 ta loyiha amalga oshirilmoqda
- Umumiy qiymati 8 816,0 million AQSH dollariga baholangan 30 ta istiqbolli loyiha

Faoliyat ko'rsatgan davri: 2001-yildan hozirgi kungacha

2019-2024 yillarda:

- Umumiy qiymati 12,1 mlrd AQSH dollariga baholangan 31 ta loyiha

Portfel ma'lumotlari: "O'zkimyosanoat" aksiyadorlik jamiyati kimyo sanoati sohasida faoliyat yuritadi va alohida hududiy afzalliklarga ega emas. Kompaniya o'zining sho'ba korxonalarini faoliyatiga asoslanib, ma'lum hududlarda faol ishlaydi.

Ishlash ko'rsatkichlari

KPI	2020	2022
Aktivlar rentabelligi (ROA):	0,02	0,159
Mutlaq likvidlik koeffitsienti (ALR):	4,23	0,05
Moliyaviy mustaqillik (FI) koeffitsienti:	341,56	5,66
Sof foyda (milliard so'm):	436,4	433,9
Eksport hajmi (million AQSH dollari):	188,9	481,9
Sanoat ishlab chiqarishining o'sish sur'ati (%):	108,2	104,3
Xarajatlarning rentabelligi (soliqlar oldidan moliyaviy natijaning sotilgan mahsulot tannarxiga nisbati), %:	11,2	21,5

Mulkdorlik kengashini tayinlash/saylash

Jamiyat Kuzatuv kengashi a'zolari aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi tomonidan uch yil muddatga saylanadi.

Jamiyat Kuzatuv kengashi 7 nafar a'zodan iborat bo'lib, ulardan 3 nafari mustaqil a'zo hisoblanadi.

Kuzatuv kengashi raisi kengash a'zolari tomonidan kengash a'zolari orasidan ko'pchilik ovoz bilan saylanadi.

Boshqaruv guruhini tayinlash/saylash

Ijroiya kengashi raisi va a'zolari aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi tomonidan uch yil muddatga tayinlanadi.⁶¹

⁶¹ [Korxonaning ustavining](#) 8-moddasi.

“Issiqlik elektr stansiyalari” AJ (Issiqlik elektr stansiyalari)

vab-sayt: tpp.uz

Sanoatga ta'siri: Issiqlik elektr stansiyalari qazib olinadigan yoqilg'iga bog'liqligi va shuning uchun yashil texnologiyani joriy etish va barqaror amaliyotlarni amalga oshirish uchun katta salohiyatga ega bo'lganligi sababli atrof-muhitga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Issiqlik elektr stansiyalari faoliyatida NGET'ni joriy qilish chiqindilarni kamaytirish, energiya samaradorligini oshirish va toza energiya manbalariga o'tishga yordam beradi.

Resurslarni taqsimlash: Kompaniya yashil texnologiyalar va tashabbuslarga sarmoya kiritish imkoniyatiga ega. NGET'ni amalga oshirish resurslarni ekologik jihatdan barqaror loyihalarga taqsimlashga yo'naltirishi mumkin.

Innovatsion imkoniyatlar: NGET'ni issiqlik elektr stansiyalarida tatbiq etish toza energiya texnologiyalari, uglerodni ushlab va saqlash hamda emissiyalarni kamaytirish strategiyalarida innovatsiyalarni rivojlantirishi mumkin.

Davlat korxonasi maqsadi: Issiqlik elektr stansiyalari hmada elektr va issiqlik energiyasini ishlab chiqaruvchi energetika markazlarini boshqarish

Yuridik shakli: Aksiyadorlik jamiyati

Aksiyadorlar: IMV – 100%⁶²

Boshlang'ich kapitali: Ustav kapitali 13310,5 mlrd so'm

Faoliyat ko'rsatgan davri: 2019-yildan hozirgi kungacha

Tasdiqlangan loyihalarni moliyalashtirish:

2017–2020-yillar: Umumiy qiymati 3,02 milliard AQSH dollariga teng 5 ta loyiha amalga oshirildi. Natijada tarmoqqa 2304 MVt yangi quvvat qo'shildi va 670 ta yangi ish o'ri yaratildi.

2021-yil: Umumiy qiymati 226,3 million AQSH dollariga teng 2 ta loyiha amalga oshirildi.

2022–2025-yillar: Kompaniya umumiy qiymati 2 465,81 million AQSH dollariga teng 4 ta loyihani amalga oshirmoqda va amalga oshirishni rejalashtirmoqda. Bu tarmoqqa 2264 MVt quvvat qo'shish va 700 ta yangi ish o'ri yaratish imkonini beradi.

Portfel ma'lumotlari:

Korxonaga tarkibiga 4 ta issiqlik elektr stansiyasi, 3 ta issiqlik elektr markazi, 3 ta sanoat korxonalariga xizmat ko'rsatuvchi tashkilot, "Toshkent issiqlik markazi" MChJ kiradi.

2022-yilda IES korxonalaridan 55,5 milliard kVt/soat elektr energiyasi va 5,3 million Gkal issiqlik energiyasi ishlab chiqarildi.

Korxonaga qarashli subyektlar tomonidan 2023-yilda 54,3 milliard kVt/soat elektr energiyasi va 5,1 million Gkal issiqlik energiyasi ishlab chiqarish rejalashtirilgan edi.

2023-yilning uch choragi yakunlariga ko'ra, IES korxonalaridan elektr energiyasi ishlab chiqarish rejasi bajarildi.

Faoliyat ko'rsatkichlari:

2023-yil uchun biznes-rejani amalga oshirish⁶³

No.	Ko'rsatkich	Miqdori (so'm, million)
1.	Sof daromad	13 998 817
2.	Operatsion daromad	4 673 189
3.	Asosiy bo'lmagan faoliyat daromadi	2 266 338
4.	Umumiy xarajatlar	20,664,173
	Jumladan:	
4.1.	Ishlab chiqarish xarajatlari	15 611 007
4.2.	Davr xarajatlari	859 306
4.3.	Asosiy bo'lmagan faoliyat daromadi	4 193 860
5.	Moliyaviy natija (sof foyda)	233 045

Mulkdorlar kengashi a'zolarini tayinlash/saylash:

Jamiyatning Kuzatuv kengashi jamiyat faoliyatiga umumiy rahbarlikni amalga oshiradi. Kuzatuv kengashi a'zolari aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi tomonidan uch yil muddatga saylanadi. Kuzatuv kengashida 7 nafar a'zo mavjud.

Boshqaruv jamoasi a'zolarini tayinlash/saylash:

Jamiyatning kundalik faoliyatini boshqarish Boshqaruv va uning raisi tomonidan amalga oshiriladi. Jamiyat Boshqaruv 5 nafar a'zodan – rais va 4 nafar o'rinbosardan iborat bo'lib, ular aksiyadorlar umumiy yig'ilishi yoki Kuzatuv kengashining qarori bilan uch yil muddatga saylanadi. Boshqaruv a'zolarini tayinlash odatda tanlov asosida amalga oshiriladi, unda xorijiy menejerlar ham ishtirok etishi mumkin.

⁶² https://openinfo.uz/ru/facts/to_pdf/75389.

⁶³ <https://tpp.uz/page/biznes-reza-izrosi>.

Biznesni rivojlantirish banki AJ (BRB)

veb-sayt: brb.uz

Asosiy xususiyatlari: DBlardan birida NGETni sinovdan o'tkazish boshqa banklar, shu jumladan, xususiy banklar uchun uni ixtiyoriy ravishda qabul qilish uchun namuna vazifasini o'tashi mumkin. DBlarning asosiy farqi ularning ikki tomonlama rovida bo'lib, bu foyda olish barobarida xususiy banklar e'tibordan chetda qoldirishi mumkin bo'lgan muayyan sektorlar yoki hududlarda o'sishni rag'batlantirishga xizmat qilish nazarda tutadi.

Shu nuqtai nazardan, "Biznesni rivojlantirish banki" (sobiq "Qishloq qurilish banki") kichik va o'rta biznesni rivojlantirishga qaratilgan yangi tashkil etilgan moliya instituti sifatida alohida ajralib turadi. Yaqinda qayta tashkil etilgan ushbu DB o'z faoliyatiga NGET kabi yangi siyosat va tizimlarni kiritish uchun ko'proq moslashuvchanlik va tezkorlikka ega deb hisoblanadi. Bundan tashqari, 74% aksiyalari IMVga va 24% UFRD'ga tegishli bo'lgan bank NGETni amalga oshirishni osonlashtiradigan davlat resurslari va yordamini yo'naltirish uchun mukammal muassasa bo'lib xizmat qilishi mumkin.

Hozirgi kunda O'zbekistonda 35 ta tijorat banklari faoliyat yuritmoqda,⁶⁴ ulardan 7 tasi davlatga tegishli (50,1% dan ko'p), 3 tasi davlatning asosiy ulushiga (50% dan kam) ega.⁶⁵ Hukumatning 2025-yil oxirigacha sektor aktivlarining 60 foiziga nodavlat banklari egalik qilishiga erishish maqsadi, aftidan, haligacha amalga oshmagan.⁶⁶ Bugungi kunga qadar davlat faqat ikkita bank aksiyalarini sotishga muvaffaq bo'lgan.⁶⁷

Bankning maqsadi: KO'K subyektlari loyihalarini moliyalashtirish va ularga kompleks moliyaviy xizmatlar ko'rsatish

Vazifalar: (i) kichik va o'rta biznes loyihalarini ishlab chiqish, moliyalashtirish va yo'lga qo'yishda ko'maklashish, ularga maslahat xizmatlarini ko'rsatish va (ii) kichik oilaviy biznesga ko'maklashishga qaratilgan davlat dasturlarini qo'llab-quvvatlash.

Yuridik shakli: Aksiyadorlik jamiyati

Huquqiy asos: Prezidentning 2023-yil 4-sentyabrdagi PQ-292-sonli qarori

Loyihalar uchun tasdiqlangan mablag'lar: KO'K dasturini doimiy qo'llab-quvvatlash (2023-2026):

Ajratilgan mablag'lar: Davlat mablag'lari – 6 trln so'm; XMT mablag'lari – 1,2 mlrd

Aksiyadorlar: IMV: 74,47% / UFRD: 23,86% / Boshqalar: 1,67%⁶⁸

Faoliyat ko'rsatgan davri: 2023-yildan hozirgi kungacha (BRB sifatida)

Ustav kapitali: 1,855 trln so'm

Moliyaviy vositalar: kreditlar, ipoteka, grantlar, kapital, lizing

Portfel ma'lumotlari:

Kredit portfeli, 2023-yil 31-dekabr holatiga ko'ra:

Portfel turi	Ulushi (%)
Ipoteka	47%
Yuridik shaxslarga kreditlar	51%
Jismoniy shaxslarga kreditlar	2%

Kredit portfeli (tarmoqlar bo'yicha), 2023-yil 31-dekabr holatiga ko'ra:

Tarmoq	Ulushi (%)
Sanoat	20.9%
Qurilish	7.4%
Transport va aloqa	2.0%
Savdo	9.0%
Qishloq xo'jaligi	6.2%
Jismoniy shaxslar	49.0%
Boshqalar	5.5%

Faoliyat ko'rsatkichlari:

2023-yil 31-dekabr holatiga KPI:

Indikator	Qiymat (%)
Jami aktivlar	so'mda, 27,1 trln
Jami kapital	so'mda, 3,18 trln
ROA	0,87%
ROE	7,42%
NIM	4,67%
CIR	49,1%

Mulkchilik kengashi a'zolarini tayinlash/saylash: Kuzatuv kengashining raisi Kuzatuv kengashining ko'pchilik ovozi bilan saylanadi. Kuzatuv kengashining to'qqiz nafar a'zosi aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi tomonidan bir yil muddatga saylanadi. Bank Kuzatuv kengashi a'zolari o'z fikrining mustaqilligi talablariga rioya etishlari shart. Bank Kuzatuv kengashi tarkibiga bank, moliya va boshqa tegishli sohalarida kamida ikkita mustaqil olim va/yoki mutaxassislar, shu jumladan, Korporativ boshqaruv ilmiy-ta'lim markazi tomonidan berilgan korporativ boshqaruv sertifikatiga ega bo'lgan mustaqil a'zo bo'lishi kerak – ular har yili saylanishi mumkin.⁶⁹

Boshqaruv jamoasi a'zolarini tayinlash/saylash: Bank Boshqaruv 7 kishidan iborat kollegial organ bo'lib, unga bank raisi rahbarlik qiladi. Boshqaruv raisi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori bilan tayinlanadi va aksiyadorlar umumiy yig'ilishining qarori bilan tasdiqlanadi. Boshqaruvning boshqa a'zolari Markaziy bank bilan kelishilgan holda Boshqaruv raisining taqdimnomasiga asosan Kuzatuv kengashining qarori bilan tayinlanadi.⁷⁰

⁶⁴ <https://cbu.uz/oz/statistics/bankstats/1675103/>.

⁶⁵ <https://lex.uz/docs/6576274>.

⁶⁶ <https://daryo.uz/uz/2024/03/13/o'zbekistondagi-davlat-banklarini-xususiylashtirish-kechikishlari-bo'lishi-mumkin-fitch-ratings-ekspert-ogohlantirishlar>.

⁶⁷ 2023-yil iyun oyida Vengriya OTP banki Ipoteka-bank egasiga aylandi va 2023-yil yanvar oyida "O'zagroeksportbank" (hozirda Avo) xususiylashtirildi.

⁶⁸ <https://brb.uz/bank-haqida/bank-aksiyalari>.

⁶⁹ [Bank ustavi](#).

⁷⁰ [Bank ustavi](#).

O'zbekistonda iqlim o'zgarishiga qarshi kurashish uchun davlat mablag'larini "yashillashtirish"

Noyabr, 2024-yil